



“ARXITEKTURA”

TA'LIM YO'NALISHI

K.D.Raximov, A.S.Uralov

**SHARQ
MAMLAKATLARINING
BOG'-PARK SAN'ATI**

Toshkent – 2013

Архитектура-А

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

K.D.Raximov, A.S.Uralov

SHARQ MAMLAKATLARINING BOG‘-PARK SAN‘ATI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlarining «Arxitektura», «Qishloq hududlarini
arxitektura-loyihaviy tashkil etish» va «Landshafilar arxitekturasi»
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etilgan*

UO'K: 72(075)

KBK 42.37

R-16

Mas'ul muharrir: **S.I. Ahmedov**, SamDAQI texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar: **L.A. Adilova**, TAQI arxitektura nomzodi, dotsent;
A.B. Bolg'ayev, SamDAQI arxitektura nomzodi, dotsent.

Raximov K.D.

Sharq mamlakatlarining bog'-park san'ati / K.D.Raximov, A.S.Uralov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2013. – 272'b.

KBK 42.37

ISBN 978-9943-4237-6-3

Ushbu qo'llanmada Yaqin, O'rta va Uzoq Sharq mamlakatlari: Misr, Ossuriya, Bobil, Eron, Turkiya, Movarounnahr, Shimoliy Hindiston, Pokiston, Xitoy va Yaponiyaning qadimgi va o'rta asrlardagi, shuningdek, zamonaviy bog'-park san'ati keng bayon etilgan, O'rta Osiyoning Amir Temur va temuriylar davri bog'-saroylari Shimoliy Hindistondagi Bobur va boburiylar davri bog'-parklari bilan qiyoslangan. «Chorbog'» uslubidagi O'rta Sharq mamlakatlari va O'rta Osiyo bog'lariga keng tavsif berilgan.

Qo'llanmada asosiy e'tibor temuriylar davri bog'-park san'atining muhim yodgorliklari tahliliga qaratilgan bo'lib, uning mintaqaviy bog'-park san'ati «maktablari» ta'siri, bu sohadagi turg'un qadriyatlar va barqaror yo'nalishlar aniqlanib, maktablarning o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlari ochib berilgan.

Mualliflar o'z fikrlari orqali mo'jizakor bog'-park san'atining badiiy ifodalanish jarayoni va tadrijiy rivojlanishi haqidagi taassurotlarini keng yoritib berishga harakat qilganlar. Ular mazkur masalalarni to'liq izohlashga emas, balki arxitektura dunyosining murakkab ochiq yashil muhitlari, landshaft arxitekturasining bog'-park san'ati obyektlarini hayotiy jonli misollar va rangli rasmlarda yoritib berganlar.

Qo'llanma «Arxitektura», «Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish» va «Landshaftlar arxitekturasini» ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil oluvchi bakalavr va magistrantlar, yosh olimlar, loyihachi arxitektorlar hamda bog'-park san'ati tarixiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

UO'K: 72(075)

KBK 42.37

© K.D.Raximov, A.S.Uralov,
2013.

© «Tafakkur Bo'stoni», 2013.

ISBN 978-9943-4237-6-3

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, boshqa sohalardagi kabi bog'-park qurilishining milliy yo'nalishiga, bu sohadagi tarixiy boy tajribalarimizni chuqur o'rganish va aniqlashga, ularni qayta tiklashga, umuman, respublikamizda milliy bog'-park san'atini yaratish va rivojlantirishga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizning barcha shahar va tuman markazlarida aholining dam olishiga mo'ljallangan istirohat bog'lari mavjud. Ularning ayrimlari qayta ta'mirlanib, yanada ko'rkam ko'rinishi bilan xalqqa xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29-dekabrda 322-sonli «2011–2015-yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori bu soha rivojiga davlat miqyosida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Bu sohada respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va rahbarligida olib borilayotgan amaliy ishlar ko'lami juda kattadir. Toshkentdagi Mustaqillik maydoni va undagi Ezgulik arkasi, Mustaqillik monumenti va Baxtli ona haykali hamda «Xotira va qadriyat» xiyobonlaridan boshlanadigan O'zbekiston zamonaviy bog'-park san'ati nafaqat viloyatlardagi poytaxt shaharlar, balki kichik shaharlar va qishloqlarimiz hududlarini ham qamrab olmoqda.

Umuman olganda, bog'-park san'atini rivojlantirishga bo'lgan tizimli yondashuv davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki bog'-park san'ati insoniyatning xayrli va foydali, ko'hna va hamisha navqiron san'at turlaridan biridir. U insoniyatning eng qadimgi davrlaridan boshlab shakllangan, tadrijiy rivojlangan va takomillashib kelgan. Har bir o'lka va mamlakatning bu sohadagi o'z tajribalari, me'moriy-badiiy landshaft uslublari, tartib-qoidalari borki, ularni o'rganish foydadan holi emasdir.

Hozirda O‘zbekistonda bog‘-park san‘atiga doir o‘quv adabiyotlarining soni juda ozdir. Bu sohadagi adabiyotlar asosan rus tilida chop etilgan bo‘lib, B.I.Kaxnoning «Садово-парковое искусство» (M.,1980), D.S.Lixachevning «Поэзия садов» (M., 1982), V.A.Goroxov, L.V.Lunslarning «Парки мира» (M., 1985), S.S.Ojegovning «История ландшафтной архитектуры» (M., 1994), V.V.Dormidontovaning «История садово-парковых стилей» (M.,2004), Emma Klarkning «Искусство исламского сада» (M.,2008) kitoblari shular jumlasidandir. Ushbu mavzuga doir o‘zbek tilida nashr etilgan adabiyotlar qatoriga O‘.Alimovning «O‘rta asrlarda Movarounnahrda bog‘chilik xo‘jaligi tarixi» (T., 1984), D.Nozilovning «Chorbog‘» (T.,1997), L.A.Adilovning «Landshaft arxitekturasi» (T., 2002 va 2010), S.S.Ojegov, A.S.Uralov, K.D.Rahimovlarning «Landshaft arxitekturasi va dizayni» (S., 2003) nomli kitoblarini kiritish mumkin.

Mazkur masala bo‘yicha turli davrlarda O‘zbekistonda nashr etilgan rus va o‘zbek tillaridagi qator ilmiy va ommabop maqolalar mavjud bo‘lib, ularning mualliflari tarzida G.A.Pugachenkova, P.Sh.Zohidov, M.S.Bulatov, M.S.Toxtaxodjaeva, T.F.Qodirova, A.S.Uralov, K.D.Rahimov, L.A.Adilova, M.K.Ahmedov, G.I.Korobovsev, N.V.Drobchenko, T.Sh.Mamatmusayev, S.N.Sodiqova va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Bog‘-park san‘atining sermazmun va serfayz, boy tarixiy tajribalari bilan tanishish, avvalambor, bo‘lajak me‘morlar, landshaft arxitektorlari va dizaynerlari, shaharsozlar, qolaversa bog‘bonlar va ekologlar uchun ham juda qiziqarlidir.

2004-yilda Markaziy Osiyoning mustaqil respublikalari ichida ilk bor O‘zbekistonda «Arxitektura» ta‘lim yo‘nalishiga asoslangan «Landshaftlar arxitekturasi» mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash ishi yo‘lga qo‘yildi. 2008–2011-o‘quv yilidan boshlab esa Toshkent arxitektura-qurilish instituti va Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining hamkorlikdagi sa‘y-harakatlari natijasida ushbu sohaning alohida ta‘lim yo‘nalishi ham ochildi. «Landshaftlar arxitekturasi» yo‘nalishining namunaviy o‘quv rejasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu o‘quv rejada «Bog‘-park san‘ati» fani mavjud bo‘lib, Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida uni o‘tish A.S.Uralov va K.D.Rahimovlar zimmasiga yuklandi. Xullas, qo‘lingizdagi kitob ana shunday xohish va istaklar mahsuli tarzida yaratildi. Unda Qadimgi Misr, Ossuriya va Bobil,

Eron va Sug‘diyona, Hindiston va Xitoy, Yaponiya bog‘-parkchilik san‘ati yoritib berilgan. Shuningdek, qo‘llanmada Sharq mamalakatlarining o‘rta asrlar va zamonaviy bog‘-park san‘ati ham keng bayon etilgan. Markaziy Osiyoning Amir Temur va Temuriylar davri bog‘-saroylari Shimoliy Hindistondagi Bobur va boburiylar davri bog‘-saroylari bilan qiyoslangan. «Chorbog‘» uslubidagi O‘rta Osiyo bog‘-lariga keng tavsif berilgan.

Yevropa va Amerika qit‘alaridagi qadimgi va o‘rta asrlar hamda zamonaviy bog‘-parklar, ularning me‘moriy-rejaviy, g‘oyaviy-badiiy, stilistik hamda manzaraviy-landshaft yechimlarini o‘rganishni navbatdagi yaratilajak kitobimizda davom ettiramiz degan umiddamiz.

Mazkur kitobning maqsadi Sharq mamlakatlarining qadimgi va o‘rta asrlar hamda zamonaviy bog‘-park san‘ati tajribalari misolida talabalarga bog‘-parklarni tashkil etish tamoyillari va shakllari, me‘moriy-landshaft uslublari haqidagi bilimlarni o‘rgatish, bu uslublarning shakllanish jarayonlari haqidagi tushunchalarni berish va yetkazishdir.

Umuman olganda bog‘larni ikki xil yirik funksiyaviy guruhga bo‘lish mumkin: manfaatli xo‘jalik bog‘lari va dam olish istirohat bog‘lari (me‘moriy bog‘lar).

Xo‘jalik bog‘lari, ma‘lumki, jamiyatning obodonchilik, to‘qlik, mo‘l-ko‘lchilik belgisi bo‘lib, ular, odatda, moddiy shaxsiy manfaatlar va xo‘jalik ehtiyojlari uchun yaratilgan. Ular hovlilar qoshida «tomorqa» tarzida yoki shahar cheti va tashqarisida tekis, nishablik yoki tog‘li joylardagi bog‘lar tarzida bunyod etilgan. Bunday bog‘larning yaratilishi asosan moddiy ehtiyojlarga bog‘liq bo‘lib, ularda turli-tuman mevali daraxtlar, tokzorlar ekilgan, bir qismi esa sabzavot ekinlariga ham ajratilgan bo‘lishi mumkin. Biroq ular insonlarning dam olishi uchun mo‘ljallanmagan. Mazkur qo‘llanmada o‘rganilayotgan bog‘-parklar esa, asosan, istirohat maqsadlariga, insonlarning ochiq muhitda sayr qilishi, dam olishi va hordiq chiqarishiga mo‘ljallangan. Ularni yaratishda bog‘bonlarning ham o‘rni bor, albatta, biroq asosiy rolni bu yerda me‘morlar bajaradi. Chunki bog‘-parklar tarkibida imoratlar va inshootlar ham bo‘lib, ular puxta loyihalaniib keyin qurilgan.

Insonlarning istirohati, ya‘ni rekreatsiya turlariga qarab bog‘-parklar ham turlicha bo‘lgan. Shartli ravishda istirohat turlarini faol (aktiv) va sust (passiv) guruhlarga bo‘lish mumkin. Shunga mos ravishda bog‘-parklarning funksional yo‘nalishlari ham turlichadir. Masalan,

tinch dam olish va sayr qilish bog'lari yoki turli o'yinlar va tomoshalarga mo'ljallangan (attraksion) bog'-parklar, sport parklari, ko'ngilochar bog'lar va hokazo.

Rekreatsiya bog'larining me'moriy-rejaviy tuzilishi, ya'ni asosiy g'oyasi, istirohat binolari va suv qurilmalari, tashqi obodonlashtirish jihozlari, badiiy bezaklar, to'shamalarni yaratishda, bog' hududining umumiy va alohida landshaft yechimlari va dizaynini ishlab chiqishda me'morlar asosiy o'rinni egallasa, me'morlarga bu ishlarni amalga oshirishda, o'simliklarni tanlashda va ekilgan o'simliklarni parvarishlashda bog'bonlar yaqindan yordam bergan. Shuning uchun ham istirohat bog'lari ko'pchilik adabiyotlarda «me'moriy bog'lar» deb atalgan.

Istirohat bog'lari, ya'ni rekreatsion bog'-parklarning asosiy qismi insonlarning istirohat turlariga va tabiatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. O'tmishda ular turli-tuman ko'rinishlarga ega bo'lgan. Bog'-saroylar, chorbog'lar, bog'-u bo'stonlar, gulistonlar, bog'-qo'rg'onlar, qo'riqxonalar, bog'-ansambllar shular jumlasidandir. Xullas, bog'-parklar deganda biz xo'jalik bog'larini emas, balki me'moriy istirohat bog'larini, ularning turli ko'rinishlari va shakllarini tushunishimiz kerak.

Bog'-parklarning turli mamlakatlardagi rivoji turli davrlarda turlicha kechgan bo'lsa-da, ularning shakllanishi hamma vaqt joylardagi muayyan tabiiy-iqlim sharoitlarga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, diniy e'tiqodlarga, insonlarning atrof-muhit va tabiatga bo'lgan munosabatiga jiddiy bog'liq bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bog'-park san'atining o'ziga xosligini va uni qunt bilan o'rganishni taqozo etadi. Biz jahon bog'-park san'ati merosiga doir barcha ma'lumotlarni birgina o'quv qo'llanmaga sig'dira olish imkoniyatiga ega emasmiz. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston Respublikasi issiq subtropik iqlimda joylashgani sababli, biz uchun issiq quruq iqlimli Sharq xalqlarining bog'-parklar yaratish tajribalari alohida e'tiborlidir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, boshqa sohalardagi kabi, bog'-istirohatchilik san'atida ham unut bo'lgan va toptalgan milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, ularni o'rganish va aniqlash, bog'-istirohatchilikdagi ilg'or tarixiy tajribalarimizni amaliyotga tatbiq qilish, ularni zamonaviy umumjahon tajribalari bilan muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar qo'yilmoqdaki, bular bugungi kunda nafaqat landshaft arxitektorlari va me'morlar uchun, balki shaharsozlar, ekologlar, bog'bonlar, dizaynerlar, muhandislar uchun ham dolzarbdir.

Shuning uchun ham biz jahon bog'-park san'ati merosini o'rganishni e'tiqodi, dini va eng muhimi, iqlim sharoiti bizga yaqin bo'lgan Sharq mamlakatlaridan boshladik. Ularga Yaqin, O'rta va Uzoq Sharqdan tashqari, Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonning o'tmishdagi va zamonaviy bog'-park san'ati ham kiradiki, mazkur o'quv qo'llanmada bu tajribalar keng yoritib berilgan. Shunday ekan, bu ilg'or tajribalar kelajakda bunyod etiladigan yoki qayta ishlanadigan zamonaviy bog'-parklarimizga did bilan tadbiiq etilishiga ishonamiz.

Bog'-park san'atida manzaraviy daraxt va butalar, gullar, chirmashuvchi va yerni qoplovchi o'simliklar, maysalar muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham bu san'atni o'rganuvchilar dendrologiyani, ya'ni o'simlikshunoslik fanlarini ham yaxshi o'rganmoqlari zarur. Bu borada faylasuf Dj.Lokk fikrini ham eslab o'tish o'rindir. U o'zining «Inson tafakkuri tajribasi» kitobida «Dunyoni muhitdan olingan oddiy taassurotlar, oddiy fikrlar yaratadi, so'ng ular birgalikda ancha murakkab fikrlarni tug'diradi», deb yozgan edi. Darhaqiqat, mazkur qo'llanmada bayon etilgan va asrlar davomida shakllanib, qo'llanib kelingan bog'-park san'ati merosi ham hozirgi yoshlarni kelajakda mo'jizaviy yangi bog'lar yaratishga da'vat etsa, ajab emas.

Ushbu kitobda berilayotgan rasmlar respublikamiz va xorijiy davlatlarda chop etilgan yangi davriy nashrlar va Internet materiallaridan olindi va mualliflarning shaxsiy arxivlaridan keltirilgan foto va chizmalar bilan to'ldirildi.

O'quv qo'llanmaning kirish qismi, 3-bobini A.S.Uralov, 1- va 2-boblari, boblardagi bo'limlar bo'yicha xulosalarni A.S.Uralov va K.D.Rahimovlar yozdi. Kitob matnini to'ldiruvchi rasmlarni topish va tanlash, rasm osti izohlarini yozish ishlarini K.D.Rahimov boshqardi. 3-bobdagi «O'zbekistonning zamonaviy bog'-parklari» bo'limini yozishda SamDAQI stajer-tadqiqotchilari A.Aymatov, N.Fayzullayeva va B.Elmuurodov, magistrantlar D.Sultonov, E.Toshev, R.Shodmonovlarning materiallaridan foydalanildi va kitob matnida ularning ishtiroki alohida belgilab qo'yildi.

Kitobni nashrga tayyorlashda mualliflarga yaqindan yordam bergan va kitobga ma'sul muharrirlik qilgan Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining rektori S.I.Ahmedovga, ushbu kitobning yaratilishiga katta hissa qo'shgan professorlar: M.K.Ahmedov, Sh.J.Askarov, B.U.Kaspangaliyev, T.F.Qodirova, R.S.Muqimov, X.M.Ubaydullaev, M.A.Yusupova, M.Usmanov va YUNESKO qoshidagi MITSAI direktori Sh.M.Mustafayevlarga; o'quv qo'llanmaning ma'lumotlar bazasini

shakllantirishda muhim o‘rin tutgan MARXI professorlari: L.N.Avdotin, A.P.Vergunov, M.F.Denisov, M.N.Imanov, Y.V.Raninskiy, I.G.Lejavalarga; ushbu loyiha asoschisi, ustoz va murabbiy, MARXI professori S.S.Ojegovga alohida ehtirom ila o‘z minnatdorchiliklarini izhor etadilar.

Mualliflar, shuningdek, qo‘llanmaga taqriz yozgan arxitektura fanlari nomzodlari, dotsentlar L.A.Adilova va A.B.Bolg‘ayevlarga, nashrning kompyuter grafikasi va dizayni, musahhahlik ishlarini bajaragan B.Elmurodov, A.Aymatov, N.Fayzullayeva, A.Xudoynazarov, D.Sultonov va G.Siddiqovalarga ham o‘z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

Mazkur kitob haqida kitobxonlar o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar, degan umiddamiz, chunki ularning qimmatli fikrlari keyingi ishlarimizning kamchiliklardan holi bo‘lishida yordam berishiga ishonamiz.


Mualliflar.

I B O B

SHARQ MAMLAKATLARINING QADIMGI BOG‘-PARK SAN‘ATI

1.1. Misrning qadimgi bog‘-park san‘ati

Hozirgi me‘morchilik va shaharsozlik fani hanuzgacha ko‘hna dunyoning landshaft arxitekturasi, xususan, bog‘-park san‘ati haqida to‘liq ma‘lumotlarga ega emas. Bu sohadagi bilimlar, asosan, qadimiy qo‘lyozmalarga, shartli ravishda chizilgan kamyob tasviriy san‘at asarlari va arxeologik topilmalarga asoslangan. Mavjud tarixiy ma‘lumotlar bog‘-park san‘ati insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining ilk davrlaridayoq paydo bo‘la boshlaganidan darak beradi. Shubha yo‘qki, bog‘ yaratish tajribalari boshda insonlarga manfaatli, ya‘ni foydali xo‘jalik bog‘larini yaratish ehtiyojlariga asoslangan (1-rasm). Bunday bog‘larni mulkdor, imkoniyati bor kishilargina yarata olgan. Shu boisdan, xo‘jalik bog‘larining bizga ma‘lum bo‘lgan eng qadimgilari jamiyatning yuqori tabaqadagi a‘zolariga tegishli bo‘lgan. Faqat badavlat kishilar, hukmdorlar va ibodatxonalargina foydali xo‘jalik bog‘laridan tashqari huzur-halovat va istirohat uchun mo‘ljallangan me‘moriy bog‘lar yaratish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Xalq ommasiga mo‘ljallangan istirohat bog‘lari esa o‘ta kamyob hisoblangan.



1-rasm. Xo‘jalik bog‘ining ko‘rinishi.



2-rasm. Bog'ni sug'orish jarayoni aks ettirilgan lavha.




3-rasm. Bog'ni sug'orish va hosil yig'ish jarayonlari aks ettirilgan lavhalar.

Fanga ma'lum bo'lgan eng qadimgi bog'-parklar insoniyatning dastlabki sivilizatsiyalaridan biri hisoblangan Misr hududida vujudga kelgan. Sug'orish inshootlari va qurilmalarining rivojlangan tizimiga asoslangan, yuksak saviyadagi Misr bog'dorchiligida o'lkaga xos issiq iqlim sharoitidan, jazirama quyosh taftidan saqlanish uchun quyuq soyali soya-salqin bog'lar yaratishga ehtiyoj bo'lgan (2-, 3- rasmlar).



Mevali daraxtlar kam soya berishi sabab, Misr bog'lariga chinor, tameriks, yunon yong'og'i, tol va boshqa manzarali, quyuq soya beruvchi daraxtlar ekilgan.

Miloddan avvalgi IV–III asrlardagi Misr bog'lari haqida noyob esdaliklar saqlangan. Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Misrda boshlangan Yangi podsholik davri naqsh-bezaklari va barelyeflarida turli




4-rasm. Nil vohasi sohilida qurilgan Misr zodagonining saroy bog'i.
Fivadagi qabrlarning biriga ishlangan barelyefdan ko'chirma.

xil hovuzlar, bir-biridan farq qiluvchi ekinlar va daraxtlarga, to'g'ri burchakli muntazam me'moriy rejaga ega bo'lgan xususiy bog'larning tasvirlari uchraydi. Bunday bog'lar hukmdorlar saroylari qoshida («saroy-bog'lari»), badavlat uylarning ichki hovlilarida, ibodatxonalar atrofida, shahar tashqarisidagi villalarda qurilgan (4-, 6-rasmlar). Saroylar va ibodatxonalar esa, odatda, Nil daryosining toshqin suvlari yetib bormaydigan tepalik va qirlarda joylashtirilgan. Ehtimol shu sababdan Qadimgi Misr qirlari etaklarida pog'onali (ko'p sahnli) bog'lar vujudga kelgan. Saroylarning ichki hovlilari tekislanib, to'g'ri burchakli tekis bog'lar shakllantirilgan. Bog' chetlariga katta daraxtlar, ichkarisiga esa pastroq daraxt va butalar ekilgan. O'rtada katta hovuz, uning yoniga soyabon qurilgan (5-rasm).



5-rasm. Misr saroylarining ichki hovlilaridagi to'g'ri burchakli muntazam rejali bog'lar.



6-rasm. Qadimgi Misr. Ibadatxona qoshidagi bog' rejasi.

Misr bog'larining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — ularda hovuzlar, gulzorlar, mevali va manzarali daraxtlar, uzumzor va sabzavotzorlarning aralash ekilishidir. Daraxt qatorlari orasidagi bo'sh joylarga sabzavot va gullar ekilgan. Tokzorlar uchun esa alohida maydon ajratilgan. Eng qadimgi podsholik davrlaridayoq toklarni ko'tarib qo'yish uchun ustunli-to'sinli qurilmalar ishlatilgan. Keyinchalik ularga zeb berilib, tokzorlar bilan o'ralgan soyabonlar vujudga kelgan. Bog'lar to'rida saroy binosi joylashgan. Bog' darvozasidan saroy eshiklarigacha bo'lgan yo'lakda tok bilan yopilgan xiyobon tortilgan (4-rasm). Bog'



7-rasm. Gullar yordamida saroy interyerlarining badiiy bezalishi.



markazi va alohida qismlarining markazlarida hovuzlar joylashgan. Shahar qal'alari, ehromlar, bog'lar va ulardagi hovuzlar asosan to'g'ri to'rtburchakli muntazam simmetrik tarx asosida qurilgan (5-rasm).

Misrdagi Yangi podshohlik davrida har bir ibodatxona o'z bog' xo'jaligiga ega bo'lgan (6-rasm). Mentuxoteplar (miloddan avvalgi 2160–2000-yillar) ibodatxonalari qoshidagi bog'lar hamda qirolicha Xatshepsut bunyod etgan bog'-park bunga misol bo'la oladi. Malika Xatshepsut Punt davlatiga ekspeditsiya yubortirib, u yerdan xushbo'y qatron ishlab chiqariladigan balzamli terak va misrliklarga juda ma'qul bo'lgan boshqa ekzotik o'simliklarni qutilarga solib tomiri bilan keltirishni buyurgan.

Misrlik bog'bonlar marvaridgul, shabbo'y va atirgullarni madaniylashtirib ko'paytirganlar. Bog'larga bulardan tashqari qalampirgul, butako'z, moychechak, lolagul, nilufar va papirus gullari ekilgan. Gullardan tantanalarni badiiy bezashda ham keng foydalanilgan, gulchambar va marjonlar yasalgan. Misrda qirolicha Kleopatra (miloddan avvalgi 69–30-yillar) podshohligi davrida atirgullarning ko'plab turlari o'stirilgan (7-rasm).

Bog'- istirohatchilik san'ati, ayniqsa, Misrning qadimgi poytaxti Fivada rivojlangan. Fivadagi bog'lar saroylar, shahar hovlilari va ibodatxonalar qoshida qurilgan.

Fivadagi yirik saroy bog'lari bir necha qismlarga bo'linib, har bir alohida hovlidagi bog' devorlar bilan ajratilgan. Bu devorlar bog' muhitini quruq shamollardan saqlashga yordam bergan. Bog' ichida to'g'ri burchakli turli xil hovuzlar joylashtirilib, ularda chiroyli suv o'simliklari, ayrimlarida esa o'rdaklar va baliqlar suzib yurgan. Bosh bino, ya'ni saroy bog' kompozitsiyasining markaziy o'qida joylashib, unga toklar osilgan xiyobon orqali borilgan. Bog'ning barcha tarkibiy qismlari – hovuzlar, soyabonlar, tokzorlar, gulzorlar, ochiq pavilyonlar sug'orish tizimiga asoslangan yaxlit muntazam (regular) kompozitsiyaga bo'ysundirilgan (8-rasm).



8-rasm. Fiva hovlilari qoshida qurilgan bog' ko'rinishi.




9-rasm. Qadimgi Misrda vujudga kelgan pog'onasimon bog' ko'rinishi.

Fir'avn Tutmos IV va Amenofis III lar davrida (mil. avv. 1555–712-yillar) misrliklar forslar bilan yaqin madaniy aloqada bo'lganlar. Ayrim manbalarda o'sha davrlardagi Misr bog'lariga fors bog'larining yechimlari ijobiy ta'sir ko'rsatgan deyilgan. Biroq eng qadimiy pog'onasimon bog'lar ilk bor forslar yurtida emas, balki Qadimgi Misrda vujudga kelganligi tarixdan ma'lum (9-rasm).

Arxeologik manbalar ham Qadimgi Misr bog'lari simmetriya, muntazam rejaviy va nafis landshaft yechimiga asoslanganligini tasdiqlaydi. Hukmdorlar bog'larining ko'pchiligi bo'ylama o'qli simmetrik rejaga ega bo'lib, o'q uzra joylashgan bog' imoratlari va ochiq yashil muhitlar kontrasti va perspektivasini tashkil etgan. Boy zodagonlar saroylari qoshidagi bog'lar hududi 6–7 ming m² bo'lsa, oddiy shaharliklarning hovli bog'lari bor-yo'g'i 100 m² ga yaqin bo'lgan.

Qadimgi Misrda ayrim shaharlar bog'-shaharlarga aylanib ketgan: Toben va Toel Amaris ana shunday bog'larga burkangan shaharlar hisoblangan. Qadimgi misrliklar mozorlar qoshiga ham bog'lar qurib, ularni gullar, o'simliklar bilan bezaganlar (10-rasm).

Fir'avn Ramzes III (mil. avv. 1198–1166-y.) davrida kichik daraxt va butalarni katta dekorativ sopol idishlarga ekish tajribasi o'rtirilgan.




10-rasm. Qadimgi misrliklarning mozorlari atrofi va ibodatxonalari qoshidagi bog'lar.

Uning davrida 514 ta bog' bunyod etilgan. Bu bog'lar dekorativ ahamiyatdan tashqari ehromlarni o'simlik yog'i, sharob, yog'och, xushbo'y o'tlar bilan ta'minlab turgan. Qadimgi Misrda eng sevimli gullar bo'lib nilufargul va papiiruslar hisoblangan. Misrliklarda ehromlar va saroylar atrofidagi bog'larga zabt etilgan xorijiy o'lkalardan keltirilgan ekzotik daraxt va butalar ekish odat bo'lgan.


Qadimgi Misr ibodatxonalarining ko'p ustunli zallarida tig'iz daraxtzorlar mavzusi ulkan ustunlar orqali ramziy ifodalangan. Bir-biriga yaqin o'rnashgan qator ustunlar palma va nilufargullarni xayolan eslatib turgan.

Ana shunday ko'p ustunli zallarni Karnak shahridagi Amon va Edfu shahrining Gora ibodatxonalarida ko'rish mumkin. Bu ehromlar majmuasi qoshida «Sfinkslar xiyobonlari» ham saqlangan bo'lib, ular miloddan avvalgi XV–XIV asrlar landshaft arxitekturasining xiyobon ko'rinishidagi yodgorligi hisoblanishi mumkin. Odamlar ibodatxonaga sfinkslar xiyoboni orqali kirib kelishgan (11-a rasm).

Misrdagi eng uzun sfinkslar xiyobonining uzunligi 3,5 km ga yaqin bo'lgan. Qadimgi Misrda shahar ko'chasining landshaft muhitini yechish tajribasi ham ushbu davrga taalluqlidir. Shimoldan janubga qarab bir necha kilometr ga cho'zilgan Axetaton shahrining shohko'chasi esa har ikki tomonidan baland sfinkslar bilan emas, balki palma daraxtlari bilan chiroyli bezatilgan. To'g'ri chiziqli metrik qatorda joylashgan sfinkslarni palma daraxtlari bilan almashtirish o'sha davr shahar shohko'chalarining landshaft yechimida katta yangilik hisoblagan (11-b rasm).



a. Karnak shahri. Ibadatxonalar qoshidagi «Sfinkslar xiyoboni»ning landshafti.



b. Palma daraxtlari bilan bezalgan landshaft.

11-rasm.

Shuning uchun ham Misrdagi bu qadimiy xiyobonning kompozitsion uslubi keyinchalik hayotda keng qo'llana boshlangan.

Shunday qilib, Qadimgi Misrda landshaft me'morchiligi, xususan bog'-park san'ati muntazam rejaviy yechimga asoslangan holda shakllangan. Shahar landshaftini shakllantirishda ko'cha va xiyobonlar muhim rol o'ynagan. Keng, to'g'ri chiziqli, uzun ko'chalar saroylar va ibodatxonalarni bir-biriga bog'lagan. Landshaft me'morchiligining kompozitsiyalari aksariyat tekis hududlarda shakllangan.

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

323 040

Axborot Resurs Markazi

Qadimgi Misr bog'-parklarining turlariga ibodatxonalar, saroylar, villalar va shaharliklarning hovlilari atrofi va ichida tashkil etilgan bog'lar kirgan. Ko'chalar bo'ylab sfinkslar yoki palmalardan shakllangan uzun xiyobonlar o'tkazilgan. Ibodatxonalariga kirib keluvchi ko'chalar sfinkslar qatorlari bilan bezatilgan.

Mahalliy o'simlik turlaridan tashqari chetdan keltirilgan ekzotik o'simliklar: anjir, anor, atirgul, yasminlardan keng foydalanilgan. Ayniqsa, xushbo'y hid va mevalaridan moy chiqaruvchi daraxtlar yuqori baholangan. O'tli o'simliklardan chinnigul, butako'z, ko'knorlar keng tarqalgan.

Funksional va me'moriy-kompozitsion yechimiga qarab, Qadimgi Misr bog'lari uch turga bo'lingan:

– «xo'jalik bog'lari» – jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, maishiy va moddiy sharoitini yaxshilash ehtiyojlariga asoslangan, erkin rejaviy tarzda bo'lgan bog'lar;

– «saroy-bog'lari» – yuqori martabali mehmonlar bilan tanishuv marosimi va mehmonlarning dam olib xordiq chiqarishiga mo'ljallangan bog'lar. Bu bog'lar to'g'ri burchakli muntazam me'moriy rejaga ega bo'lib, ulardagi hovuz va ko'kalamzorlar asosan to'g'ri to'rtburchakli, simmetrik rejalarda ishlangan;



– shahar hovlilari va ibodatxonalar bog'lari – ular ibodatga kelganlarning ibodatdan keyin dam olib xordiq chiqarishi uchun hamda ibodatxonaning xo'jalik ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Bu bog'lar ham yuqorida aytib o'tilgan «saroy-bog'lari» kabi geometrik tartibli simmetrik kompozitsiya tizimida shakllangan.

1.2. Mesopotamiyaning qadimgi bog'-parklari


Yaqin Sharqdagi Frot va Dajla daryolari oralig'ida joylashgan Mesopotamiyada miloddan avvalgi IV minginchi yillarda shumer va akkadlarning qadimgi qabilalari yashagan. Mesopotamiya bog'-park san'ati tarixi uch davrga bo'linadi: shumeroakkad, ossuriya va yangi bobilliklar davri.

Shumeroakkadlar davri o'ziga xos ehromlar – zikkuratlar tarkibidagi bog'lar bilan ajralib turgan. Zikkurat pog'onali piramida ko'rinishidagi minoraga o'xshash, yirik xom g'isht va toshlardan qurilgan ko'p qavatli (odatda, 7 qavatlik) bino bo'lib, eng yuqori qavatda ehrom joylashgan. Mesopotamiyaning eng qadimgi (miloddan avvalgi XXIV–XXIII asrlar) bog'lari Ure tog'idagi zikkuratning pog'onasimon


bog'lari hisoblangan. Ularda turli xil o'simliklar o'stirilgan. Ehrom pog'onalari keng bo'lib, uning atrofidagi landshaft erkin tarzda rivojlangan. Bu landshaftni ochiq maydonlar va suv havzalari tashkil qilgan (12-, 13-rasmlar).




12-rasm. Mesopotamiyada pog'onasimon ehrom bog'larining grafik rekonstruksiyalari.



13-rasm. Pog'onasimon piramida ko'rinishidagi binolar qoshidagi bog'lar.



14-rasm. Xom g'ishtdan qurilgan ko'p qavatli piramidasimon binoning turli xil o'simliklardan iborat bog'i.



15-rasm. Qadimgi Bobildagi «Semiramida» osma bog'larining rekonstruksiyalari.

Ossuriylar davrida ikki xil bog' ko'rinishi bo'lgan. Birinchisi, piramida ko'rinishida bo'lib, binoning o'zida, piramida pog'onalarida daraxtlar va o'simliklar o'stirilgan. Ikkinchisi, birinchisidan kattaligi bilan farq qilib, hukmdorning ov va hordiq chiqarishiga mo'ljallangan. Bog' tarkibidagi bino atrofida ko'l yoki daryo bo'lib, hudud tabiiy shakllangan istirohat bog'lariga bo'lingan. Bu bog'lar rejasi qat'iy muntazamlikka ega bo'lmay, o'simliklar o'rmondagidek ancha erkin shakllangan (13–16-rasmlar).



Ossuriya va Bobilda davlat tomonidan qo'riqlanadigan rivojlangan sug'orish tarmoqlari mavjud bo'lib, ular o'simliklar o'stirish va bog'lar bunyod etish imkonini bergan. Biroq tarixiy manbalar bu yerdagi bog'lar Qadimgi Misr bog'laridan keyin vujudga kelganligini ko'rsatadi va rejaviy yechimi bilan farq qiladi. Bunday bog'larning bir qismi simmetrik asosda rejalashtirilgan bo'lib, ularning asosiy binolari va hovuzi bitta o'qda joylashtirilgan. Tarixiy suratlarning birida Shumer shohi Gudea saroy qoshidagi parkini (miloddan avvalgi taxminan 2340-yillarda) qamishli o'simliklar bilan chegaralangan tokzorlar va



16-rasm. Orollar va daryo qirg'oqlaridagi Semiramida nomi bilan bog'liq «osma bog'lar».

hovuzlar tashkil etganining tasvirlangani fikrimizni isbotlaydi. Bu parklar haqida ilk bor Ossuriya shohi Tigrapalasar I (miloddan avvalgi 1100-yillarda) shunday ma'lumot beradi: «Kedr (igna bargli yirik daraxt), qora qayin hamda bu yerga mendan oldin hech kim ekmagan daraxt navlarini mag'lub etgan o'lkalarimdan olib kelib, o'z mamlakatim bog'lariga ekdim».

Keyinroq esa shoh Sargon II ham (miloddan avvalgi 711–707- yillar) o'zi qurdirgan yangi shahar Dur-Shurakindagi saroyi qoshida park bunyod etib, uni Xett mamlakatidan keltirilgan turli xil ekzotik o'simliklar va tog' mevalari bilan bezatgan. Sargonning o'g'li Sanxerib ham Ossuriyaning avvalgi poytaxti Nineviyada saroy qurib, uning yonida park bunyod etgan va parkda turli xil bog'lar, shuningdek, mevali daraxtlar hamda uzumzor tashkil qilgan. Bog'lar kanal orqali sug'orilgan va unda uzumlar, mevali daraxtlar, xushbo'y o'tlar, gullar, sarv, palma va boshqa o'simliklar yayrab o'sgan. Parkda, shuningdek, noyob hayvonlar ham saqlangan. Sun'iy suv havzalari va turli shakllardagi pavilyonlar qurilgan.



17-rasm. Simmetriyaga asoslangan, hovli markazi va bino qoshidagi hovuz bosh o'qda joylashtirilgan «osma bog'lar».


Ma'lumki, ossuriyaliklar ham shumeroakkadlarga o'xshab zikkuratlar qurganlar. Zikkurat pog'onalarining sathi ko'kalamzorlashtirilgan. Ayrim mutaxassislarning taxminicha, parklardagi tuproqdan sun'iy qirliklar yasalgan va tepa qismiga soyabon (pavilyon) o'rnatilgan. Baland tepalik ushbu zikkurat ta'sirida vujudga kelgan. Asosiysi, binoning qoshida hovuz qurilgan va ular bir o'qda joylashtirilgan (17-rasm). Zikkuratga xos landshaft va me'moriy yechimlar qadimgi bobilliklarni, bog'lar rivojlanishining ikkinchi bosqichida, ehtimol «osma» va «mo'jaz» bog'lar bunyod etish g'oyasiga undagan.

Dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblangan «osma bog'lar» nafaqat Qadimgi Bobilning, balki, butun Sharqning landshaft me'morchiligi va dizaynidagi eng go'zal namunalardan biri bo'lgan. Bu bog'lar Frot daryosining sohilida joylashgan bo'lib, Gerodotning fikricha, Ossuriya qirolichasi Semiramida (miloddan avvalgi IX asr) nomi bilan bog'langan. Tarixchi Strabon esa bu bog'larni shoh Navuxodonosor II (miloddan avvalgi 605–562-yillar) o'zining midiyalik sevikli xotini Nikotrisa uchun qurdirgan deb yozgan. Bog'lar dastlab malika Semiramida (aslida Shaamuramat) davrida qurilgan, keyinchalik, Navuxodonosor tomonidan rivojlantirilib, qayta ishlangan bo'lishi mumkin (15-, 16-rasmlar).

To'rt qavatlik, yuqoriga sekin-asta qisqarib boruvchi pog'onasimon «osma bog'lar»ning birinchi qavati o'lchamlari 45×40 metrni, ikkinchi qavati esa 40×30 metrni tashkil qilgan. Har bir qavatning sof balandligi 5 metrga yaqin bo'lib, bir qavatdan ikkinchisiga oq va qizg'ish rangli marmardan ishlangan keng zinalar orqali chiqilgan. Naqshinkor ustunlarga tayangan ravoqlar ustidan g'isht, uning ustidan murakkab tarkibli yelim-qatron, ichiga esa hozirgi sementga o'xshash loy to'ldirilgan chiy to'shalib, yana g'isht terilgan va nihoyat suv o'tmasligi uchun yana qatron va qo'rg'oshin quyilgan. Har bir qavatning «zamin»i shu tarzda hozirlanganidan so'ng, ustidan ulkan daraxtlar o'sadigan darajada unumdor tuproq qatlami yotqizilgan. Bog' uchun dunyoning Mag'rib-u Mashrig'idan eng nodir va ko'rkam daraxt ko'chatlari, butalar, anvoyi gullar keltirib ekilgan.

Bog'lar Frot daryosidan charxpalak yordamida chiqarilgan suv bilan sug'orilgan. Har bir qavatga favvoralar, qavatlararo shalolalar ishlangan. Qavatlarini ko'tarib turuvchi yo'g'on ustunlarning ichki qismi bo'shatilib, ularga tuproq solingan va dov daraxtlar ekilgan. Daraxtlar tabiiy tartibda, ya'ni yuqori qavatlariga dov-daraxtlar, pastki pog'onalariga esa pastqam o'simliklar ekilgan. Palma, sarv, kedr, shamshod, chinor va eman daraxtlari qadimdan Ossuriya va Bobilga xos bo'lgan. Bog'ning eng yuqori qavatiga go'zal va nafis ko'shksaroy ishlanib, undan butun shahar husni, bog'ning quyi qismi, Frot daryosining suvi va sohili ko'rinib turgan. Qavatlardagi ustunlar orasidagi bo'shliqlar bezatilib, usti yopiq oromgoh ayvonlar tarzida xizmat qilgan (18-rasm).

Sharq xalqlari landshaft me'morchiligi va dizaynining yana bir ajoyib namunasi Qadimgi Ierusalimdagi shoh Sulaymon (miloddan avvalgi X asr) saroyi qoshidagi bog'lardir. Manbalarda keltirilishicha,



18-rasm. Pog'onasimon «osma bog'lar».

saroy qoshida ajoyib balzam bog'i bunyod etilib, unda qimmatbaho, xushbo'y o'simliklar o'stirilgan. Shohning oromgohlaridan biri ko'shk ko'rinishida qurilgan. Uni turli xil daraxtlar va metallardan ishlangan g'aroyib o'simliklar bezagan. Daraxt va o'simliklar saroy devorlarini butunlay yopgan, shohlardagi barglar esa shunchalik go'zal va nozik ishlanganki, go'yo ular doim yelpib turgandek ko'ringan.

Bunday landshaft me'morchiligining o'ziga xos bezagi tabiiy jim-jimadorligi va rang-barangligi bilan kishida ajoyib taassurot qoldirgan. Boshqa manbalarga ko'ra, Sulaymon saroyining to'rtta naqshinkor hovlisi va bog'lari bo'lib, ulardagi hovuzlarda baliqlar suzgan, bog'da manzarali palma va sarv daraxtlari, anor, uzum va boshqa mevali daraxtlar va gullar o'sgan. Bog'da tovuslar, kabutarlar va boshqa turli nafis qushlar saqlangan (19-rasm).

Qadimgi Ierusalimdagi bog'-parklarining turlariga ibodatxonalar, saroylar va shaharliklarning hovlilari atrofi va ichida tashkil etilgan bog'lar ham kirgan (20-, 21-rasmlar).

Demak, Mesopotomiyaning eng qadimgi bog'lari shumeroakkadlar va ossuriylar davrlariga tegishli bo'lgan.

Sharq xalqlari landshaft me'morchiligi va dizaynining yana bir ajoyib namunasi shifobaxsh bog'lar bo'lib, unda shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan qimmatbaho, xushbo'y o'simliklar o'stirilgan. Bunday bog'lar odatda ibodatxonalar, saroylar va shaharliklarning hovlilari atrofida tashkillashtirilgan.




a. Sulaymon saroyi hovlisidagi bog'lardan biri.



b. Sulaymonning asosiy saroyi qoshidagi shifobaxsh bog'.

19-rasm.



20-rasm. Shaharliklarning hovlilari atrofi va ichida tashkil etilgan hovli bog'lari.



21-rasm. Ibadatxona bog'lari.

Fikrimizni umumlashtiradigan bo'lsak, qadimgi Mesopotamiyaning mashhur bog'lari quyidagilardir:

1) orollarda va daryo qirg'oqlarida joylashgan, muntazamlikka asoslangan «osma bog'lar»;

2) simmetriyaga asoslangan, binolar (ibodatxonalar, saroylar, zodagonlar uylari) qoshidagi yoki hovlilari ichida joylashgan bosh o'qida hovuz joylashtirilgan bog'lar.


1.3. Eronning qadimgi bog'lari

Bugungi Eron va unga qo'shni hududlarda juda ko'plab muhim tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lib, bu yodgorliklar san'at va arxeologiya nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Bulardan asosiylari islomgacha va islomdan keyingi davrda barpo etilgan yodgorliklar bo'lib, ular Eronning g'arbiy, janubiy va markaziy hududlarida joylashgan. Bu hududlar uzoq vaqtlardan beri arxeologlar va tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan va bu yerlarda ko'plab qazilma ishlari olib borilgan. Olib borilgan qazilma va qidiruv ishlari bizni nafaqat shu yerda o'tgan insoniyatning o'tmishi, balki qadimgi eronliklar hayotining nozik taraflari bilan ham tanishtiradi. Oxirgi arxeologik tadqiqotlar xulosasiga ko'ra, qadimgi Pasargad shaharchasi va uning atrofidagi yodgorliklar bir-biridan alohida turgan bo'lsa ham, ular qadimda ko'plab sug'orish kanallari orqali bir-biri bilan bog'langan bog'lar tizimini tashkil etgan. Shuning uchun ularni bir butun qurilish va landshaft majmuasi sifatida o'rganish kerak bo'ladi.

Bunday yangicha fikrlash, Pasargadda joylashgan arxeologlar guruhining yaqin uch yillik izlanishlari natijasidir va ular o'z izlanishlarini yana davom ettirish niyatidalar. Hozirda Alirez Askari rahbarligidagi eronlik arxeologlar guruhi va Per Franchesko Kaleri boshchiligidagi italiyalik arxeologlar shu tarixiy hududda o'z izlanishlarini olib bormoqdalar.

Alirez Askari shunday deydi: «Pasargad darvozasi bizning qazilma ishlarimizning asosiy mavzusidir va taxmin qilishimizcha, darvoza 2 ta katta tepalik o'rtasida bo'lgan va bu yerdagi bog'ga yoki Pasargadga ochilgan».

Italyan arxeologi Kaleri «Pasargad atrofidagi yodgorliklar tosh va g'ishtlardan qurilgan, lekin hozirda faqat toshlar saqlanib qolgan va ulardagi o'ymakor naqshlarga qarab, o'sha davr me'moriy texnikasining yuqori saviyada bo'lganiga ishonch hosil qilish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu joylarda barpo etilgan bog'lar boqiy dunyoning va jannatning mavjudligiga ishonch belgisidir. Pasargaddagi ajoyib bog' bilan yonma-yon qurilgan Kurosh va Dariya dahmalari buning yaqqol dalili bo'lib xizmat qiladi. Holbuki, boshqa taxmin ham bor: bu ajoyib ko'm-ko'k, serviqor saroy joylashgan hududda Ahamoniylar sulolasining shohlari birin-ketin o'rin almashganlar, hukumatning tantanali marosimlari o'tkazilgan va davlat g'aznasi saqlangan» deydi (22-rasm).



22-rasm. Tashqaridan qaraganda alohida joylashgan, biroq o'tmishda bir-biri bilan sug'orish vositalari orqali bog'langan bog'lar tizimini tashkil qilgan me'moriy yodgorliklar.

Arxeolog Kaleri Pasargaddan uzoq bo'lmagan Persepolis qurilmalarini «Ahamoniy shohlarining tasavvur ramzi bo'lib, bu yodgorlikning yangiligi uning simmetrikligi bilan ajralib turishida», deb hisoblaydi.

Pasargad, ya'ni eronlar shahri, Persepolisdan 45 km uzoqlikda, Eronning janubida, Fors viloyatida joylashgan bo'lgan. U yerda saroylar, ehrom va axamenid podshosi Kuroshning maqbarasi mavjud bo'lgan. Bu maqbara kichik zikkurat ko'rinishida bo'lib, 6 qator zinalar ustida joylashgan piramida bir xonadan iborat bo'lgan, xonada marhum sharafiga duolar o'qilgan. Holbuki taxminlarga ko'ra, Kurosh yonma-yon yotgan 2 ta yassi tekis toshlar tagiga dafn etilgan. Bu maqbara bilan yonma-yon tarzda Naqshi Rustam joylashgan bo'lib, unda (miloddan avvalgi 600-yil) qoya yozuvlari va toshdan yo'nilgan inson tasvirlari bor. Naqshi Rustamning ikki tarafida joylashgan tosh qabrlar bu yodgorlikning ahamiyatini yanada oshirib, bu joyning Ahamoniylar imperiyasining poytaxti — Persepolisga yaqin joylashgani tarixiy yodgorliklarning ko'pchiligini umumiyLashtirib o'rganishni taqozo etadi.

Bu qadimiy yodgorliklar qaysi davrga taalluqli bo'lgan? Bu savolga javob topish uchun biz Eronda birinchi ariy qabilasining paydo bo'lgan vaqtiga murojaat qilishimiz darkor.

Miloddan avvalgi 715- va 550-yillarda hozirgi Eronning g'arbiy, janubiy, shimoli-g'arbiy va markaziy qismlarida hukmronlik qilgan midiylar asta-sekin Osiyo va Yevropaning ko'pgina hududlarini o'z hukmronliklariga olganlar.

Kurosh midiylar hukmronligini ag'dardi, lekin ularning an'analarini saqlagan holda Ahamoniylar sulolasiga asos soldi. Yangi yil marosimlari va bahor bayrami Ahamoniylarning asosiy bayramlari deb e'lon

qilingan. Ba'zi bir tarixchilar fikricha, Persepolis bu bayramlarni har yili nishonlash va Ahamoniylarning nechog'lik buyukligi va ulug'vorligini butun dunyoga namoyon etish uchun barpo etilgan.

«Apadana» Persepolisning bosh saroyi bo'lib, kvadrat ko'rinishida qurilgan, har tomoni 60 metrdan iborat bo'lgan. Bu saroyi bezatishda asosan yog'och katta ahamiyat kasb etgan. Abstrakt sarvlar va suvdagi nilufarlar devorlarda va zinalar yonlarida juda ajoyib tasvirlangan. Persepolisda bu tasvirlarning turfa rangligi va ahamiyatligi, hududning geografik joylashuvi qadimgi Eronda gullagan bog'lar mavjud bo'lgani haqida so'zlaydi. Bu joylarning yangi yil marosimlari va bahor bayrami tantanalari o'tkazish uchun tanlanganligi bejiz emas. Aynan shu holat, Pasargad bog'ining bo'lganini va Eronda bog'lar qadimdan barpo etilganligi haqidagi yangi taxminni mustahkamlaydi.

Tarixchilar yozishicha, taxminan uch ming yillar burun, Eronning katta uylari hovlisida «paradis» nomini olgan bog'lar o'sgan. Bu atama keyinchalik boshqa tillarda qo'llanilib, «uyalar hovlisida jannat bog'i va daraxtlarni o'stirish» degan ma'noni anglatgan. «Bog'» eroncha so'z bo'lib, shu ko'rinishda «pexlavi» va «saadi» tillarida qo'llaniladi. Ahamoniylar podshosi Xashayyarshoh hukmronlik qilgan hududda barpo qilingan imoratlar qatorida katta bog'lar haqida ham eslatib o'tilgan.

Dunyodagi turli xil dinlarda va'da qilingan «behisht», ya'ni jannat, afsonaviy bog' sifatida ta'riflangan va unga faqat to'g'ri yashagan insonlarga o'limidan keyin erishib, rohat-farog'atda bo'lishlari aytib o'tilgan.

Shunday qilib, Pasargadning qadimgi hududi Ahamoniylar davlatining birinchi poytaxti va Eron bog'larining birinchi namunasi bo'lgan. U kvadrat ko'rinishida barpo qilinib, bag'rda bepoyon saroylar qad ko'tarib turgan. Bunday bog'lar faqat Eronga xos bo'lib, to'g'ri chiziqli suv tarmoqlari — ariqlar tizimi asosida barpo qilingan. Birlamchi manbalarga ko'ra, kvadrat ko'rinishidagi bog'lar miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlarida kuzatilgan va bu Erondagi qurilish, madaniy sivilizatsiyaning samarasi deb hisoblangan. Eron chinor, bodom, shaftoli, qaroli, pista va atirgullar vatanidir. Ahamoniylar sulolasining asoschisi Kir I (miloddan avvalgi VI asrning birinchi yarmi) Eronning birinchi bog'boni bo'lgan. Eronning eng mashhur bog'i «Chorbog'» bo'lib, keyinchalik bog'ning muayyan turi xuddi shunday atala boshlangan. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, bog' hududi to'g'ri ariqlar yordamida 4 ta qismga bo'lingan. «Chorbog'» — bu Eron

sivilizatsiyasining dunyo bog‘dorchiligiga qo‘shgan ulkan hissasidir. «Chorbog‘», boshqa bog‘ turlaridan farqli o‘laroq, iqlimi issiq quruq davlatlar uchun bebaho bo‘lgan suvni tejimli ishlatishning namunasidir.

Eron qadimgi ellin sivilizatsiyasi rivojiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Silladagi yunon ehromi yonida Ksenofon (miloddan avvalgi IV asr) tomonidan o‘stirilgan bog‘ simmetrik ekilgan daraxtlari bilan Eronda mavjud bo‘lgan «istirohat chorbog‘lari»ni takrorlaydi.


Hind sivilizatsiyasi dunyoga keltirgan buddizm davrida ehromlar yonida bog‘lar barpo qilina boshlangan. Yangi din bilan birgalikda Budda ehromlari yonidagi bog‘lar Xitoyda, Koreyada, keyinchalik Yaponiyada paydo bo‘lgan.

Eron madaniyatiga islom kirib kelganidan keyin, bunday chorbog‘lar muhim ma‘naviy ma‘no kasb etib, yuzlab yillar mobaynida barcha joylarda barpo etilgan, gullab yashnagan jannat ramzi bo‘lib xizmat qila boshlagan.


Eron bog‘lari turli-tumanligi bilan ajralib turgan. Bular: vodiy, tepaliklar, qirg‘oqlar, suv va hovlilarda barpo etilgan bog‘lardir.

Bu bog‘larning aksari ko‘p elementlari boshlang‘ich namunalariga o‘xshab, g‘ishtin devor, markazga yo‘naltiruvchi to‘rt tomonli yo‘lak va gulzor maydonlardan iborat bo‘lgan. Maxsus qurilgan ariqlardan oqayotgan suvning shildirashi chindan ham dillarga orom bergan. Bog‘ ichida joylashgan «ko‘shk» deb nomlangan bino va bog‘ning qoq markazida o‘rnatilgan favvora Eron bog‘larining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biridir. Bog‘lar Eron adabiyotida, rangtasvirida, musiqasida, gilamchiligida Eron san‘atkorlari tomonidan tabiiy go‘zalligini saqlagan holda juda ajoyib tasvirlanadi. Eron bog‘larini eronliklarning ruhiy e‘tiqodini ko‘rsatuvchi haqiqiy ramzi deyish mumkin. Qadimda Erondagi kvadrat ko‘rinishidagi bog‘lar asosan podsholar qarorgohlari atrofida barpo qilingan. Ularning tarxi geometrik shakllar ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Ikki tomoniga daraxt o‘tkazilgan xiyobonlar to‘g‘ri burchak shaklida kesishgan, ular oraliqlaridagi pushtalarga daraxtlar o‘tqazilgan yoki gullar ekilib, ko‘llar barpo etilgan (23-rasm).

Hozirgi davrda ham mashhur bo‘lgan Eron gilamlari chorbog‘ va istirohat bog‘lari haqida tasavvur yaratishga yordam beradi. Gilamlardagi tasvirlar bog‘lar tarxi haqida fikrlash imkoniyatini beradi. Eng ko‘p tarqalgan oddiy yechim shundan iboratki, 2 ta bir-biriga perpendikular yo‘nalish qabul qilinib, bu yo‘nalishlar kesishgan joyda saroy joylashadi. Bunday gilamlar Eron (pers) gilamlari deb ataladi (24-rasm).




23-rasm. Podsholar saroyi qoshidagi bog'lardan biri.



24-rasm. Chorbog' tasviri tushirilgan eroncha gilam.


Eronni gilamlar malikasi vatani – «shalimar» (shali – gilam, mar – yer), yana gullar vatani – «Guliston» (atirgullar bog'i mamlakati) deb ham ataydilar. Eron nafaqat atirgullar, balki nastarin, lola, nilufar va nargislar vatani hamdir. Qadimgi Eronning poytaxti «So'za» – «Nilufar» deb nomlangan. Eron gilamchilik va bog'chilik san'ati Qadimgi Sharq mamlakatlarining shu san'atining rivojlanishiga o'z




25-rasm. Tatar xonlarining bog'i.

ta'sirini ko'rsatdi. Bugungacha saqlanib qolgan qadimgi gilamlar gilamchilik san'atining betakror namunalari bo'lib, hozirgi kunda qarorgohlar, saroylar, yuqori saviyadagi mehmonxonalar, badavlat xonadonlar va zamonaviy villalarning bebaho bezagi bo'lib ishlatilmoqda. Qadimgi Eron bog'-parkchilik san'ati ta'sirida dunyoda ko'plab saroy bog'lari — Turkiyadagi chorbog'lar, Ispaniyadagi mavritan bog'lari, arablarning Eron chorbog'lari uslubida qurgan bog'-saroylari, Qrimdagi tatar xonlarining bog'lari yaratilgan. Bu bog'larda hovuzlar, favvoralar, suv purkagichlar, suvli pog'onalarning bo'lishi, simmetriya uslubi va to'g'ri burchakli shakllarning borligi, bog'dagi binolarda gumbaz va ravoqlarning ishlatilishi kompozitsiya yaxlitligining asosiy shartlari hisoblangan (25–27-rasmlar).


Algambra — Granada (Ispaniya) shahrining sharqida joylashgan Granada amirligi davridagi o'ziga rom qiluvchi bog'dorchilik san'atining namunasi sifatida saqlangan (28-rasm). Shu qatorda Granadaning mavritan hukmdorlari saroyi ham «al-Hamra» atamasi bilan atalib, «alvon» degan ma'noni anglatgan. Uning negizlari XI asrga borib taqalib, qizg'ish toshdan ishlangan saroy bog'laridan iborat.



26-rasm. Turkiyadagi «forsiy bog'».



27-rasm. Ispaniyada arablarning Eron chorbog'lari uslubida qurgan bog'-saroylari.



28-rasm. Ispaniyadagi Algambra hovli bog'-saroylari (chorbog'lar).

Kir II va uning davomchilari (miloddan avvalgi 545–330-yillar) davridayoq maxsus bog‘-qo‘riqxonalar shakllana boshlaganligi manbalardan ma‘lum. Jumladan, Qadimgi Eron davlat tomonidan maxsus tashkil etilgan bog‘-qo‘riqxonalar mavjud bo‘lib, ularda turli hayvonlarni saqlash, urchitish va ov qilib dam olish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Buloqlar, daraxtzorlar va o‘rmonlarga g‘arq bo‘lgan bunday bog‘lar baland devorlar bilan o‘ralib, ov qilish uchun maxsus burjlar va qulay joylar qurilgan. Ahamoniylar davrida va keyinchalik Sosoniylar davrida (milodning 200–600-y.y.) bunday bog‘lar, yuqorida aytilganidek, «payridez» deb atalgan. Bunday sifatli ov bog‘lari o‘zining kengligi, tanlangan landshafti va go‘zal tabiati bilan ajalarib turgan (29-rasm).





29-rasm. Ov qilib dam olishga mo‘ljallangan maxsus «payridez» bog‘i tasvirlangan lavhalar.


Hind olimi M.Randxavanning fikricha, Eron shohi Kir II Eron va Turonda «chorbog'»lar bunyod etgan ilk hukmdor hisoblanadi. Qadimgi Eronning poytaxti Pasargad shahri atrofida miloddan avvalgi VI asrda yaratilgan chorbog' ana shunday bog'lardan hisoblangan. Bu bog'lar ko'proq hukmdorlarning shoirlar, faylasuflar va olimlar bilan uchrashadigan, oila a'zolari bilan hordiq chiqaradigan bog'lari bo'lgan (30-, 31-rasmlar).



30-rasm. Qadimgi Eronning «chorbog'»lari chizilgan miniaturalardan namunalar.





31-rasm. Eronda «chorbog'» uslubida ishlangan bog'lar.



32-rasm. Qadimgi Eronda gulchamanlar bilan bezalgan «pog'onali bog'»lar ko'rinishi.

Qadimgi Eron bog'larida ko'ploq chinor, archa va palma daraxtlari ekilgan. Bu bog'lar ekzotik o'simliklar, xonaki hayvonlar, hovuzlar, tabiiy havzalar, ko'shklar, ko'shk oldilari esa gulchamanlar bilan bezatilgan. Bunday bog'lar qiyaliklarda joylashtirilgan bo'lib, alohida pog'onalardan tuzilgan. Bog'larda zilol suvli buloqlar bo'lib, ulardan suvli pog'onalar barpo etilgan. Bularning barchasi bog'larga firdavsmonand manzara bergan. Bunday bog'larda hukmdorlar diplomatik uchrashuvlar o'tkazishgan (32-rasm).



33-rasm. Hovuzga dominantlik roli berilgan ichki va tashqi «chorbog'»larning ko'rinishlari.

Qadimgi Eronda «Bo'ston» deb ataluvchi mevali bog'lar ham an'anaviy bo'lgan. Sa'di Sheroziyning shu nomli poemasi buning isbotidir.

O'rta asr Eron bog'larining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri — bu bog'lar barpo etilishida hovuzlarga ko'proq e'tibor qaratilganligi, ularga dominant roli berilganligidir (33-rasm).

Zilol suvli buloqlar va favvoralar otilib turgan bunday bog'lar Isfaxon viloyatida, ayniqsa uning Kashon shaharchasida ko'p uchraydi. Bunday mashhur bog'lar saroy bog'lari qatoridan joy olib, shohlarga va shaxsiy mulkdorlarga tegishli bo'lgan.

Demak, Eronning qadimiy bog'larida suvga katta ahamiyat berilgan. U hayot manbai va asosiy bezak elementi sifatida ishlatilgan. Eron «chorbog'»larining asosiy g'oyasi — zardushtiylikning to'rt elementi: havo, tuproq, suv va quyosh (nur)ning uyg'unlashuvida jannat bog'ini yaratishga qaratilgan. Bog'lar hududida miloddan avvalgi VI asrdan boshlab turli davrlarda binolar, ko'shklar, devorlar bunyod etilgan, murakkab sug'orish tizimlari qurilgan. Ular muntazam, qat'iy simmetriyaga asoslangan va markaziy bosh o'qqa bo'sundirilgan kompozitsiya asosida rejalashtirilgan. Bu bog'lar ko'proq shoirlar, faylasuflar va olimlar bilan uchrashishga va hukmdorlarning oila a'zolari bilan hordiq chiqarishga mo'ljallangan. Qiyalikda joylashgan pog'onali bog'lar esa diplomatik uchrashuvlarga mo'ljallangan. O'sha davrlarda ov qilib hordiq chiqarishga mo'ljallangan, qisman «chorbog'»lar bilan birlashtirilgan ov bog'lar — «qo'riqxona»lar ham bo'lgan.

1.4. Turonning qadimgi bog'lari

O'rta Osiyo bog'-parkchilik san'ati tarixiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar talaygina bo'lsa-da, ular asosan islomdan keyingi davrni, aniqrog'i XI asrdan XVIII asrgacha barpo etilgan bog'lar tarixini qamrab olgan. Biroq qadimiy bog'lar haqida bizda deyarli hech qanday ma'lumotlar saqlanmagan. Lekin saljuqiylar bog'lari haqida ma'lumotlar yetarlicha.

XV asrda Vizantiyani usmoniylar zabt etgandan keyin, ular bu o'lkaning bog'-parkchilik an'analariga o'zlarining madaniyati va bu boradagi bilimlarini qo'shib, rivojlantirishga kirishadilar.

Funksional jihatdan bog'lar chet-el mamlakatlarining elchilari, olimlar, shoirlar bilan uchrashuvlar o'tkazishga va hordiq chiqarishga mo'ljallangan. Bunday bog'lar qo'rg'oncha bog'lar deb atalgan (34-, 40-rasmlar).



Bu kabi bog'larni yaratish jarayonida turonliklar o'zlarining bog'-dorchilik borasidagi bilimlarini oshirib borishgan. U yoki bu bog'ni tashkillashtirishga oid aniq qonun-qoidalar bo'lgan. Har bir bog' yaratilishida uning iqlim sharoitiga, maydoniga va tuproqning imkoniyatlariga alohida e'tibor berilgan. Bog'larga joy oqar suv, daryo yoki ariqlar oldidan tanlangan. Turonliklar sun'iy ko'llarga qaraganda doimiy oqib turadigan suv manbalarini xush ko'rganlar (35-rasm). Bog'bonlar mavjud tabiiy resurslardan foydalanishgan. Atrof-muhit landshaftini o'zgartirmay turib, uni gulli klumbalar, daraxtlar bilan to'ldirib borishgan. Bu kabi bog'lar atrofida biron-bir suv havzasi





34-rasm. Oilaviy hordiq chiqarishga va turli xil uchrashuvlarga mo'ljallangan qo'rg'oncha bog'lar.

bo'lishiga e'tibor berilgan. Xuddi shunday bog'larda pog'onali bog'-park san'ati arxitekturasi terassalari – pog'ona-pog'ona bo'lib turadigan yonbag'irlarda ayvonlar qurilgan. Suv havzalarining qirg'oqlarida joylashgan bu orombaxsh bog'larga uzoq mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlar taklif qilingan (36-rasm). Bog'lar qat'iy uslubda yaratilgan bo'lib, bir bog'ning o'zida muntazam tizim va erkin tabiat ko'rinishidagi peyzaj uslubi uchragan. Bog'ning asosiy shartlaridan biri – bu tabiiylik va amaliy jihatdan qulaylik bo'lgan. Ushbu bog'larning o'ziga xosligi – gullar va mevali daraxtlar bilan birga sabzavotlar va butalarning aralash ekilganligida bo'lgan. Bunday arxitektura komplekslari saroy bog'lari xarakteriga ega bo'lgan.


Saroy bog'larida sulton bir necha soat, hatto bir necha kunlab yolg'izlikda dam oladigan joylar ko'p bo'lgan. Bunday bog'ning asosiy elementi ko'shk hisoblangan. Bu bir oddiy ayvoncha bo'lishi ham mumkin edi, lekin sulton uchun ayvon-ko'shk arxitekturasi haqiqiy durdonalari qurilgan. Arxitektor ko'shk uchun joy tanlar ekan, atrof-muhitning manzaralariga katta e'tibor bergan. Quriladigan inshoot go'yo shu yerda doimiy bo'lganday bog' muhitiga uyg'unlashib ketishi bilan birga, undan bog'ning butun hududi ko'rinib turadigan manzara ochilishi kerak bo'lgan. Albatta, bunday bog'larni favvora va baland sarv daraxtlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham arxitektorlar «atrofda suv manbayi bo'lishi kerak» degan yozilmagan qoidaga qat'iy rioya qilishgan (37-rasm).



35-rasm. Qirg'oq bo'yidagi mo'jaz bog'lar uzoq mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlar bilan dam olishga mo'ljallangan.



36-rasm. Qadimiy saroylar qoshidagi bog'lar.




37-rasm. Saroy bog'ining ko'inishidan lavha. Kompozitsiya markazida bo'ysundiruvchi element sifatida ko'shk o'rnatilgan. Bu yerda tashrif buyurganlar yolg'iz qolishlariga imkoniyat berilgan.


Hukmdorlarning shaxsiy tashabbuslari bilan bog'larga chet mamlakatlardan keltirilgan atirgullar, yasminlar, nastarin-u lolalar ekilgan. Podsholar lolalarni xush ko'rishgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, ularning hukmdorlik davrlari gullar nomi bilan atalgan. Masalan: «lolalar hukmdorligi», «asmin asri» va h.k.

Qadim zamonlardan bugungi kunga qadar taraqqiy topgan O'rta Sharq mamlakatlarida bog'lar yaratish san'ati me'morchilik va shahar-sozlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Masalan, Sug'diyonaning qadimgi bog'-parklari haqida antik davr mualliflari, jumladan Diodor va Kvint Kursiy Ruflar xabar beradilar. Ularning yozishicha, bunday bog'lar uchun, odatda, mavjud keng yashil maydonlar, suvloq tog'oldi yaylovlari va qalin o'rmonzorlar tanlanib, ularda hatto ov paytida foydalaniladigan maxsus burjlar va imoratlar qurilgan. Bunday bog'lar ikki turga bo'lingan:




38-rasm. Sug'diyonaning maxsus tarh asosida qurilgan «qo'riqxon»,
istirohat bog'ining devorlari.



39-rasm. «Chorbog'» atrofida ov qilishga mo'ljallangan, erkin
tarzdagi tabiiy manzarali istirohat bog'ining ko'rinishi.

1) hukmdorlarning dam olib hordiq chiqarishlariga mo'ljallangan bog'lar. Bu bog'lar maxsus tarh asosida qurilgan. Ular o'zlarining shakllanish omillari, egallagan joylari va tabiiy manzaralariga qarab muntazam rejali me'moriy bog'lardan iborat bo'lgan (38-rasm);

2) ov qilishga mo'ljallangan bog'lar. Bunday bog'lar tabiiy shakllanib, erkin rejaga ega bo'lgan, o'rta va kichik maydonlardan tashkil topgan «chorbog'»lar atrofida rivojlangan. Bu bog'lar manzarali istirohat bog'lari turkumiga kirgan (39-rasm).



40-rasm. «Qo‘riqxona» bog‘larda askarlarning ov qilib hordiq chiqarishlari tasvirlangan miniatura.

Ov qilinadigan bog‘larda turli xil yovvoyi hayvonlar boqilgan va qo‘lga o‘rgatilgan. Ov qilib, dam olish uchun yaratilgan bog‘lar o‘sha davr hukmdorlarining boylik darajasini ko‘rsatib, qay tarzda yashash va dam olishlari haqida darak bergan.


«Makedoniyalik Iskandar tarixi» kitobining muallifi rimlik Kvint Kursiyning yozishicha, Iskandar Sug‘diyona bostirib kelganda «Bazayra» nomli joyda barpo etilgan manzarali bog‘da askarlari bilan ov qilib dam olgan va ov paytida to‘rt ming hayvonni otib o‘ldirgan (40-rasm).



41-rasm. Bog'da ov qilib hordiq chiqarish payti aks etgan tasvir.

Tarixchi olimlarning fikricha, ushbu bog' Maroqand shahriga, ya'ni qadimgi Samarqandga yaqin joyda bo'lgan. Bog' joylashgan joyni qadimgi yunon tarixchisi Diodor «Bazayra» emas, «Basista» deb nomlagan. Olima Y.Monchadskaya esa «Basista»ni «Bog'iston» so'zining yunonlashtirib yozilgan ko'rinishi emasmikan, degan fikrni bildiradi. Tarixchi V.Tomashek esa Basistaning joyini Urgut tumani hududiga to'g'ri keladi, deb taxmin qiladi. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, bu bog' juda keng tog'liq yaylovlarga, qalin daraxtzorlarga, turli xil yovvoyi va qo'lga o'rgatilgan hayvonlarga boy bo'lgan.

Shuningdek, antik davr manbalarida Afg'onistondagi Toshqo'rg'ondan Mozori-Sharifgacha bo'lgan keng yaylovlarda Amudaryoning o'ng sohiliga yaqin to'qayzorlarda qadim zamonlardagi podsholarning hayvonlar boqiladigan va saqlanadigan ulkan bog'lari bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud (41-, 42-rasmlar). U yerda sansonqsiz kiyiklar va yovvoyi cho'chqalar, ular orqasidan tushgan bo'rilar to'dasi va hatto sherlar ham saqlangan. Ana shunday sherlar qo'shni Tojikistonda ham bo'lganligi haqida milodning boshida Xitoy yilnomalarida eslatib o'tiladi. Masalan, milodning 87-yilida Kushon elchilari Turkistondan Xitoy podsholariga sovg'a sifatida sherlar eltganlar. Taxminan shu joylarda 1256-yili Chingizxonning o'g'li Xulaguxon ham sherlarni ov qilgan. Sherlar haqida mashhur Xitoy sayyohi Marko Polo hamda XV asr mualliflari ham eslatib o'tganlar.



42-rasm. Afg'onistondagi qadimgi ulkan, manzarali istirohat bog'lari. Bu bog'lar hayvonlar boqiladigan va ovlanadigan bog'lar turkumiga kirgan. Rasmlarda bog'larning bugungi kundagi ko'rinishlari berilgan.



Tojikistondagi Mug' qasridan topilgan (VIII asr) hujjatlarning biridan Panjikent hokimi Devashtichning baland devorlar bilan o'ralgan istirohat bog'i – «paradiz»i bo'lganligi haqida ma'lumotlar topilgan. Devashtichning ushbu bog'i shahardan tashqarida, Panjikent tog'liklarida joylashgan deb taxmin qilinadi. O'sha hujjatlarda ushbu bog'ga maxsus boshliq tayinlanganligi haqidagi ma'lumot ham ko'rsatilgan. Ushbu ma'lumot bog'ning qo'riqlanganligidan dalolat beradi. Bu esa hukmdor Devashtich hayotida bog' alohida ahamiyat kasb etganligini bildiradi.

Hayvonlarga boy, yaylovlarda ko'kalamzor bog'lar bunyod etish an'anasi O'rta Osiyoda o'rta asrlarda ham davom ettirilgan. Narshaxiy «Buxoro tarixi» kitobida yozishicha, Qoraxoniylar Shams al-Mulk (1068–1080) Buxoroga hoqonlik qilgan davrida shaharning Ibrohim darvozasiga yaqin bo'lgan qariyb yarim farsang joyda go'zal bog' bunyod etib, u joyga «Shamsobod» deb nom beradi. Shamsobodga tutash joyda keng o'tloq (o'lan) tashkil qilib, uni «qo'riq» deb ataydi. Qo'riq atrofini devor bilan o'rab, ichiga podsholikka xos qasr va kaptarxonaga qurdiradi. Qo'riqda qo'lga o'rgatilgan turli hayvonlar: bug'i, kiyik, tulki va ayiqlar saqlaydi. Hayvonlarni parvarish qilib turadigan maxsus kishilar tayinlaydi. Xullas, Shams al-Mulk ushbu bog'ni dam olib hordiq chiqarishga mo'ljallangan maxsus qo'riqxonaga aylantirgan edi (43-rasm).




43-rasm. Qadimgi Turonning «qo'riq» bog'laridan birida «diplomatik» uchrashuvlar tasvirlangan miniaturalar.


V.V.Bartoldning yozishicha, Buxoroda islom davrida o'z uylarining yarmini arablarga bo'shatib berib, ular bilan yonma-yon yashashdan bosh tortgan mahalliy zodagonlar shahristonni butkul tark aylaganlar va shahar atrofidan o'zlariga yangidan joy qilib saroylar qurganlar va har bir saroy darvozasi oldiga bog' va o'tloq bunyod etganlar. Bunday saroylar va saroy atrofi bog'larining soni 700 ga yetgan va shahristonga nisbatan ancha katta joyni egallagan. Ularning bir qismi muntazam rejaviy yechimga ega bo'lgan me'moriy bog'lardan iborat bo'lgan (44-46-rasmlar).



44-rasm. Qadimgi Xorazm. Qadimgi shahriston atrofi va ichida barpo etilgan muntazam rejali bog'larning tarhi.



45-rasm. Atrofi devor bilan o'rab olingan, hordiq chiqarishga mo'ljallangan bog'ning ko'rinishi.



46-rasm. To'g'ri chiziqli, muntazam rejaviy yechimga ega bo'lgan chorbog'ning umumiy ko'rinishi (D.Nazilov bo'yicha).

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, o'rta asrlarda Xorazmda ham bog'-parkchilik san'ati rivojlangan. XII asrda Xorazmshohlar davlatining mustahkamlanishi Amudaryo vohalarida bir qator: Jend, Vazir va Shohsanam bog'-park majmualarining vujudga kelishiga imkon yaratgan. Bu bog'lar shahardan tashqarida qulay iqlimli va ko'rkam landshaftli joylarda shakllantirilib, shohlarning yoz paytlari oilalari bilan yashashi va dam olishiga mo'ljallangan. Atrofi devor bilan to'silgan bu bog'lar sahni nisbatan tekis bo'lib, bog'da saroy, bog' ko'shklari, xo'jalik imoratlari, mevali bog'lar, xiyobonlar, hovuzlar bo'lgan. Bog' majmuasi to'g'ri chiziqli muntazam rejaviy yechimga ega bo'lib, darvozadan kirilgach bosh xiyobon bog' markazida joylashgan asosiy bino-saroy va uning yonidagi hovuzga eltgan. Bog' sahni katta va kichik bog'chalar va chamanzorlarga bo'lingan (44-, 46-rasmlar). Bu davr bog'larining me'moriy inshootlari asosan xom g'isht, paxsa va sinchkor imoratlardan iborat bo'lib, davr o'tishi bilan buzilib ketgan.

Ibn Battuta O'rta Osiyoga qilgan sayohati haqida yozar ekan, Movarounnahr sultoni Tarmashirinning (1326-1334) ham ovga mo'ljallangan bog' qo'riqxonasi bo'lganligini eslatib o'tadi. U Tarmashirinni so'nggi bor ana shu qo'riqxonasi yo'lida ko'rib, xayrlashgan va Samarqandga qarab yo'l olgan. Demak, qo'riqxonada aftidan Buxoro atrofida, Samarqand yo'lga yaqin joyda bo'lgan.

Qo'riqxonada bog'larni tashkil etish O'rta Osiyoda so'nggi asrlarda ham davom ettirilgan. Jumladan, Amir Temurning Bog'i Jahonnamo, Bog'i Behisht, Bog'i Taxti Qoracha va Davlatobod bog'laridan ana shunday maqsadlarda foydalanilgan. Bu bog'lar egallagan hududlar va ularning maydoni Temurning boshqa bog'lariga nisbatan ancha katta bo'lib, ularda ov uchun mo'ljallangan maxsus yovvoyi hayvonlar va parrandalar saqlangan. Masalan, Davlatobodda kiyik va qirg'ovullar saqlangan bo'lsa, Jahonnamo va Bog'i Behishtning hayvonlar uchun maxsus xonalari bo'lgan. Bog'lar uchun tanlangan joylar ov qilib dam olishga qulay, ko'ngilochar joylar bo'lgan. Bu bog'larda ovga moslashtirilgan qurilmalardan tashqari dam olishga mo'ljallangan shohona ko'shk-saroylar ham bo'lgan. Bu esa ularning nafaqat bog'-qo'riqxonada, balki bog'-saroylar vazifasini ham bajarganligidan dalolat beradi.

Qo'qon xoni Xudayorxonning ham ov uchun tashkil etilgan maxsus qo'riqxonasi bo'lgan.

Miloddan avvalgi II asrda O'rta Osiyodagi Parfiya davlatining podsholari o'zlari uchun saroylar qurdirib, ularning atrofini tartibli

rejadagi bog‘lar va suv havzalari bilan o‘ratganlar. Demak, chorbog‘lar yaratish Eron va Turonning islomgacha bo‘lgan bog‘lariga xos me‘moriy uslubiyat bo‘lgan.

Shunday qilib, Turonning qadimgi va islomgacha bo‘lgan davrdagi bog‘-parklarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1) manzarali istirohat bog‘lari turkumiga kiritilgan, ov qilishga va qo‘lga o‘rgatilgan turli xil hayvonlarni boqishga mo‘ljallangan shahar tashqarisidagi bog‘-qo‘riqxonalar;

2) hukmdorlarning diplomatik uchrashuvlari va mehmonlar bilan madaniy hordiq chiqarishlariga mo‘ljallangan mo‘jaz bog‘lar;

3) hukmdorlarning oila a‘zolari va yaqin do‘stlari bilan dam olishga mo‘ljallangan, shahar tashqarisidagi bog‘-saroylari (chorbog‘lar) va shahar ichidagi ochiq maydonlarda bunyod etilgan muntazam rejali me‘moriy bog‘lar.

Yuqorida sanab o‘tilgan uch turdagi bog‘-parklar O‘rta Osiyoda islomdan keyingi davrlarda ham saqlanib qoldi va rivojlantirildi. Temuriylar davri bog‘lari, bizgacha saqlanib qolgan Buxorodagi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida barpo etilgan Sitorai Mohi-Xosa chorbog‘i va undagi baland chinorlar tagida erkin sayr qilib yurgan tovuslar va ohular fikrimizning daliliga bir nishonadir.


1.5. Hindistonning qadimgi bog‘lari

Miloddan avvalgi VI asrda dunyoda to‘rtta katta diniy ta‘limotlar vujudga kelgan. Bular: Xitoyda Konfutsiy ta‘limoti, Eronda mazdaizm, Hindistonda jaynizm va buddizm ta‘limotlari.

Tabaqalanishdan holi bo‘lgan buddizm ta‘limoti bugungi zamonaviy asrda ham ko‘pgina insonlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Ushbu ta‘limot rostgo‘ylik, ochiqko‘ngillik, hurfikrlik, barcha tirik mavjudotlarga mehr-shafqatli bo‘lishni targ‘ib qilib, insonlarni yomon fikr, yolg‘on so‘z, qahr-g‘azabdan yiroq bo‘lishga chorlagan.

Xitoy va Markaziy Osiyo madaniyatining shakllanishida katta ta‘sir ko‘rsatgan Ajanta san‘atiga ham aynan buddizm ta‘limoti hayot baxsh etgan. Bu san‘atning go‘zal va betakror namunasi – Yava orolida joylashgan Borobudurda qad ko‘targan eng yirik ibodatxona bugungi kunda ham o‘zining arxitekturasi va haykaltaroshlik durdonalari bilan kishini hayratga solib kelmoqda (47-rasm).

Bundan tashqari buddizm insonlarning tabiatga bo‘lgan mehri haqida ko‘p targ‘ibot qiladi. Aytishlariga qaraganda, buddizm ta‘limoti



47-rasm. Borobudurda joylashgan «yovvoyi bogʻ»dagi ibodatxona.
Yava oroli.

asoschisi Guatama Buddha ashoka daraxti ostida dunyoga kelgan, pipal daraxti ostida ongining tiniqlashishiga erishgan, oʻzining yangi taʼlimotidan mango daraxtlari, yirik fikus — banyanlar soyasi ostida izdoshlariga dars bergan va, nihoyat, sal daraxti ostida jon bergan. Hech bir diniy taʼlimot tabiatning yashil dunyosi bilan bu qadar yaqin aloqada boʻlmagan (48-, 49-rasmlar).

Daraxtlarni ilohiylashtirish madaniyatini buddizm Hindistondagi qadimiy dinlardan olgan. Sal, ashoka, plaksha daraxtlarini Buddha hayotiga bogʻlab, ularni muqaddas atab, ilohiylashtiradi. Bu afsonaviy qahramon ariyning Sakya qabilasidan boʻlgan. Uning otasi Suddodan Nepal bilan chegaradosh, katta boʻlmagan Kapilavasta knyazligining rojasi boʻlgan. Xuddi shu yerda miloddan avvalgi 563-yilda Buddha dunyoga kelgan. Uning tugʻilishi haqida turli xil goʻzal rivoyatlar mavjud.



48-rasm. Buddha Guatama
«jannat bogʻi»da.

Shunday rivoyatlarning birida aytilishicha, qirolicha Mahamayya oʻn oy davomida homilasini koʻtarib yuradi. Vaqti soati yetganda esa boshqa yurtda yashovchi ota-onasini ziyorat qilmoqchi boʻladi va qirol Suddodanga shunday murojaat qiladi: «Ulugʻ hukmdorim, ona yurtim Davadaxaga borishga ijozat berishingizni soʻrayman». Qirol Maha-



49-rasm. Buddha «kiyiklar bog'ida o'z izdoshlari bilan.

mayyaga rozilik bildirib, darhol Kapilavastadan Davadaxagacha bo'lgan yo'lni tekis va ravon qilishni buyuradi. Yo'l chetlari bayroqlar va otquloqlar solingan idishlar bilan bezatiladi. Qirol Mahamayyani hurmatlab, mingta xizmatkor ko'targan oltin taxtiravonga solib, kuzatib qo'yadi.

Bu ikki shahar orasida sal daraxtzorlari joylashgan bo'ladi. Ular mahalliy aholiga tegishli bo'lib, Lumbini, ya'ni «o'yin-kulgu o'rmoni» deb ataladi. Aynan shu payt mo'jiza yuz berib, o'rmondagi sal daraxtlari tanasidan shoxlarining uchlarigacha gullarga burkanadi, gullar orasida besh xil rangda tovlanuvchi arilar uchib, atrofda qushlarning go'zal sayrashlari eshitiladi.

Bu ajoyibotni ko'rgan qirolicha bog'da sayr qilmoqchi bo'ladi. Xizmatkorlar uni sal daraxtzoriga olib kirishadi. Mahamayya baland sal daraxti tomon qo'llarini cho'zar ekan, shoxlar qirolicha tomon intilib, uning qo'llari tomon o'sib boradi. Mahamayya qo'llarini cho'zib daraxt shoxlarini ushlashi bilan unda to'lg'oq boshlanganini sezadi. Xizmatkorlar darhol qirolichaning atrofini parda bilan o'rab, uni holi qoldirishadi. Mahamayya daraxt shoxlarini ushlagancha yotishga ham ulgurmay chaqaloqni dunyoga keltiradi (50-rasm).



50-rasm. Lumbini bog'ida Buddaning tug'ilishi.

Boshqa bir rivoyatda, Mahamayya ko'zi yorishidan oldin fil siy mosidagi botisatvani tushida ko'radi. Uyqudan uyg'ongach, ashoka daraxtzorlari tomon yo'l olib, qirolga elchi yuboradi. Lekin qirol uni ilohiy kuchlar bo'lib o'tgan voqeadan xabardor qilgunlariga qadar tosh qotib, hech qayerga qo'zg'alolmay qoladi. Bu rivoyatda Mahamayya sal emas, balki plaksha daraxti shoxlarini ushlab turadi. Har holda bu ikkala daraxt Buddha tug'ilgan hududda keng tarqalgan bo'lgan.

630-yilda Xitoy sayyohi Yunsan Lumbinida bo'lib, u yerda 645-yilga qadar yashagan. U o'zining xotiralarida Buddha tug'ilgan ashoka daraxti haqida yozib qoldirgan. «Lumbini bog'ida, — deb yozadi Yunsan, — Sakya aholisining cho'miladigan hovuzi bor. Uning suvi shishaday tiniq va usti gullar bilan qoplangan. Hovuzdan 24, 25 qadam uzoqlikda bir paytlar gullab turgan, hozirgi kunga kelib qurib qolgan ashoka daraxti mavjud. Aynan shu daraxt ostida bodisatva tug'ilgan» (51-rasm).

Miloddan avvalgi 250-yilda qirol Ashokaning o'g'li shahzoda Maxandra Seylonga botisatva daraxtining niholini keltiradi. Shundan keyin uning shoxlari keng quloch yozib, yirik daraxtga aylangan va



51-rasm. Lumbini bog'i. Mayya Devi Buddha tug'ilganida uni ilk bor cho'miltirgan muqaddas hovuz Puskarni deb ataladi.

bugungi kunda u «dunyoning eng qadimiy daraxti», deb yozadi Uells o'zining «Tarix ocherklari» kitobida.

Gang daryosi va Himoloy tog'larisiz Hindistonni tasavvur qilib bo'lmagandek, Hindiston tabiatini banyan va pipal daraxtlarisiz tasavvur qilish qiyin. «Bu o'simliklar dunyosining eng g'aroyib namunalaridan biri bo'lsa kerak, — deb yozadi Kristina Larseñ. — Uning birgina ildizidan ulkan yashil ibodatxonalar qad ko'taradi. Ular bir necha zallardan iborat bo'lib, quyosh nurini o'tkazmaydigan, soya-salqinli, yoqimli muhitni hosil qiladi» (52-rasm).

Har bir qishloqda banyan va pipal daraxtini ekishga zaruriy ehtiyoj bo'lgan. Sababi, ular atrofda soya-salqinni ta'minlash bilan birga dala va bog'larni qushlardan himoya qilgan. Bu daraxtlar shunchalar ko'p hosil berishganki, undan atrofda minglab qushlar oziqlangan va qushlarda dala va bog'lardagi hosilga teginishga ehtiyoj qolmagan.

Qirol Ashoka (miloddan avvalgi 264–227-y.y.) zo'rvonlik va insonlarga kuch ilatishdan butunlay voz kechib, o'zini dunyoning apostoli deb e'lon qiladi. Ashoka nafaqat o'rmonlarni ko'paytirishni rag'batlantirgan, balki bu ishni davlat siyosatining bir qismiga aylantirgan.



52-rasm. Banyan va pipal daraxtlari.

tirgani bilan tarix zarvaraqlarida alohida joy egallagan. U bog'lar barpo etishni buyurib, yo'llarni soyali xiyobonlarga aylantiradi. Bu ishlarning hayotga tatbiq etilganiga yaqqol dalil – 1873-yilda topilgan Barutadagi ibodatxonadir.

Baruta ibodatxonasida Buddaning haykallarini uchratmaymiz. Ular shartli ravishda tasvirlangan. Masalan, nilufargul (lotos) buddaning tug'ilishini ifodalasa, pipal daraxti uning ongi ravshanlashganini bildirgan va h.k. (Buddaning bizga ma'lum bo'lgan birinchi haykallari bundan to'rt yuz yil keyin paydo bo'lgan. Ularni Gandxarda yunonlar va Maturda hindlar yasagan).

Baruta haykallarida daraxt va o'simliklarning har xil turlari ifodalangan. Ular orasida yettita bodhi (ya'ni Buddha – bodisatva faxriy nomi bilan bog'liq) daraxtining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu daraxtlar atrofiga quyuq soya beradi. Shuning uchun ham bu issiq o'lkaning oliyjanob xalqi ushbu daraxtga ilohiy unvon bergan.

Pipal daraxti Prazenatjit xotira ustunida alohida e'tibor bilan o'yilgan. Pipal daraxtiga buddizmdan oldin ham sig'inishgan. Uning yog'ochidan turli xil idishlar va olov yoqish uchun tayoqchalar yasalgan.

Burata ibodatxonasining haykallari ichida biz boshqa daraxtlarni ham uchratishimiz mumkin. Ular: banyan yoki niagrod, udumbra nomi bilan mashhur anjir daraxti, serizu sal – mango daraxti. Mango daraxtini boshqa daraxtlarga qaraganda ko'proq uchratamiz. Masalan, u Jatavana monastirining relyefidagi xayr qilish tasvirida ifodalangan.

Barelyeflarning birida Janubiy va Sharqiy Hindistonda ko'p uchraydigan daraxt – tala ko'rsatilgan. Bu daraxt palma (palmira) nomi bilan mashhur.


Ashoka daraxti yakshalar bilan birgalikda tasvirlangan. Yakshalar shimoliy viloyat hisoblangan Aungmeruda to'kinlik xudosi bo'lgan Kubering hamrohlari hisoblangan. Ashoka daraxtining ildizi shifobaxsh hisoblanadi. Ashoka daraxtidan tashqari, Matura haykallari orasida yana to'rtta daraxtni kuzatishimiz mumkin. Ularning biri kadamba daraxti. Uning tagida qilich ko'targan ayol haykali bor. Qilichning uchi sharsimon gullarga tegib turibdi. Keng, oval barglar va sferik gullash belgilari kadamba daraxtiga xosdir. Bu nozik belgilarning haqqoniy ifodalanishi haykaltaroshning yuksak mahoratidan darak beradi.

Budda kohinlari o'z monastirlari atrofida juda ko'p daraxtlar o'stirishgan. Daraxtlar buloqlar va sharsharalar bilan bir kompozitsiyada jannatga xos manzarani hosil qilgan. Bunday go'zal bog' va daraxtzorlarni yaratish uchun kohinlarda yetarlicha vaqt bo'lgan. Ular tinch va sokin tabiat qurshovida yashashgan. Bunday muhit ularga qalban poklanish va ruhan tinchlanish imkonini yaratgan. Shu sababli o'sha davr bog'dorchilik san'ati ibodatxona va monastirlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan.


Shu tariqa buddizmni yaratgan sivilizatsiya monastirlarda bog'lar barpo etilishiga imkon tug'diradi. Bu yerda daraxtlarga sig'inish, yuqorida aytib o'tilgandek, qadimiy hindcha odat bo'lgan. Hindlarning muqaddas kitoblarida monastirlardagi bog'lar hind qirollarining ajdodlaridan qolgan mulk bo'lgan, deb yozilgan.

Naql qilishlaricha, budda kohinlari o'z monastirlari atrofida daraxtzorlar bunyod etganlar. Monastirlar qoshidagi hovlilar ichida esa hovuzlar va bog'lar yaratishgan. Bu bog'larda manzarali o'simliklar suv resurslari bilan uyg'unlikda shakllangan (53-, 54-rasmlar).

Hindlarning qadimgi «Ramoyana» va «Mohabxarat» (miloddan avvalgi 500-yil) poemalarida tabiiy bog'larning go'zalligi haqida kuylangan. Mohabxaratda avvalgi Dehli shahri o'rnida joylashgan qadimgi poytaxt Indaprastxu atrofidagi tabiiy bog'lar haqida yozilgan. Bu bog'lar yil davomida gullarga burkanganligi va mevali daraxtlari bilan ajralib turgan. Poemada ashoka, qand palmasi, pandapus, begoniya, sambitgul o'simliklari zikr etilgan. Bog'larda tovuqlar va kokilli qushlar yashagan. Bog'lardagi ko'shklar oynadek yaraqlab turgan. Bog' suhbatxonalari chirmoviq o'simliklar bilan burkangan. Bog'lardagi ko'llar suvi zilol va billur kabi toza bo'lgan. Havzalar baliqlarga boy, ularni nilufargul va oq nilfiya gullari bezagan. Havzalarda g'ozlar, o'rdaklar, oq qushlar suzgan.



53-rasm. Jetavani monastiri — «yovvoyi bog'»ning asosiy bo'ysundiruvchi elementi.



54-rasm. «Monastir bog'i»dagi pog'onali sharshara — markaziy kompozitsiya sifatida.

Vatsayananing induizm estetikasiga bag'ishlangan «Kamasutra» kitobida (IV asr) Qadimgi Hind bog'larining bir necha turlari keltirilgan:

- 1) pramododian bog'i – shoh va malikalar istirohati uchun;
- 2) udion bog'i – faqat shohlar uchun;
- 3) brikevatika bog'i – kohinlar va shoh saroyi ayonlari uchun;
- 4) nandevon bog'i esa Indra xudosi uchun.

Qadimgi Hind bog' -parkchilik san'ati bu mamlakatda vujudga kelgan buddizm bilan yonma-yon shakllanib, uning dastlabki namunalari budda monastirlari – «vixara»lar qoshidagi bog'larda o'z aksini topgan.

Hindistonning qadimgi muqaddas kitoblarida hind shohlarining istirohat bog'laridan biri hisoblangan Lumbini bog'i haqida ham eslatib o'tiladi: «Shahardan unchalik uzoqda joylashmagan, lekin yaqin ham bo'lmagan bu bog'ning darvozalari bir nechta bo'lib, ular doim odamlar uchun ochiq bo'lgan, kunduzlari aytarlik gavjum bo'lmagan, tunda esa shov-shuvdan yiroqda, sokin, xilvat va tanholikda fikrlash uchun qulay joy hisoblangan».

Asvagosa mashuqa visoliga yetolmay faryod chekayotgan Nanduning ichki kechinmalarini tasvirlar ekan, atrofda mayin chayqalayotgan kadamba daraxti, suvda o'suvchi liliya va qizil nilufargullar, parijat daraxtlarini eslatib o'tadi.

Hind bog'dorchilik san'ati yovvoyi tabiat bilan hamohang, tabiiy shakllanganligi haqida ko'pgina boshqa manbalar ham mavjud. Biroq hindlarning qadimgi kitoblari va ertaklarida ushbu parklarning rejaviy tuzilishi, ulardagi daraxt va boshqa o'simliklarning ekilish uslublari haqida gapirilmagan.

Chandragupta II ning saroy shoiri Kalidasa o'zining «Ritusamara» («Yil fasllarining karnavali») kitobida hind daraxtlarining maftunkorona ko'rinishlarini tasvirlab o'tadi. U bahor manzaralari tasvirlarida qalin barglari og'irligidan shoxlarini mayus egib turgan mango daraxtining och-sariq rangdagi xushbo'y gullari esib turgan yengil shabodada chayqalib turishini o'zgacha zavq bilan yozadi. U yana: «hali endi yosh barg chiqargan ashoka daraxtining egilmas, tik shoxlari orasidan mo'ralab turgan qizil rang gullari yosh qizlarning ko'ngliga hasrat soladi», deb yozadi. Kalidasa daka changalzorlarini kuylar ekan, uning xuddi lov-lov yonayotganday qizil rangga burkangan tabiiy manzarasini nikoh ko'ylagini kiygan kelinchakka o'xshatadi. Shoir bu yaylovlarning go'zalligini tasvirlar ekan, inson qo'li tegmagan tabiiy jozibadorlikni alohida ta'kidlab o'tadi.

Demak shuni xulosa qilsak bo'ladiki, Qadimiy Hindistonning bog'dorchiligida buddizm bog'lari ikki xil ko'rinishda bo'lgan:

1) erkin rejali, manzarali monastir bog'lari;

2) daraxt va o'simliklarning tabiiy, yovvoyi tarzda rivojlanishidan shakllangan saroy bog'lari.

Ularda qat'iy shakllar, to'g'ri chiziqlar, reja asosida qilingan tarhlar kuzatilmagan, o'simliklarga shakl berishga o'rin bo'lmagan va simmetriya qonunlari ishlatilmagan.

1.6. Xitoyning qadimgi bog'-parklari

Xitoy olimlarining fikriga ko'ra, Xitoy bog'-parkchilik san'ati uch ming yillik tarixga ega. Bu fikr to'g'ri bo'lishi mumkin. Chunki miloddan avvalgi 2000-yilning o'rtalarida Xitoyda qurilish rivojlanib, ulkan saroylar, ibodatxonalar va daxmalar qurilgan. Aynan shu imoratlar atrofida Xitoydagi ilk bog'lar barpo etilgan bo'lsa, ajab emas. Qadimiy xitoyliklarda osmon, ajdodlar ruhi va tabiat ma'budlariga sig'inish odat bo'lgan. Tabiiy ofatlar va kasalliklar odamlarning axloqsiz harakatlari va davlatning noto'g'ri tashkillashtirilganidan deb hisoblanilgan.

Qadimiy Xitoyda bog'lar, odatda, imperator saroylari, daxma va ibodatxonalar qoshida barpo etilgan (55-rasm). Bog'lar rasmiy uchrashuvlar, diniy marosimlar va «xotira kuni»da tashrif buyurish uchun mo'ljallangan. Bu bog'larning erkin tarhi atrofida binolarning qat'iy simmetriyaga asoslangan kompozitsiyasi bilan to'liq uyg'unlashgan. Binolar tarkibidagi ko'l yoki tepaliklar mohirona ishlov berilgan tabiiy landshaftlarga moslashtirilgan. Bog'ni yaratishda arxitektorga qo'yiladigan birinchi masala bu — eng go'zal manzara ochiladigan maydonni tanlash bo'lgan. Ikkinchi darajadagi kompozitsiyalar esa markaziy o'q atrofida joylashgan va unga bo'ysundirilgan. Bog'dagi ko'zga yaqin joylar yorug' ranglar: qizil, sariq va yashil ranglarga bo'yalgan yoysimon ko'prikchalar, katta bo'lmagan ayvonlar, pagodalar va siniq chizikli zinapoyalar bilan belgilangan (56-rasm).

Bundan tashqari tabiiy manzarali bog'lar ham bo'lgan. Bunday bog'larda mavjud landshaftga hech qanday o'zgartirish kiritilmay, tabiiy manzaralardan bahramand bo'lishgan. Bu kabi bog'larni odatda «olimlar bog'i» sifatida ko'rishimiz mumkin. Bog'da olim va faylasuflarning tinch va sokinlikda fikr yuritishlari uchun go'zal manzaralar ochilib, ajoyib muhit hosil bo'lgan. Tabiiy bog'lar xususiy uylar



55-rasm. Ibadatxona qoshidagi peyzajli bog'.

tarkibida ham bo'lgan. Ular hajman katta bo'lmay, atrofi tosh yoki bambukdan terilgan tekis devor bilan o'ralgan (57-, 58-rasmlar).

Inson hissiyotlariga ta'siri jihatidan Xitoy bog'lari uch turga bo'lingan:

- 1) «kulib turuvchi, zavqlantiruvchi bog'lar»;
- 2) «hayajonlantiruvchi, kishini qo'rquvga soluvchi bog'lar»;
- 3) «tinchlantiruvchi bog'lar».

Baland toshli cho'nqir tepalik, to'fondan singandek shoxlari qayrilgan shakli tushunarsiz daraxtlar kabi belgilar xos bo'lgan «hayajonlantiruvchi bog'lar» «kishini zavqlantiruvchi, kulib turuvchi bog'lar»ning batamom aksi bo'lgan. «Tinchlantiruvchi» va «qo'rqituvchi bog'lar» tarkibida orol kabi suv havzasi, katta bo'lmagan ayvon va baliqchining uyi bo'lishiga alohida ahamiyat berilgan (59-rasm).

Bundan tashqari, Xitoyda nafaqat yuqorida sanab o'tilgan bog'lar, balki keng va katta hajmdagi manzarali parklar ham bo'lgan. Yandzi va Xuanxe daryolarining qirg'oqlari atroflaridagi hosildor yerlar ana shunday go'zal manzarali parklarni hosil qilgan. Daryo va ko'llar ustida turgan yengil va mayin tuman bog'da sayr qiluvchi shoir va rassomlarni ilhomlantirgan.



56-rasm. Saroylar atrofi va ibodatxonalar hovlisida joylashgan erkin tabiat kompozitsiyasiga ega bo'lgan bog'larning landshaft dizayni.



57-rasm. Olimlar va faylasuflarning tabiiy manzarali «xilvat» bog'lari.



58-rasm. Xususiy uylarda barpo etilgan mo'jaz bog'lar.




59-rasm. Qadimiy Xitoyning kishini hayajonlantiruvchi bog'lari.

Xitoydagi eng yirik saroy bog'lari Sin sulolasi (miloddan avvalgi 255–206-yillar) davriga tegishli bo'lgan. Sin imperatori Shixuandi nafaqat 1500 mil (2414 km) uzunlikdagi «Buyuk Xitoy Devori»ni qurdirgani bilan, balki Xitoydagi eng katta parkni barpo etganligi bilan ham mashhur bo'lgan. Bu parkda imperator sarkardalar, olimlar, faylasuflar, shoirlar bilan hamsuhbat bo'lib, rasmiy diplomatik uchrasuvlar o'tkazgan (60-rasm).

Chan sulolasi imperatori Vu-dining (miloddan avvalgi 140–87-y.y.) sun'iy g'orlar, buloqlar va egri-bugri yo'lakchalari bo'lgan bog'ida noyob daraxt va butalar o'stirilgan. Bog' imperator oilasi va do'stlarining dam olishlari uchun mo'ljallangan.

Milodning IV va V asri davomida Xitoy bog'-parkchilik san'ati buddizm ta'siri ostida rivojlangan. Laotszi izdoshlari kabi buddizm koinlari ham tabiat shaydolari bo'lishgan va ko'plab bog'lar yaratishgan. Ibadatxona va monastirlar qurish uchun go'zal landshaft bilan



60-rasm. Sink sulolasining tabiiy peyzajli saroy-bog'i.


ajralib turuvchi hududlar tanlangan. Ibadatxonalar atrofida imperator va saroy ahli uchun takrorlanmas bog'lar yaratilgan. Bog'larda turli xil ko'prikchalar, ixcham yo'lakchalar va usti yopiq galereyalar ko'p bo'lgan. Toshlardan terilgan sayrgoh, bog'ning go'zal manzaralari ko'rinadigan past tepaliklarda qad ko'targan ayvonchalar buddizm bog'larining o'ziga xos bezagi bo'lgan. Bu yengil qurilmalarning yorqin ranglarga bo'yalgan sopol cherepitsali tomlari atrofdagi yashil muhitga urg'u berib turgan. Ariq va anhorlarda yoysimon ko'priklar akslanib, umumiy kompozitsiyada dominanta — bo'ysunduruvchi element bo'lib xizmat qilgan (61-rasm).

Tadqiqotchilar Xitoy buddizm bog'-parkchilik san'atini tabiat bilan bellashish va, hatto, undan o'zib ketishdagi amaliy imkoniyatlari bilan xarakterlaydilar. Ularning fikricha, bog' yaratuvchi rassomlar tog'lar, daraxtzorlar va sharsharalarni mohirona bo'ysundira olishgan va takrorlanmas manzaralar yaratib, ona-tabiatning go'zalligini yanada boyitishgan.

Bu borada qadimiy Syuy-Chjou va Xankou shaharlarida barpo etilgan «pog'onali qirli» bog'lar tahsinga sazovordir. Qirli bog'lar sun'iy tepaliklarini yaratishda yumaloq, katta tosh bo'laklari va tog'lardan tushgan xarsang toshlar keng qo'llanilgan. Aynan shu qurilish ashyolaridan «daryolar qirg'og'idagi bog'lar»ga zamin yaratishda foydalanilgan. Ushbu bog'larga gullar ekish esa Tan sulolasi davriga to'g'ri keladi (62-, 63-rasmlar).



61-rasm. «Buddizm bog'lari»ning landshaft dizayni.



62-rasm. Xitoyning qirli daryolar qirg'og'idagi bog'lari.

Xitoyning «Qo'shiqlar kitobi» nomli eposida imperator Ven Vang bunyod etgan «Bilimlar bog'i» haqida gapirilgan. Miloddan avvalgi 1150-yilda qurilgan ushbu katta bog' 375 gektar maydonni o'z ichiga olgan. Kitobda imperator Shi Xang-Ti bunyod etgan park haqida ham aytib o'tilgan. Uning chegarasi 120–130 kilometrni tashkil etgan. Ushbu suloladan bo'lgan imperator Uang Ti miloddan avvalgi 197-yilda 3000 gektar maydonli ulkan park bunyod etgan. Lekin Qadimgi Xitoy, Eron, Hind vohasi parklari arxitekturasi haqidagi ishonchli ma'lumotlarning kamyobligi tufayli, bu sohadagi bilimlarimizni mazkur o'lkalarda keyingi davrlar — o'rta asrlarda bunyod etilgan bog'lar haqidagi ma'lumotlar yordamida to'ldiramiz, degan umiddamiz.



63-rasm. Asosiy binolari suvda joylashgan «qirg'oq bo'yida»gi buddizm bog'lari.

Keng jozibador manzaralar va norasmiy, katta bo'lmagan mo'jaz «xilvat bog'»lar orasidagi bog'liqlik bejiz emas, albatta. Xitoy, Yaponiya va Angliya davlatlari bizni hozirgi kunda ham hayratga solib kelayotgan buyuk rassomlarni dunyoga keltirgan. Mayuanning «Tog'lar va majnuntollar» asari, Kuantaosinning bambuklar tasvirlangan etudlari, Konstebning Angliya yaylovlarida yog'ayotgan yomg'irlar, qayrag'ochlarini ko'rib ona-tabiatning betakror manzaralari insonlarning nodir asarlar yaratishida ilhom baxsh etishiga kishi yana bir karra ishonch hosil qiladi.

Aynan shu xalqlar nafis go‘zallik — aniq mutanosiblikka ega mumtoz simmetriyada emas, balki assimetriyada ekanligini amalda isbotlab, fanga estetik ahamiyatga ega yangilik kiritishgan. Shuning uchun ham tabiiy go‘zal peyzajli «xilvat bog‘»lar ajdodlardan avlodlarga o‘tib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Xitoy bog‘lari — bu millat daholarining ming yillik mehnatlari samarasidir. Bu bog‘lar asrlar osha daotsizm donishmandlari, buddizm bashoratchilari, Tan davri xonandalari—yu Sun sulolasining rassomlari madh etib kelgan yagona haqiqat — butun borliqning birligi yaxlitligini bizgacha yetkazadi.

Demak, Qadimiy Xitoyda bog‘lar, odatda, imperator saroylari, daxma va ibodatxonalar atroflarida barpo etilgan. Bog‘lar rasmiy uchrashuvlar, diniy marosimlar va «xotira kuni»da tashrif buyurish uchun mo‘ljallangan. Bu bog‘larning erkin tarhi atrofda binolarning qat‘iy simmetriyaga asoslangan kompozitsiyasi bilan to‘liq uyg‘unlashgan. Binolar tarkibiga ko‘l yoki tepaliklar kiruvchi mohirona ishlov berilgan tabiiy landshaftga moslashtirilgan. Parkni yaratishda arxitektorga qo‘yiladigan birinchi masala bu — eng go‘zal manzara ochiladigan maydonni tanlash bo‘lgan. Bog‘dagi ko‘zga yaqin joylar yorug‘ ranglar: qizil, sariq va yashil ranglarga bo‘yalgan yoysimon ko‘prikchalar, katta bo‘lmagan ayvonlar, pagodalar va siniq chizikli zinapoyalar bilan belgilangan.

Bundan tashqari, Qadimgi Xitoyda tabiiy manzarali bog‘lar ham bo‘lgan. Bunday bog‘larda mavjud landshaftga hech qanday o‘zgartirish kiritilmay, tabiiy manzaralardan bahramand bo‘lingan. Bu kabi bog‘larni, odatda, «olimlar bog‘i» tashkil qilgan. Tabiiy bog‘lar xususiy uylar tarkibida ham bo‘lgan. Ular hajman katta bo‘lmay, atrofi tosh yoki bambukdan terilgan tekis devor bilan o‘ralgan.

Inson hissiyotlariga ta’siri jihatidan Xitoy bog‘lari uch turga bo‘lingan:

- 1) «kulib turuvchi bog‘lar»;
- 2) «hayajonlantiruvchi bog‘lar»;
- 3) «tinchlantiruvchi bog‘lar».


Baland toshli tepalik, to‘fondan singandek shoxlari qayrilgan tushunarsiz daraxtlar kabi belgilar xos bo‘lgan «hayajonlantiruvchi bog‘» «kulib turuvchi bog‘»ning batamom aksi bo‘lgan. «Tinchlantiruvchi» va «hayajonlantiruvchi» bog‘lar tarkibida suv havzasi, katta bo‘lmagan ayvon va baliqchining uyi bo‘lishiga alohida ahamiyat berilgan.

II B O B

SHARQ MAMLAKATLARINING O'RTA ASRLARDAGI BOG'-PARK SAN'ATI

2.1. Movarounnahr: Samarqand va Buxoroning o'rta asrlardagi bog'-saroylari

Bog'lar bunyod etish va ularga oroyish berish san'ati O'rta Osiyoda juda qadim zamonlardan boshlab shakllanib kelgan. Bunga O'rta Osiyoning o'ziga xos iqlimi, serquyoshligi, uzoq issiq yozning o'tkir ta'siridan saqlanishga qaratilgan harakatlar ham sabab bo'lgan. Badavlat kishilar dastlab mo'jaz oromgohlar bunyod etib, jazirama yoz kunlarida soya-salqin bog'larda, hovuzlar qoshidagi supali shiyponlarda, shabada joylarda dam olishgan. Bunday oromgohlarda, odatda, sersoya manzarali dov-daraxtlardan tashqari, turli-tuman mevali daraxtlar, gullar, xo'jalik uchun toklar va boshqa ekinlar ham ekilgan. Bunday bog'lar ko'pincha shahar atroflarida, tog' yonbag'irlaridagi qiyaliklarda, buloq bo'ylarida bunyod etilgan. Yoz kunlari ularga ko'chib o'tilgan (64-rasm).




a. Baland devor bilan o'ralgan, qiyalikda joylashgan bog'ning ko'rinishi. Movarounnahrda yaratilgan bog'larning birinchi turi.





b. Qiyalikda joylashgan yozgi bog'. Mojrurn qishlog'i. (D.Nozilov chizmasi.)

64-rasm.



d



e


64-rasm (davomi). *d, e* – Temuriylar davridagi relyefdagi bog'larning ko'rinishi.

O'rta asr bog'larining ikkinchi turi tekisliklarda shakllangan. Bu yerda ekinlar uchun yer tekislanib chellar ishlangan, ariqlar olingan, hovuz, shiypon, ayvonlar, supalar, ular oldida mo'jaz gulzorlar tashkil qilingan. Hokim va amaldorlarning shahar chetlaridagi bunday oromgohlari atrofi paxsa devorlar bilan o'ralib, kiraverishiga darvozalar ishlangan. Ular yozgi «qo'rg'oncha» bog'lar ko'rinishini olgan (65-rasm).






Yozgi qo'rg'oncha bog'lardan tashqari shaharlar ichida sersoya xiyobonlar, mo'jaz yashil maydonlar ham tashkil qilingan. X asrda Samarqandga sayyohatga kelgan arab geografi va tarixchisi Ibn Xavkal shahardagi yashil maydonlar va ulardagi turli xil oroyishlar haqida quyidagilarni yozadi: «Shahar arkdan, shahriston va uning atrof joylaridagi rabotlardan iborat... Ark tepasiga chiqqanimda kishi faqat tushida ko'ruvchi nihoyatda hayajonlantiradigan ko'rinishdan qalbim zavqlandi: ko'm-ko'k daraxtlar, yarqiragan koshonalar, sharqirab oqayotgan anhor va jilg'alar, atrof chet chaman, gulgun tabiat. Har bir joy, har bir daraxt, har bir gullayotgan bog'ga qarab qalbing quvonadi. Shahar maydonchalari go'zalligining esa cheki yo'q. Sarv daraxtlariga o'ta g'alati oroyishlar berilgan. Bular bir-biriga zimdan tashlanmoqchi bo'lib turgan yoki bir-biridan hadiksirayotgan, yo ehtimol tanishmoqchi bo'layotgan yashil sun'iy fillar, tuyalar, sigirlar, yovvoyi hayvonlar shaklini eslatadi. Kishi qalbini ochadigan bunday yashil oroyishlar har qadamda. Bularga sharqiragan ariqlar, baliqlarga to'la hovuzlar, dam olishga qulay ko'shk va shiyponlar qo'shilgan».

Ibn Xavkal yana bir boshqa joyda shaharning markaziy qismidagi ko'pchilik uylarning mevali bog'lari, barcha hovlilarning sug'orish ariqlari borligini eslaydi. «Shahar bog'larga o'rmonzorlar singari burkangan, agar unga yuqoridan qarasangiz hatto uylar ko'rinmay ketgan», deydi. Ibn Xavkal berayotgan axborot ham, ilk o'rta asrlardagi kabi, bog'lar tarzi oldindan tayyorlanmaganligidan, ular erkin, tabiiy ravishda rivojlanganligidan, dalolat beradi.


Ibn Xavkalning ushbu yozganlari Samarqandda bog'lar bunyod etish an'anasi juda qadimdan, ya'ni bu yerga Ibn Xavkal kelgunga qadar ham mavjud bo'lganligiga, X asrning oxirlarida esa shahar ichidagi yashil maydonlarda manzaraviy daraxt va butalar kuzatilganligiga, ya'ni daraxtlar oroyishi san'atining ham Samarqand uchun an'anaviyligiga, o'ziga xosligiga ishoradir. Ular erkin tarzda bo'lib, tabiiy holda shakllangan va shaharning fazoviy-hajmiy muhiti bilan qo'shilib ketgan. Bu «manzarali bog'»lar o'rta asr bog'larining uchinchi turiga kirgan (66-, 67-rasmlar).



65-rasm. Atrofi baland devor bilan o'ralgan, tekislikda joylashgan qadimgi, «qo'rg'oncha» ko'rinishidagi bog'larning bugungi ko'rinishi. Movarounnahr bog'larining ikkinchi turi.



65-rasm (davomi).
Temuriylar davridagi
tekislikdagi bog'larning
ko'rinishi.



66-rasm. Afrosiyob shahrining fazoviy-hajmiy muhiti bilan uyg'unlashib ketgan «manzarali bog'». Suv havzalari, puxta o'ylangan sug'orish tizimiga ega bo'lgan, to'rt tomonidan daryo bilan o'ralgan «bog'-shahar». Movarounnahr bog'larining uchinchi turi.

Xerman Vamberi o'zining «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» kitobida Samarqandni mo'g'illar istilo qilganda (1221-y.) bu yerdagi «usta bog'bonlar uzoq Sharqqa, mo'g'illar yurtiga yuborilgan edi», degan fikrni bildiradi. Ma'lumki, mo'g'illar Samarqandni bir yarim asrga yaqin davr ichida mustamlaka qilib turgan. Ana shu uzoq yillar davomida Samarqand va Movarounnahrda deyarli to'xtab qolgan bog'chilik san'atini Amir Temur qaytadan rivojlantirdi. Endi u qo'rgoncha ko'rinishidagi bog'lar va shahar ichi maydonlaridagi mo'jaz bog'lar bilan chegaralanmasdan, shahar atroflaridagi xushmanzara joylarda katta istirohat bog'-saroylarni va ularda turli xil go'zal oroyishlar va bog' ziynatlarini avj oldirdi.

Bizga ma'lumki, XIV asr oxirida Eron Amir Temur imperiyasi tarkibiga o'tadi. Temur qattiqqo'l sarkarda bo'lsa-da, arxitektura va bog'lar yaratishga juda qiziqqan.

Temur o'z imperiyasining poytaxti Samarqandni betakror arxitektura asarlari yig'ilgan nodir shaharga aylantirishga harakat qilgan. Temurni Sheroz, Kashon va Isfaxon shaharlarining arxitekturasi va u yerdagi bog'lar hayratga solgan. Shuning uchun u o'sha yurtlardan



67-rasm. Ilk o'rta asrlarda shahar muhitida erkin tarzda shakllangan «manzarali bog'»larning ko'rinishiga misollar.

me'morlar, rassomlar, hunarmandlar, xullas turli soha vakillarining ustalarini Samarqandga olib kelgan. Shundan keyin Samarqandda «bog'dorchilik san'atining rivojlanish asri» boshlangan (68-, 69-rasmlar). Biroq Temur davriga qadar ham Samarqandda bog'-park qurish san'atining bo'lganligi haqida biz oldingi bobda to'xtalib o'tgandik.

Temur davrida Samarqand me'morlari va bog'bonlari Eronning an'anaviy «chorbog'» uslubidagi bog'lar kompozitsiyasidan samarali foydalanishgan. Temur va temuriylar davri bog'larining qanday bo'lganini o'sha davr rassomlari o'z miniaturalarida aks ettirganlar. Bunday bog'lar sahni ariqlar bilan bir necha, odatda, to'rt qismga bo'linib, «chorbog'» hosil qilgan. Chorbog'da turli xil mevali daraxtlar, ular orasiga chiroyli va xushbo'y gullar ekilgan, ariqlar bo'ylab yo'lakchalar o'tkazilgan. Badavlat oilalar o'z chorbog'lari ichiga chiroyli shiyponlar qurib, yoz oylari mehmonlarni shu bog'larga taklif qilishgan. Bunday mo'jaz qo'rg'oncha-chorbog'lar suv manbalariga yaqin, nisbatan tekis joylarda bunyod etilgan (70-rasm).



68-rasm. An'anaviy «chorbog'» uslubidagi bog'da mehmondorchilik tasviri.





69-rasm. Amir Temur davridagi qurilish jarayonining tasviri.



70-rasm. Shahar tashqarisida qurilgan qo'rg'oncha-chorbog'lar ko'rinishi (D.Nozilov bo'yicha).

Biroq Amir Temur bunyod etgan istirohat bog'-saroylari o'zlarining keng ko'lami, xush havosi, go'zal manzaralari, ertaknamo saroy va ko'shklari, g'aroyib hovuz va favvoralari, beozor jonzotlari bilan bunday mo'jaz qo'rg'oncha-chorbog'lardan ajralib turgan. Ammo istirohat bog'-saroylari ham «qo'rg'oncha-chorbog'lar» kabi atroflaridan baland devorlar bilan o'ralib, darvozalar orqali kirib chiqilgan (71-rasm). Temur bunyod etgan ayrim istirohat bog'larining maydoni juda katta bo'lib, ular ichida sersoya daraxtzorlar, turli mevali bog'lar, hovuzlar, gulzorlardan tashqari maysazorlar, hatto o't-yalangliklar bo'lgan.

Temurning shahar arki ichida Bo'stonsaroy qoshida mo'jaz «chorbog'» ham tashkil etganligi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, manbalarda shahzoda Muhammad Sulton qurdirgan madrasa (hozirgi Go'ri Amir) atrofida «bir nechta uyni buzib jannat misol bir bog'cha» yaratilganligi ham eslatib o'tiladi. Ammo bog'larning asosiy qismi shahar atroflarida, xisordan tashqarida mahobatli istirohat bog'-saroylari tarzida bunyod etilgan (72-rasm). Temurning o'zi o'ndan ziyod shunday bog'larga asos solgan edi. Quyida ularni sanab o'tamiz.




71-rasm. Amir Temur davrida qurilgan «chorbog»lar ko'rishini me'moriy qayta tiklash loyihasi (A.S.Uralov, K.D.Rahimov, N.Drobchenkolar chizmasi).

Bog'i Naqshi Jahon. Bu bog' XIV asrning 70-yillarida bunyod etilgan deb taxmin qilinadi. U Cho'ponota qiriligining janubiy etagidagi, Obirahmat arig'ining atroflaridagi yerlarda joylashgan. Bog'da zebu-ziyatga boy hashamatli saroy ham qurilgan.

Bog'i Behisht. Temurning yosh xotinlaridan biri Tuman og'och uchun 1378-yili shaharning janubi-g'arbiy tomonida bunyod etiladi. Bog'da sun'iy tepalik ustiga oq marmardan ishlangan ko'shk tiklanadi.

Amirzoda Shohruh bog'i. Bu bog'ni 1394-yili Temurning kenja o'g'li Shohruh Mirzoning Kavkazorti yurtlariga qilgan yurishidan qaytishi sharafiga qurilgan deb taxmin qilinadi. Sharafiddin Ali Yazdiy ushbu bog'ni Samarqandning g'arb tomonida, Chorraha darvozasiga yaqin yerda joylashganligini yozadi.


Bog'i Dilkusho. Sharafiddin Ali Yazdiyning fikricha, bu bog' Movarounnahrning eng go'zal bog'laridan biri bo'lgan. Bog'da mahobatli va munaqqash gumbazli uch ravoqli ko'shk-saroy ham qurilgan bo'lib, u bog'ga sadafdagi marvarid kabi ertaknamo chiroy berib turgan. Ayrim adabiyotlarda ushbu bog' bizgacha saqlanib qolgan



72-rasm. Amir Temur va temuriylar barpo etgan bog'lar (Samarqand, XIV–XV asrlar). Bu bog'larning aksariyati «chorbog'» uslubiga asoslangan.

Ishratxona obidasining atrofida qurilgan, Ishratxonaning o'zi esa o'sha jannatsimon bog'ning ko'shki bo'lgan, deyiladi. Ko'shk devorlarida Amir Temurning Hindiston yurishidagi jang manzaralari tasvirlangan. Ali Yazdiyning xabar berishicha, bog' qurilishi 1396-yilning kuzida boshlangan. Bog' Temurning kichik xotini To'kalxonimga atab bunyod etiladi hamda nihoyatda dilkusho va ko'rkli bo'lganligi bois «Bog'i Dilkusho» deb nomlanadi (73-rasm). Temurning qabulida bo'lgan ispaniyalik elchi Klavixo (1404-y.), bu bog' baland devor bilan o'ralganligi, bog'da favvoradan suv o'tilib, suv yuzida qizil va oq olmalar qalqib turganligini, bog'ga kiriladigan darvoza juda keng va yuksak, oltin va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilganligini, bog'da kiyiklar erkin sayr qilib yurganligini va bog' ustiga taxtiravon o'rnatilgan oltita fil borligini yozadi. Bu fillar, aftidan, sohibqiron va uning oila a'zolari yoxud ulug' mehmonlarni keng bog' bo'ylab sayr ettirishda ulov vazifasini bajargan ko'rinadi.

Bog'i Shamol. Temurning nabirasi – Mironshohning qizi Beka Sulton nomiga atab Samarqanddan g'arb tomonda barpo etiladi.



73-rasm. «Bog'i Dilkusho» ko'shk saroyining ichki ko'rinishi
(D.Nozilov chizmasi).

Bog'da 1397-yili «dilni rom etuvchi go'zal va baland qasr» ham quriladi. Qasrning tarhi-lavhasini Temurning o'zi ko'rib ma'qullaydi. Bog'ga «Shamol» nomining berilish sababini tarixchi olimlardan U.Alimov va A.Berdimurodovlar shaharning ushbu, ya'ni g'arb tomonidan ko'proq shamol esib turganligidan deb tushuntiradilar. Me'morchilik doktori M.Bulatov esa «shamol» so'zini «shamal» o'rnida ko'rib, «sham» — shomlik, ya'ni suriyalik, «al» — aloqadorlik, demak «shamal», bu nom «shomlik me'morlar qurgan degani» deb tushuntiradi. Temur bog'larini qurishda Suriyadan, ya'ni Shomdan keltirilgan me'morlar ishtirok etgan bo'lishlari mumkin. Lekin Sharafiddin Ali Yazdiyning xabar berishicha, ushbu bog' qurilgan

joy, u bunyod etilmasdan oldin ham Bog' i Shamol nomi bilan mashhur bo'lgan. Demak, bog' bu yerda ilgaridan mavjud bo'lgan bog'lar asosida shakllantirilgan.

Bog' i Bo'ldu. Bu bog' shahardan sharq tomonda, Bog' i Dilkushoga yaqin joyda hozirgi Ulug'bek nomli jamoa xo'jaligi yerida bo'lgan. Bog' saroyi xarobalaridan yaproqlariga oltin suvi yuritilgan guldasta naqshlar topilgan. M. Bulatov ushbu bog' nomini «Bo'ldu» emas «Bildi», ya'ni «Bilimlar bog' i (Bog' i bildi)», deb tushuntiradi. Olimning fikricha, ushbu bog' da Amir Temur saroy olimlari, ulamolar va she'riyat namoyandalari bilan yig'ilishib, turli xil ilmiy bahslar, she'riyat kechalari va suhbatlar o'tkazib turgan.

Bog' i Baland. Ushbu bog' Cho'ponota tepaligining g'arbida, taxminan, hozirgi aeroport va avtosaroy hududida joylashgan. Bog' da alohida anjirzor, uzumzor, olmazorlar bo'lib, ular bog' manzarasiga o'ziga xos husn qo'shgan.


Bog' ning o'rtasida yuksak mahorat bilan barpo qilingan ko'shk qad rostlab turgan, bog' ning atrofi baland devor bilan o'rab olingan, faqat shimoliy tomoni Zarafshon daryosining qirg'oqlari bilan chegaralanib turgan. Bog' i Balandning bir chekkasidagina hozirda ham anjirzorlar saqlanib qolgan.

Bog' i Davlatobod. Bu bog' Samarqand—Shahrisabz yo'li ustida Bog' i Dilkusho bilan Bog' i Jahonnamo oralig'ida joylashgan. Temur davlat yumushlaridan bo'shaganda va harbiy yurishlardan so'ng shu bog' da hordiq chiqarar ekan. Bog' da oltita turli hovuz bo'lib, ular ariqlar bilan tutashtirilgan. Hovuzlarni turli parrandalar, bog' ni esa nafis hayvonlar, tovuqlar bezagan. Bog' saroyi baland sun'iy tepalik ustiga qurilgan bo'lib, atrofi baland devorlar bilan o'rab olingan. Undan atrofdagi go'zal dala xushmanzara joylari ko'rinib turgan (74-rasm).

Bog' i Chinor. Bog' da dov-daraxt, chinorlar ko'p bo'lganligidan shunday deb nom olgan. Samarqanddan sharq tomonda, Darg'om arig' i atrofida, hozirgi Xo'ja qishlog' i yonida joylashgan. Ushbu bog' dagi saroy ham sun'iy tepalik ustiga qurilgan.

Bog' i Jahonnamo. Bu bog' da dunyo iqlimiga xos mevazorlar bo'lib, uni «bog' -oyna» ham deyishgan. Bog' Samarqanddan ancha janubda, Urgut tog' lari etaklarida joylashgan.

Bog' i Zag'on. Samarqanddan sharqda qadimiy Panjikent karvon yo'lining ustida Ko'chai xiyobon mavzeidagi bog' . Hozir ushbu bog' o'rnida shu nom bilan ataluvchi qishloq mavjud.






a. Bog'i Davlatobod.
«Chorbog'» uslubida qurilgan.
Bog'-saroyning ko'shki joy-
lashgan tepalik va ko'shkning
tarhi (O'.Alimov bo'yicha).

b. Bog'-saroy atrofi rasmdagi kabi
baland paxsa devorlar bilan
o'ralgan.

74-rasm.

Bog'i Maydon. Samarqanddan shimolda Afrosiyob tepaligi bilan Cho'ponota qirlarining o'rtasida, hozirgi Bog'i Maydon qishlog'i o'rnida barpo etilgan. M.Bulatov ushbu bog' nomidan kelib chiqib, u chavgon o'yini uchun mo'ljallangan bo'lgan, degan fikrni ilgari suradi. Adabiyotlarda ushbu fikr foydasiga aytilgan biron-bir ma'lumotni uchratmasak-da, chavgon o'yini uchun zarur bo'lgan, nisbatan tekis chimlik maydon ushbu bog' hududi tarkibiga kirgan bo'lishi mumkin. Bog'ning asosiy rivojlanish davri Ulug'bek davriga to'g'ri keladi. Chunki u Ulug'bek tashkil etgan rasadxonaga yaqinida joylashgan va rasadxona olimlarining dam olishlariga moslashtirilgan edi. Chorbog' kompozitsion tizimda qurilgan bog' markazida Chilstun nomli (Ulugbek davriga to'g'ri kelgan), ikki qavatli hashamatli saroy ham barpo etilgan (75-rasm).

Bog'i Nav. Amir Temurning Samarqandda qurgan bog'lari ichida eng so'nggisi bo'lib, 1404-yili bunyod etilgan. Samarqand shahar devoriga yaqin, undan janubi-g'arbda, taxminan hozirgi Dorilfunun xiyoboni va shahar markaziy madaniyat va istirohat bog'i hududlari o'rnida joylashgan.



75-rasm. Bog'i Maydondagi «Chilstun» nomli ikki qavatli hashamatli saroy binosini qayta tiklash loyihasi (T.Mamatmusayev bo'yicha).

Taxti Qoracha bog'i. Bu bog' Shahrisabz yo'lidagi Zarafshon tog'i dovoni etagidagi anhor atroflarida bunyod etilgan. «Imorat qurishga yaroqli har bir joyning zoye ketishini ravo ko'rmaydigan» Temur bu mavzeda ham bog' yaratishga farmon beradi. Bog' o'rtasiga bir ko'shk qurdirib, unga «Taxti Qoracha» deb nom beradi. Taxti Qorachaning suvi qahrabodek tiniq, billur kabi toza bo'lgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu go'shalarining eshiklari sohibqironning o'zidan tortib oddiy shaharlikkacha — barcha uchun ochiq bo'lgan. «Agar Temur biror tomonga o'tlanib Samarqand qo'shinlari-yu yordamchilaridan holi bo'lib, o'sha bo'stonlar bo'sh qolsa, shahar ahlidan badavlat-u miskinlar (bo'ston)larga qarab yo'l oladilar. Chunki bu bog'lardan ko'ra yaxshi va ajoyib dam oladigan, bulardan ko'ra rohatlanishga muvofiqroq va osoyishtaroq joy yo'q edi. Bog'lardagi shirin, mazali mevalar esa barchaga bab-baravar (tekin) edi». Bog'lardan chiqqan tarovat va xushhavo jazirama kunlarda Samarqand iqlimini mo'tadil saqlab turardi.

Temir ushbu istirohat bog'-saroylaridan tashqari, Shahrisabzdagi Oqsaroy qoshida, shuningdek, Yassadagi Xoja Ahmad maqbara majmuasi yonida ham go'zal va munaqqash bog'lar yaratgan edi.

Demak, O'rta Osiyoda o'rta asrlardagi bog'lar bunyod etish va ularga oroyish berish san'ati qadimgi Movarounnahrda qadim zamonlardan boshlab shakllanib kelgan. Bunga o'ziga xos iqlim serquyoshligi, uzoq issiq yozning o'tkir ta'siridan saqlanishga qaratilgan harakat ham sabab bo'lgan.

Jazirama yoz kunlarida soya-salqin bog'larda, hovuzlar qoshidagi supali shiyponlarda, shabada joylarda odamlar dam olishgan. Bunday oromgohlarda, odatda, sersoya manzarali dov-daraxtlardan tashqari, turli-tuman mevali daraxtlar, gullar, xo'jalik uchun toklar va boshqa ekinlar ham ekilgan. Bunday xususiyatlar bog'larning birinchi turiga taalluqli bo'lgan. Bu bog'lar ko'pincha shahar atroflarida, tog' yonbag'irlaridagi qiyaliklarda (relyefda), buloq bo'ylarida bunyod etilib, erkin tarzda shakllangan.

Ilk O'rta asr bog'larining aksari tekisliklarda joylashgan. Bu yerda ekinlar uchun yer tekislanib, chellar ishlangan, ariqlar olingan, hovuz, shiypon, ayvonlar, supalar, ular oldida mo'jaz gulzorlar tashkil qilingan. Shahar chetlaridagi bunday oromgohlar atrofini paxsa devorlar bilan aylantirib o'rab, ularga darvozalar ishlangan. Ular bog'larning ikkinchi turi — «yozgi qo'rg'oncha» bog'lar ko'rinishini olgan.

Ibn Xavkal (X asr oxiri) Samarqand shahrini «bog'larga o'rmonzorlar kabi burkangan, agar unga yuqoridan qarasangiz hatto uylar ko'rinmay ketgan», deydi. Ushbu yozuvlar Movarounnahrda bog'lar bunyod etish an'anasi bu yerga Ibn Xavkal kelgunga qadar ham mavjud bo'lganligiga ishoradir. Ilmiy tilda «manzarali bog'» uslubida shakllangan va shahar hajmiy-fazoviy muhiti bilan qo'shilishib ketgan. Bunday ko'rinishga ega bo'lgan bog' ilk o'rta asrlardagi bog'larning uchinchi turiga kirgan.

O'rta Osiyo bog'-park san'ati Temur va temuriylar davriga kelganda yangi ko'rinishda aks etadi. Bu davrda bog'larning rejaviy yechimlari, tarzlari va hajmiy-fazoviy ko'rinishlari temuriylar talabiga muvofiq tamoman yangi uslubda ishlanadi. Simmetrik va muntazam handasaviy tartibda rejalashtirilgan, kvadrat yoki to'rtburchak shaklga ega, asosiy o'qda joylashtirilgan, tarkibida saroy, «chorbog'»- va hovuz asosiy elementlar bo'lib xizmat qilgan bu bog'lar xalq orasida «chorbog'» nomini oladi.


Biz bunday uslubdagi bog'lar Movarounnahrda temuriylar davridan oldin, ilk o'rta asrlarda bo'lmagan deb aytolmaymiz. Lekin Temur davridagi qurilish madaniyatiga doir manbalarda, qayta tiklangan qadimiy «chorbog'» uslubi o'rta asr bog'-park san'atiga tegishli ekanligi va bu san'at Amir Temur tufayli tiklanib, boshqa davlatlarning «mintaqaviy maktab»lariga o'z ta'sirini ko'rsatganligi aytib o'tilgan.

2.2. Temuriylar davlati, Hirot va Qobulning o'rta asrlardagi bog'lari

Hirot o'rta asrlarda Eron imperiyasining hududida joylashgan bo'lgan, hozirgi kunda Afg'oniston hududiga qarashli. Arxitekturaning ma'rifatli namoyandasi bo'lgan Amir Temurning homiyligi ostida XV asrda Hirot ulkan madaniyat markaziga aylandi. 1221-yilda uni Chingizxon yer bilan yakson qilib, buzib tashlagan edi. Temuriylar davriga kelib, shaharning yuksalish davri boshlandi. Bunda Temurning avlodlari bo'lgan Boburiylar katta rol o'ynadi. Bu sulolaning asoschisi bo'lgan, Farg'onaning hukmdori Zahiriddin Muhammad Bobur (1483—1530) o'z umrining 20 yilini Qobulda o'tkazdi. «Men Qobulning ajoyibotlarini hech qachon yuragimdan chiqara olmayman, unga qaytishga tashnaligimni so'z bilan ifoda qila olmayman», deb yozgan edi, Bobur o'z o'g'liga. U o'limidan so'ng bu yerga butunlay qaytib



a. Bobur o'zining chorbog'laridan birida.



b. Boburning Qobuldagi qabri.



76-rasm.

keldi va o'zining sevimli bog'larining birida, yuz yillik chinorlar soyasiga burkangan, oq marmardan qurilgan dahma ichida yotibdi (76-rasm).

Tarixiy manbalarga qaraganda, Bobur vafotidan keyin o'z qo'llari bilan yaratilgan aynan shu bog'da uni dafn qilishlarini vasiyat qilgan. 1646-yilda bog'da masjid qurilgan, uning atrofida «Bog'i Bobur», ya'ni «Bobur bog'i» deb atalgan bog' barpo etilgan. Mashhur «Bobur bog'i» ulug' imperiyaning asoschisi, shoir, olim, davlat arbobi, buyuk qo'mondon Bobur tomonidan bunyod etilgan. Bu yerda uning xoki ko'milgani uchun afg'onlar uni «Qabri Bobur», ya'ni «Bobur qabri» deb atashadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Bobur to'satdan 1530-yilning 26-dekabrda Agra shahrida vafot etadi va Jamna daryosi bo'yida dafn qilinadi. Keyinchalik shohning vasiyati bo'yicha, 1539-yilda uning xoki Qobulga keltirilib, «Bobur bog'i»dagi maqbaraga qayta dafn etiladi. Bog' tog' yonbag'ridagi qiyalikda barpo qilingan.

Bu bog'da asosiy o'q bo'ylab joylashgan to'rtta pog'onadagi yashil sahnlar zinapoyalar va shalolalar yordamida bog'langan (77-rasm).

Boburshoh Qobulni zabt etgandan keyin Afg'oniston poytaxtini obodonlashtirish uchun ko'p harakat qildi, ayni paytda o'z imperiya-sining boshqa shaharlariga ham e'tibor qaratdi. Bobur vafotidan keyin



77-rasm. Qobuldagi «Bobur bog'i»ning turli ko'rinishlari.

boburiy Shoh Jahon ushbu bog' hududida hind arxitekturasi uslubida oq marmardan masjid qurdirdi. Bu davrda bog'da Bobur qabridan boshqa ajoyib saroy va binolar bor edi.

Temur va temuriylar davrida Xuroson poytaxti Hirotida Samarqand bog'lariga o'xshash, go'zal bir nechta bog'-rog'lar bunyod etiladi. Bular mashhur «Shoh Jahon bog'i», «Chixel-Sutun bog'i», «Bog'i Safed» va boshqa bog'lardir. Ularning hammasi «chorbog'» uslubida quriladi.

Hirot shahri atroflarida Temur davriga qadar ham mahalliy zodagonlar qurgan bir necha bog'lar bo'lib, ulardan Bog'i Baland, Bog'i Zog'on, Bog'i Safeddan Shohruh Mirzo davrida saltanatning yozgi qarorgohi va xalq sayillarini o'tkazish uchun foydalanilgan. Bu bog'lar ham «chorbog'» uslubida shakllantiriladi. Shohruh o'z hokimiyatining dastlabki yillarida «Bog'i Safed» hududini ancha kengaytirib, «chor-kunja» tartibda qayta quradi va uning markazida tasviriy san'at asarlari bilan ziynatlangan munaqqash bir saroy ham bunyod etadi.

Sulton Husayn Boyqaro davrida ham Hirot atroflarida bir necha bog'-saroylar va xiyobonlar mavjud edi. Ular ichida eng yirigi Husayn Boyqaro bunyod etgan «Bog'i Jahonaro» hisoblangan. Bu bog' salkam bir kvadrat kilometr (100 gektar) joyga ega bo'lib, bog'ning o'rtasida mahobatli baland saroy qurilgan. Saroy oldida gulzor, mevali va manzarali daraxtlar bilan bezatilgan, «chorbog'» va «chorchaman» hamda «xiyobon» uslublarida tashkil etilgan to'rtta bog' bo'lgan. Bog'ning shimoliy tarafidagi keng hovuzning to'rt tomonida to'rtta ziynatli shiypon va kamondan nishonga otib, mashq va musobaqalar o'tkazishga mo'ljallangan maxsus bino — sadafxona ham bo'lgan. Bog'da qatorlatib ekilgan turli xil manzarali daraxtlar: sarv, oqqarag'ay, majnuntol, chinor, shuningdek, tokzor, turli-tuman gulzorlar bo'lgan.



Xondamirning xabar berishicha, Alisher Navoiy ham Hirot shahri atrofida bir necha bog' va manzilgohlar bunyod etgan. «Bog'i Murg'oniy», «Bog'i-Saripuli – Sangkashon» (tosh tashuvchilar ko'prigi yonidagi bog'), «Bog'chai Shavqiya» («Dilkusho Bog'i»), «Bog'chai Guzurgoh» va «Taxti Bobo Suxta» go'shalari shular jumlasidandir. «Sangkashon bog'i» haqida Xondamir o'zining «Xulosat ul-axbor»ida: «Bu jannatfazilat manzil, undayin gashtgoh butun Xurosonda ham topilmagay», deb yozadi. Shavqiya bog'i esa nihoyatda orasta joy bo'lib, o'rtasidan suv oqib o'tgan. Bog'chai Guzurgohni Xondamir: «Xuroson yurtida, balki olamning aksari obod yerlarida bundayin suvi mazalik va havosi latif jannatsimon joy topilmaydi», deb ta'rifladi, Taxti Bobo Suxtani «Qutlug' manzil, «Bog'chai Guzurgoh»ning shimoliy tarafida joylashgan va tavsif-u ta'rifga muhtoj emasdir... Amir Alisher ko'p zamon va yillar ushbu jannatasar manzilda rohat-u farog'atda kun kechirsin...», deb istak bildiradi.

«Bog'i Murg'oniy» esa dilkusho mavze, g'oyat ma'mur va obod joy hisoblangan. Ushbu bog' ichida Navoiy ajoyib bir masjid ham qurdiradi.

Temuriylar, shu jumladan, Navoiy ham o'zlarining bog'larini dil ochuvchi va ertaknoma bo'lishi uchun chiroyli hayvonlar bilan bezaganlar. Bog'da sayr qilib yurgan ohu va tovuqlar, hovuzlarda suzib yurgan o'rdak va g'ozlar shular jumlasidandir. Klavixo ham Temurning Samarqanddagi Davlatobod bog'ida ohu va tustovuqlar bo'lganligidan dalolat bergan edi. Bog'lardagi hayvonot olamini ko'pgina nafis suratlarda ham uchratish mumkin. Hirot bog'larining birini maxsus Hovuzi Mohiyon – «Baliqlar hovuzi» bezagan. Bunday jonzotlar Sharq bog'lari husniga husn qo'shgan (78-rasm).

Klavixo Temurning Shahrisabzdagi Oqsaroyi qoshida bunyod etgan bog'ida tilladan ishlangan sun'iy daraxtni ko'rib, uning mevalari billur toshlar bilan bezatilgan edi, deb yozadi. Bunday g'aroyib mo'jizani yaratgan o'rta asr ustalari mahalliy xalq vakillaridan yoki o'zga yurtlardan edimi, bundan qat'iy nazar, bu hol sun'iy landshaft yaratish va landshaft dizayni uslubi Sharq xalqlariga azaldan xos ekanligini ko'rsatadi.

Bu bog'larni yaratgan me'mor va bog'bonlar ularda o'sha davr bog'-istirohatchilik san'atining eng yaxshi namunalarini aks ettirishga intilganlar. Temuriylarning bog'lari uchun ko'proq ilgaridan mavjud manzilgohlar, suvi yetarli kichik bog'lar, xushmanzara daraxtzorlar, o't-o'lanlar qo'shib olinib, qaytadan rejalangan yoki maxsus loyiha-



78-rasm. Hirot bog'larining miniaturalardagi tasviri.

langan. Faqat ayrim bog'lar yangidan yaratilgan. Har ikkala holda ham ular uchun mavjud, manzaraga boy joylar tanlangan. Ayni paytda, Movarounnahrda tabiiy noqulay bo'lgan, masalan, botqoqlik joylarda sun'iy ishlangan bog'lar ham uchraydi.

Xo'sh, Amir Temur va Temuriylar davri istirohat bog'lari qanday me'moriy tartib va rejalarda ishlangan? Bu sohadagi materiallarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bog'larning rejaviy qiyofasi ikki xil:

1) simmetrik reja asosida to'g'ri handasaviy shakllardan tuzilgan tartibli, muntazam ko'rinishda;

2) jonli tabiat manzaralaridan tashkil topgan tabiiy erkin peyzaj ko'rinishida shakllangan.

Temur va Temuriylar bunyod etgan bog'larning ko'pchiligi birinchi xil ko'rinishdagi bog'lardan tashkil topib, ularning tuzilishi an'anaviy «chorbog'» tartibiga bo'ysundirilgan. Chorbog'lar rejasi asosan to'g'ri to'rtburchak yoki kvadrat shaklda devorlar bilan o'ralgan, to'rt va undan ko'p qismdan iborat bog'lar bo'lgan. Ularning o'rtasidagi saroyga boriladigan xiyobonlar, odatda, chorbog' maydonini simmetriya yoki shunga yaqin holda joylashgan birtalay to'rtburchak «chorchaman»larga bo'lgan.

Hirotda yashab o'tgan Niyoziyning «Iroshodush-ziroat fi ilmil harosat» («Ekin ekish yo'riqlari va dehqonchilik ilmi») asarida «chorbog'ning» tarhi, qurilishi va ekilish tartibi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Unda «chorbog'» tashkil etish tartibi quyidagicha bayon qilingan:

«Qoida shuki, chorbog'ning girdini devor tagidan uch ziro (1 ziro 70 santimetr ga yaqin) tashlab, bir ziro keladigan ariq qaziladi. Ariqning

devor tomonidagi qirg'og'iga bir-biriga yaqinlashtirib safedori Samarqandiy (oq terak) ekiladiki, u xushnamodir. Kaju (qarag'ay) u qadar latofatli emas, shuning uchun uning hojati yo'q. Bog' tarafidagi ariq qirg'og'iga savsan (gulsafsar) ekish munosibdir. Keyin yana raxrav uchun uch zar (zar 107 santimetrغا teng) ark (yo'l) tashlab, bir zirolik ariq qaziladi. Uning yo'l tomonidagi qirg'og'iga savsan, safedoridan besh ziro uzoqlikda bo'lgan pushtasiga (maydonchaga) zardolu ekiladi; har ikki zardoluning oralig'iga guli surx va shaftoli (ekish) munosibdir. Mazkur zardoluning har biridan keyin bog' ichkarisi tomon besh qarich oraliq tashlab, yo zardolu ekib, olu, uzum payvand qiladilar. Shundan keyin oraliqdan imorat oldidagi hovuzga boradigan to'g'ri ariq chiqariladi. Uning qirg'og'iga hamisha bahor, savsani rasmiy va xanjariy ekiladi, ular xushnamodirlar. Mazkur shoh ariqning har ikki qirg'og'i bo'ylab raxrav uchun atrofi o'ralgan yo'l tashlanadi. Keyin sebarga (beda) uchun joy tayyorlanadi. Sebargazor tomonda alohida-alohida baland chaxorchaman (to'rt gulzor) ajratiladi. Birinchi chaman-anor, ikkinchisi — behi, uchinchisi — shaftoli, to'rtinchisi amro'z (nok) bo'ladi. Chaxorchamanlardan keyin bog'chalar tuziladi. Birinchi bog'chaga ko'k binafsha, elchi savsan va zebogul; boshqasiga bog' lolasi, tog' lolasi, dardari gush, dardari kokiliy, oddiy savsan, saxxoyi va oq savsan, oddiy shaqoyiq; yana boshqa bog'chaga oq yosuman, sariq yosuman, savsani xatmiy, uni yana gulxayri deb ham aytadilar; yana bir bog'chaga xatmi xitoyi, oq yosuman, shab ba do'ston, chaman afro'z, lolayi xitoyi, bo'ston afro'z (gultojixo'roz) ekiladiki, bu gullar birin-ketin ochiladilar. Bog'chalarning etagiga ularning sharqiy va g'arbiy tomonlariga nastarin; uning yonidan hovuzning shimol tomonidan yana ikki buta nastarin ekadilar. Hovuz imoratdan 20 zar yoki qancha munosib topsalar, shuncha uzoqlikda bo'lishi kerak. Imorat atrofiga chinor, g'arbiy tomoniga gilos, ular oralig'iga qizil argun ekiladi. Imoratning janub tomonidan lulapo'zga (atrofi ariq bo'lgan supa) olma ekiladi. Chunki issiq oftob kunlari (olma daraxti) uning taftini qaytaradi».

Keltirilgan parchadan ko'rinib turibdiki, «chorbog'» tartiboti alohida qoida sifatida e'lon qilinish, bog' tuzish san'atida unga amal qilish an'anaga kirgan. Bu an'ana asrlar davomida bog' ustalari va me'morlar tomonidan aniq ijtimoiy va tabiiy sharoitlarni hisobga olgan holda turli ko'rinishlarda rivojlantirilib kelingan. Buxorodagi Sitorai Moxi Xosa bog'ining (XIX–XX asrlar) tuzilishi bunga misol bo'la oladi. Bu bog' XIX–XV asrlardagi Samarqand va Hirot bog'-

lariga o'xshash «chorbog'»lar shaklida rejalangan. Bog' sahni bir-biriga ko'ndalang yo'laklar bilan kesishuvchi chorchaman maydonlarga bo'lingan.

«Chorbog'»lardagi xiyobonlar — bosh yo'l va sayrgoh yo'laklarining ikki tarafiga quyosh yo'nalishiga qarab soyabon daraxtlar va mavsumiy gullar ekish orqali tashkil etilgan. Xiyobonlar daraxt va o'simliklarning ekilish tartibiga qarab ochiq yoki yopiq ko'rinishlarda bo'lgan. Ochiq xiyobonlarda daraxt shohlari bir-biriga qo'shib ketmagan. Yopiq xiyobonlarda esa, aksincha, daraxtlar o'sib yo'lak ustini yuqoridan yopib qo'ygan. Quyoshning harakatiga qarab u yoki bu ko'rinishdagi xiyobonlardan foydalanilgan. Ya'ni yopiq xiyobonni quyosh va uning nurlari yo'nalishi bo'ylab, ochiq xiyobonni esa, quyosh nurlariga ko'ndalang qilib ekilgan. Bunday usul xiyobonli yo'laklarning kun bo'yi soyada bo'lishini ta'minlagan. Tashkil qilingan muhit jazirama issiqda ham odamlarga soya salqinda dam olish imkonini bergan. Natijada bunday xiyobonlar salqin, sersoya bo'lgan, yo'lak chetiga qo'yilgan o'rindiqlarda o'tirib, hordiq chiqarib dam olingan. Bosh xiyobonlar, hovuzlar bo'ylaridagi supalar, ayvonlar atroflari, chorbog' devorlari qoshiga manzarali daraxtlar, sayrgoh yo'laklar va chorchamanlarga mevali daraxtlar ekilgan.

Tartibli muntazam handasaviy ko'rinishdagi «chorbog'»lar ko'proq nisbatan tekis yerlarda joylashgan bog'larga mos kelsa, erkin manzarali ko'rinishdagi bog'lar baland-pastlikda, qiyaliklarda joylashgan keng maydonli sayrgoh istirohat bog'lari va bog'-qo'riqxonalar uchun mos kelgan. Amir Temur bunyod etgan «Bog'i Jahonnamo», «Bog'i Naqshi Jahon», «Bog'i Taxti Qoracha» bog'lari ana shunday erkin tabiat manzarasi ko'rinishidagi bog'lar turiga kirgan. Bu bog'lardagi bog' saroyi atroflari, unga boriladigan markaziy xiyobon va bog' darvozasi oldilari muntazam tarhlik rejalarda shakllantirilgan. Bog'ning qolgan qismlari asosan erkin tabiat manzarasi ko'rinishida qoldirilgan.

Zarafshon tog'i etagida joylashgan «Bog'i Jahonnamo», Zarafshon tizma tog'laridagi dovonda billur suvli anhor bo'yida bunyod etilgan «Taxti Qoracha» bog'lari qo'riqxona bog'lar tarzida foydalanilgan. Ularda shohona ovlar va ov mashqlari o'tkazilib turilgan. «Bog'i Jahonnamo» tarkibida uzumzor ham bo'lib, uning aksariyat qismi nisbatan tekis maydonda joylashgan. Zarurat tug'ilganda qiyaliklar tekis sahnalarga bo'linib chiqilgan. Ta'kidlash mumkinki, har ikkala ko'rinishdagi bog'larda ham bog' qismlarining vazifalarini e'tiborga olib, foydalanishga qulay holda joylashtirilgan. Masalan, ayvon

imoratlarga tutashtirilgan, dam olish supalari hovuz va favvoralar qoshida, hovuzlar esa o'qariqlarga bog'langan, sersoya daraxtlar quyosh holatini e'tiborga olgan holda xiyobon va yo'laklar bo'ylab hamda hovuzlar atrofiga ekilgan. Manzarali va mevali daraxtlar bir-birini to'ldirgan, gulzorlar esa ochiq maydonlarda, shiyponlar atrofida barpo etilgan.

Temuriylar bunyod etgan bog'lar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, maydonlarining kattaligi, go'zal mahobati-yu, munaqqash zebuziyatlari, ertaknamo ko'shk-saroylari, mevali va manzarali daraxtlari, rang-barang gullari, g'aroyib suv inshootlari va manzaralari bilan ajralib turgan.

Sharafiddin Ali Yazdiy Temurning «Bog'i Jahonnamo»si haqida yozarkan, unda to'satdan me'morning oti yo'qolib qolganligi va uni bog'dan izlab topishga bir oy sarf bo'lganligi haqidagi latifani keltiradi. «Bog'i Dilkusho» va «Bog'i Nav» bog'larining tashqi o'lchamlari 1500×1500 gaz (1000×1000 metrlar chamasi) atrofida bo'lgan. «Davlatobod» bog'ining tarhi esa to'g'ri to'rtburchak shaklida (900×1350 metr) bo'lib, bog'ning o'zi ikki qismdan: bog'-saroy joylashgan istirohat bog'i (900×900 metr) va bog' uzumzoridan (900×450 metr) iborat bo'lgan.

Yangi bog'lar, ko'pincha, ilgaridan mavjud bog'lar hududlarini kengaytirish hisobiga barpo etilsa-da, ekiladigan daraxtlar turi alohida e'tibor bilan tanlangan. Bog' atrofidagi devorlar bo'ylab mirzateraklar ekilgan. Ular ichida «Safedori Samarqandiy» turi o'zining go'zal rangi va shakli bilan boshqa teraklardan ajralib turgan. Shuningdek, manzarali daraxtlardan tol, chinor, sarv, archa, majnuntol ekilgan.

Mevali daraxtlardan olmalarning turli xil navlari, o'rik, shaftoli, anor, nok, olcha, anjir, tut va bodomlar doim e'tiborda bo'lgan. Klavixo Temurning Davlatobod bog'ida, shuningdek, uning Shahrisabzdagi Oqsaroy qoshidagi bog'ida ham turli-tuman mevali va manzarali daraxtlar bo'lganligini eslaydi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur o'zining bog'laridagi mevali daraxtlarni payvand qilishni juda yoqtirgan va payvanddan so'ng ham tekshirib turgan. Ajdodlarimiz bog'lardagi mevali daraxtlarni faqat shirin-shakar mevalari uchungina emas, balki ularning bahordagi yorqin, oppoq qordek, binafsha, alvon rangli gullari, yozdagi qizil va sariq tusli mevalarining chiroyliligi bilan bog'ga tarovat bag'ishlashi, kuzda esa turfa rangdagi barglarga yastangani tufayli ham yoqtirganlar.





Gullarni tanlashda ularning ochilish mavsumiga e'tibor berishgan. Umuman, ular shunday tartibda ekilganki, biri ochilib tugasa, ikkinchisi gullay boshlagan. Shunday gullardan ayrimlarini sanab o'tamiz: hamisha bahor, atirgullar, binafshalar, savsan, nargis, guli ra'no, nilufar, shabbo'y, gultojixo'roz, argun, sadbarg, xanjariy.





Bog'lar ichida ham ikki xil manzarali muhit: sersoya yopiq va soyasiz ochiq yashil muhitni kuzatish mumkin. Yopiq yashil muhitga odatda sersoya xiyobonlar, yo'laklar, hovuz va supa atroflari kirsa, ochiq yashil muhitga maysazor, bedazorlar va gulzorlar kirgan. Har ikkala muhitning maydoni nisbatan bir-biriga taxminan teng bo'lgan. Yopiq va ochiq muhitda yashil maydonlar bir-biridan landshafti, havosining musaffoligi, namligi va issiqligiga qarab farq qilgan: yopiq yashil muhitda havo issiqligi sezilarli ravishda past, nisbatan nam, ochiq yashil muhitda esa aksincha bo'lgan. Har ikkala muhit mikro-iqlimi orasidagi ushbu farq tufayli bog'da yozning jazirama issiq kunlari yengil shabada to'liqini sezilib turgan. Ushbu samara chorbog' uslubidagi Movarounnahr bog'lariga xos bo'lib, sersoya suv havzalari atrofidagi chorpovalarda yanada sezilarli va zavqli bo'lgan.

Temuriylar qurdirgan ayrim bog'larda (jumladan, «Bog'i Davlatobod», «Bog'i Behisht», «Bog'i Chinor») saroylar baland tabiiy yoki sun'iy tepaliklar ustida qurilgan bo'lib, ular bog'ning turli tomonlaridan, ayniqsa, ularga eltuvchi xiyobonlardan yaqqol ko'zga tashlanib turgan. Go'zal saroylar qurilgan tepaliklar yoniga ushbu saroylarning aksi tushib turuvchi sun'iy suv havzalari ishlanib, ular gir aylana keng ariq yoki hovuz favvoralar tarzida bo'lgan. Bu kabi me'moriy uslublar bog'ni yanada go'zal va tarovatli qilgan, dam oluvchilar dilini zavq-shavqqa to'ldirgan.


Temur va temuriylar davri tarixiy bog'larining me'moriy-rejaviy va landshaft yechimlariga xos asosiy tamoyillar quyidagi jadvalda keltirilgan (jadvalga q.).

Movarounnahr bog'lari va shaharlariga suv yetkazib berish maqsadida bu o'lkada qadimdan kanallar, to'g'onlar va tarnov-akveduklar qurish tajribalari mavjud bo'lgan. Samarqandda antik davrda «Arziz» akvedukidan foydalanilganligi tarixiy haqiqatdir. Bu o'lkada suv ta'minoti inshootlarini qurish o'rta asrlarda keng rivoj topgan. Tog'li tumanlarda akveduklardan ko'priklar o'rnida ham foydalanilgan. Bundan tashqari, daryolarga alohida ko'priklar ham qurilgan bo'lib, ularning me'moriy kompozitsiyasini yaratishda atrof-muhit landshafti va tabiati e'tiborga olingan.

T/r	Bog'larning me'moriy-rejaviy va landshaft yechimlariga xos tamoyillar	Yechimlarning chizmalarda ifodalanishi	Yechimlarning amaliy mohiyati va samarasi
1	Bog' hududini atrof-muhitdan darvoza va to'siq orqali ajratish		Bog' hududiga to'liq egalik qilish va unda xolisona, jannatmakon me'moriy muhit yaratish imkoniyatining mavjudligi
2	Bog'larning me'moriy-rejaviy va landshaft yechimini joy relyefiga mos tarzda shakllantirish: tekis hududlarda muntazam rejali simmetrik kompozitsiyali bog'lar yaratish; qiya-lıklarda muntazam rejani erkin tabiat ko'rinishidagi rejaviy yechimlar bilan bog'lash va bog' hududini pog'onalarga bo'lib chiqish		Bog'ni tashkil qilishda joy relyefini e'tiborga olish, bog' hududini tejamli va tezkor sug'orish, bog'da tabiiy landshaft manzaralarini saqlab qolish imkoniyatlarining yaratilishi
3	Har ikkala rejaviy yechimda muntazam tartibli simmetrik chorbog', chorchaman, xiyobon va chorchinor kompozitsiyalarini qo'llash, notekis bog' hududini pog'onalarga bo'lib tekislash		Bog'ning landshaft yechimida muntazamlik va o'ziga xos orastalik tartibining yaratilishi, bog' manzarasini tomosha qilish va ochiq-muhitli fazoviy landshaft kompozitsiyasini yaratish imkonining tug'ilishi
4	Bog'larni ko'kalamzorlashtirishda manzarali va mevali daraxtlarni qo'llash, me'moriy bog'ni xo'jalik bog'i bilan muvofiq-lashtirish, sug'orish shoxobchalarining muntazam va tejamli tartibini belgilash		Bog' landshafti fayzi-ning oshishi, uni nafaqat me'moriy istirohat bog'i tarzida, balki undan xo'jalik maqsadlarida ham foydalanish imkoniyatining yaratilishi

5	Bog'lardagi «yashil dunyoni» «suv dunyosi» va «hayvonot dunyosi» bilan uyg'unlashtirish, har bir dunyoning ekzotik turlari va shakllaridan foydalanish		Bog' landshafti muhitining manzarasi, biologik va ekologik uyg'unligining oshishi, bog' muhitiga tabiiy go'zallik va orastalikning baxshida etilishi
6	Bog'ning bosh binosi (saroy yoki ko'shk)ni tabiiy yoki sun'iy ishlangan tagkursi, platforma yoki stilobatga joylashtirish		Bog' bosh binosining salobati va mahobatining oshishi, landshaft muhiti bilan sun'iy uyg'unlashishi. Me'moriy shaklning yaxlitligi va unga urg'u berilishi
7	Bog' xiyobonlarining boshi va oxiri, kesishgan joylarini go'zal me'moriy kompozitsiyalar (hovuz, favvora, ko'shk, voish va sh.k.) bilan bezash		Yo'laklarning boshi va oxiri, xiyobonlar kesishgan joylar me'moriy yechimlari sifatining yaxshilanishi, ularning landshaft kompozitsiyalari va mo'jaz me'moriy shakllar bilan boyitilishi
8	Xiyobonlarni quyosh nurini e'tiborga olib ufq tomonlariga mos holda ko'kalmazlashtirish va ko'proq soyali muhitlarni tashkil qilish		Xiyobonlar mikroiklimining yaxshilanishi, soya-salqinning ta'minlanishiga erishish


Sharqning boshqa mamlakatlari kabi Movarounnahrda ham o'rtasrlarda shahar markaziy maydonlari, me'moriy ansambllar va guzar markazlarini shakllantirishga hamda ularning me'moriy landshaft yechimiga katta e'tibor berilgan. Samarqanddagi Registon, Abdu Darun, Abdu Berun, Qo'sh-Hovuz, Al-uxoriy, shuningdek, Buxorodagi Labi-Hovuz, Minorai Kalon maydonlari fikrimizning dalilidir. Odatda bunday maydonlar kattaroq hovuz, minora, qayrag'och, chinor yoki majnuntol daraxti va gulzorlar bilan bezalgan (79–84-rasmlar).




79-rasm. Buxoro. Bolo-Hovuz masjidi oldidagi maydon landshafti.




80-rasm. Buxoro. Minorai Kalon ansamblining landshaft yechimi.




81-rasm. Samarqand. Registon maydonining landshaft yechimi.



82-rasm. Samarqand. Registon maydoni atrofida bog'-parklar.



83-rasm. Xo'ja Abdu Darun maqbarasi oldidagi hovuz.




84-rasm. Ismoil Al-Buxoriy majmuasining ichki hovlisi.

Movarounnahr shaharlaridagi har bir hovli va guzarlarda hovuz bo'lib, uning to'rt burchagiga kamida to'rt tup gujum, majnuntol yoki tut ekilgan. Yozning jazirama issiq kunlarida bu daraxtlardan tushgan soya va tarqalayotgan toza havo va salqin shabada insonga huzur bag'ishlagan. Hovuz qirg'oqlariga esa ko'pincha «iyir» deb nomlangan dorivor o't ekilgan. Iyir ekilgan hovuzlarda suvning sifati uzoq vaqt yaxshi saqlangan, chunki uning ildizi suvni buzilishdan asragan.

Shunday qilib, Movarounnahrning o'rta asrlar davri bu mintaqada bog'-park san'atining yuksalib rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib berdi. Bu davrda jadal va uzviy rivojlanib borayotgan bog'-park san'ati o'z kompozitsiyasidagi ko'plab qadimiy uslublarni qayta tikladi. Bulardan biri — Movarounnahrning eng mashhur kompozitsiyasi, Eron madaniyati jarayonida vujudga kelib, o'z boshlanishini miloddan avvalgi II asr oxirlaridan olgan «chorbog'» uslubidir. «Chorbog'» tajribasini Temuriylar Movarounnahrda qayta tiklab, keyingi asrlarda Afg'oniston, Hindiston va bir qator Sharq islom mamlakatlarida rivojlantirdilar.

Temuriylar bunyod etgan bog'larda simmetrik markaziy kompozitsiyali, bosh o'q bo'ylab yo'nalgan «chorbog'» tizimi to'laligicha



85-rasm. Muntazam, simmetrik rejada qurilgan chorbog'.
Toj Mahal maqbara bog'-saroyining rejasi.

qayta tiklandi. U o'rta asrlardagi Movarounnahrning Amir Temur ta'sirida bo'lgan bir qator O'rta Osiyo davlatlarining bog'-park san'atining ajralmas qismi bo'lib qoldi. Keyingi davrlarda bu uslub Temur va Temuriylarni «chorbog'»ning asoschilari va homiylari sifatida butun dunyo landshaft arxitekturasi va bog'-park san'atiga tanitdi.

Shundan keyin ispaniyaliklar Temuriylardan «chorbog'» tarhini o'rganib, u bilan o'z navbatida italiyaliklarni tanishtirdi. Italiyada ham simmetrik markaziy kompozitsiyali «chorbog'» («muntazam» bog'lar) jadal rivojlana boshladi. Xurmo, anor, jasmin daraxtlari va ko'plab sabzavotlar madaniylashtirildi. Italiya esa o'zining mashhur Uyg'onish davrida bu landshaft kompozitsiyasini va o'rta asr Movarounnahr tajribasini Yevropaning turli mintaqaviy maktablariga yetkazdi (85-rasm).

Bu xulosadan kelib chiqib, shuni aytish mumkin, «Temuriylar bog'lari» ikki turga bo'lingan:

- birinchi tur – simmetrik reja asosida to'g'ri handasaviy shakllardan tuzilgan tartibli, muntazam ko'rinishdagi modulli bog'lar;
- ikkinchi tur – jonli tabiat manzaralaridan tashkil topgan tabiiy erkin ko'rinishdagi peyzajli bog'lar.

Temur va Temuriylar bunyod etgan bog'larning ko'pchiligi birinchi xil ko'rinishdagi bog'lardan tashkil topib, ularning tuzilishi an'anaviy «chorbog'» tartibiga bo'ysundirilgan. «Chorbog'»lar rejasi asosan

to'g'ri to'rtburchak yoki kvadrat shaklida atrof chetdan devorlar bilan o'ralgan, to'rt va undan ko'p qismdan iborat bog'lar bo'lgan. Ularning o'rtasidagi saroyga boriladigan xiyobonlar, odatda chorbog' maydonini simmetriya yoki shunga yaqin ko'rinishda joylashgan birtalay to'rtburchak «chorchaman»larga bo'lgan.

«Chorbog'»lardagi xiyobonlar bosh yo'l va sayrgoh yo'laklarining ikki tarafiga quyosh yo'nalishiga qarab soyabon daraxtlar va mavsumiy gullar ekib tashkil etilgan. Xiyobonlar daraxt va o'simliklarning ekilish tartibiga qarab «ochiq» yoki «yopiq» ko'rinishlarda bo'lgan. Ochiq xiyobonlarda daraxt shoxlari bir-biriga qo'shib ketmagan. Yopiq xiyobonlarda esa, aksincha, daraxtlar o'sib yo'lak ustini yuqoridan yopib olgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, quyoshning harakatiga qarab, daraxtlar u yoki bu ko'rinishdagi xiyobonlar shaklida ekilgan. Bunday usul xiyobonlar muhitini kun davomida soya-salqin saqlash imkonini bergan.

Bog'lar ichida ham ikki xil manzarali muhit: sersoya «yopiq» va soyasiz «ochiq» yashil muhitni kuzatish mumkin bo'lgan. Yopiq yashil muhitga, odatda, sersoya xiyobonlar, yo'laklar, hovuz va supa atroflari kirsa, ochiq yashil muhitga maysazor, bedazorlar va gulzorlar kirgan. Har ikkala muhitning maydoni nisbatan bir-biriga taxminan teng bo'lgan. Yopiq va ochiq muhitda yashil maydonlar bir-biridan landshafti, havosining musaffoliga, namligi va issiqligiga qarab farq qilgan: yopiq yashil muhitda havo issiqligi sezilarli ravishda past, nisbatan nam, ochiq yashil muhitda esa aksincha bo'lgan. Har ikkala muhit mikroiklimi orasidagi ushbu farq tufayli bog'da yozning jazirama issiq kunlari yengil shabada to'liqini sezilib turgan.

2.3. Eronning o'rta asrlar bog'-park san'ati

Sharq xalqlarining o'rta asrlardagi landshaft arxitekturasi, asosan, o'sha davrda yaratilgan bog'lar orqali ifodalangan. Sharq mamlakatlari bog'larini shartli tarzda ikkita yirik guruhga ajratish mumkin:

— birinchi guruh bog'lari musulmon sharqi mamlakatlariga xos bo'lsa;

— ikkinchi guruh bog'lari buddizm tarqalgan Uzoq Sharq mamlakatlariga mansubdir.

Bog'lar san'atning boshqa turlariga nisbatan insonning ichki dunyo-qarashini, tafakkur doirasini, uning tabiatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabat falsafasini ravshanroq ifodalaydi, desak xato qilmaymiz.

Ma'lumki, Sharq xalqlarining, xususan Eronning eng qadimgi dunyoqarashlaridan biri — bu «Chor unsur» falsafasidir. Bu falsafa yuqoridagi bo'limda ta'kidlanganimizdek, olamning va undagi barcha mavjudotlarning to'rt unsur: o'simlik, suv, nur va havodan tashkil topganligini e'tirof etadi. Ayni paytda, u olamni to'rt tomondan chegaralangan hamda zamin (yer) va osmondan tuzilgan, deb biladi. Islom ma'naviyati ham ushbu falsafadan holi emas. Ya'ni Islomdagi «jannat» — bu bog'lar ramzi hisoblanib, u falakning to'rt tarafidan devor bilan ajratilgan holisona bog'dir. U shunday bir mo'jizaki, unda markazdagi «jannat bulog'i»dan chiqayotgan suv to'rt tarafdagi taralib, jannat ariqlarini, ariqlar esa jannat bog'larini tashkil qilgan. Jannat ariqlari kesishgan markazda Eram ko'shki joylashgan. Shu boisdan, Islomdagi ideal bog' to'rt tarafdin devor bilan chegaralangan, markazida ko'shk va «jannat bulog'i» joylashgan, mevali va manzarali daraxt-butalarga, gul-maysalarga, suv va soyalarga boy sayrgoh istirohat bog'idir.

Boshqa mamlakatlardagi kabi Ero'nda ham eng go'zal bog'lar hukmdorlar sinfiga tegishli bo'lgan. Eron shaharlaridagi bog'larning kompozitsiyasiga xos an'anaviylik, bu avvalambor, ularning muntazam simmetrik rejada ishlanganligidir. Muntazamlikni yuqorida eslatilgan «Chor unsur» falsafasi va bog' o'simliklarini tejamkorlik bilan sug'orish zaruratidan kelib chiquvchi «chorbog'» uslubi tashkil qilgan. «Chorbog'» uslubidagi bog' rejasi bir yoki bir necha kvadratlardan tuzilgan. Katta kvadrat to'rtta kichik kvadratlar — «chorchamanlarga», ular ham o'z navbatida yana mayda kvadratchalar — «chamanlar»ga bo'lingan. Bu bo'linmalar bog' yo'laklari va xiyobonlari, bog'ni sug'orish tizimiga kirgan ariqlar va hovuzlar yordamida hosil qilingan. Chorbog' yoki chorchamanlarning markazida bog' havosining namligini oshiruvchi favvoralar yoki mo'jaz favvorachalari bo'lgan hovuzlar joylashgan. Nozik tizginli favvoralar, yarqiroq marmar ariqlardan sokin shildirab oqqan suvlar o'ziga xos mo'tadil bog' muhitini yaratgan. Manzarali va mevali daraxtlar, xushbo'y hidli chaman gullar, hovuzlardagi o'rdak-g'ozlar, bog'dagi tovuqlar, go'zal ohular bog'ni yanada maftunkor etgan.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, jumladan, Eron bog'laridagi alohida e'tiborga loyiq jihat — bu suvga bo'lgan munosabatdir. Ayniqsa, iqlimi issiq serquyosh musulmon mamlakatlarining bog'lari suvga o'ta ehtiyotkorlik va tejamkorlik munosabatida shakllanganki, issiq va quruq iqlim sharoitida bog'larning barpo etilishi asosan ana shu suvga bog'liq

bo'lgan. Nafaqat bog'ning, balki bu o'lkalarda insonlar hayoti ham ko'p jihatdan suvga bog'liq. Issiq iqlimli arab mamlakatlari va Eron, Afg'oniston, Hindiston, O'rta Osiyo mamlakatlarida suv va bog' insonlarga huzur-halovat va baxt keltirgan: Asrlar davomida insonlar bog'ni avaylab, xazinadek saqlab kelganlar. Shuning uchun ham Ispaniyadan tortib, to Hindixitoygacha keng tarqalgan islom bog'larining tuzilishi, kompozitsiyasi va shakl-u shamoyili haqidagi ma'lumotlar bizgacha yaxshi saqlanib qolgan.

1502-yilda Ismoil I Safoviylar sulolasiga asos soladi. Bu Eron uchun katta ahamiyatga molik voqea bo'ldi. Safoviylar kelib chiqishi bilan Eroniy (pers)larga mansub bo'lgan. Ularning hukmdorligida o'tgan 200 yilni Eronning uyg'onish davri deb atash mumkin. Bu suloladan bo'lgan hukmdorlar hamisha rassom va me'morlarga homiylik ko'rsatganlar.

O'z vaqtida Hindistondan quvg'in qilingan Humoyun ham Taxmaspa I saroyida boshpana topgan. Shoh Taxmaspa davlatining poytaxti bo'lmish Tabriz yirik madaniyat markazi tarzida dong taratgan. O'z zamonasining yetakchi ilg'or rassomlari bo'lgan Mirak va Sulton Muhammadlar ham shu yerda yashab ijod qilganlar. Ular miniaturalar bilan bezatgan Nizomiyning qo'lyozmalari hozirgi kunda Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Xuddi shu davrda boshqa bir qator klassiklarning asarlariga ham miniaturalar ishlangani ma'lum; bu asarlarning jildlari bog'lar tasvirlari bilan bezatilgan.

Eronliklarning gullarga bo'lgan muhabbati qadimdan beri so'nmay kelmoqda. Hozirgi kunlarda ham ular ishtiyoq bilan bog'lar barpo qiladi, ayniqsa daryo va buloqlar ko'p bo'lgan mamlakatning shimolida bu mashg'ulot bilan ko'proq shug'ullanadilar. Bu yerda bog'i bo'lmagan uyni uchratish mumkin emas. Hatto oddiy odamlar ham o'z hovlilarini atirgullar, lolalar va tirmoqgullar bilan bezatishadi. Kunduzlari xonadon egalari tez-tez bog'da yig'ilib, bir piyola choy davrasida suhbat qurishadi. Badavlat kishilarning, bog'larida odatda, atrofiga gul butalar o'tqazilgan ko'l bo'ladi. Ayrim hollarda bu ko'llarda oltin baliqlar urchitib, boqiladi.

Eronliklar hamma gullardan ko'ra atirgulni afzal ko'radilar va uning ko'p turlarini o'stiradilar. Balki Eronliklarning birinchi atirgullari bu ajoyib, qat-qat, seryaproq, sariq rangli, muskus hidli Rosa nemispherica bo'lgandir. Eronning Negariston bog'ida uchratish mumkin bo'lgan eglapteriya atirgul daraxtining bo'yi 20 fut (1 fut = 30,48 sm), tanasining aylanasi 2 fut keladi. Bu albatta dunyoning boshqa hech

qayerida uchramaydigan noyob mo'jizadir. Eronliklar shu jumladan binafsha, lolaqizg'aldoq, gulxayri va nargis gullarini ham xush ko'rishadi. Hozirgi kunda bu yerda Yevropada o'sadigan bir yillik gullarning hamma turlarini uchratish mumkin. Eron shohi Ismoil shoh ham bog'larning simmetrik kompozitsiyalik yechimiga katta e'tibor bergan.



Eronda «chorbog'»larning ikki turi: ichkari hovli hajmida va hovli-dan tashqarida, ya'ni «ichkari» va «tashqari» turlari mavjud bo'lgan. Eronliklarning eng sevimli daraxtlaridan biri sarv daraxtidir. Yana ular oq terak, olxo'ri daraxti, bodom (acacta planifrons) daraxtlarini xush ko'rganlar. Kanallar bo'ylariga esa majnuntollar ko'plab ekilgan. Bog'larda yana chinor, qayin, eman, qayrag'och, jo'ka (lipa), pista, yong'oq, kashtan, mirt daraxtlari o'sgan. Mevali daraxtlardan apelsin, limon, bodom, olxo'ri, gilos, shaftoli, o'rik, anjir va anorni aytish mumkin.

Eronda «Meydan-e-Arak» deb nom qozongan bog' o'ziga xosdir. Bu bog'da shoirlardan Saadiy Hofiziy va Firdavsiylarning nomlari bir yillik gullardan ekib yozilgan. Gul-to'plari shunchalik jozibali go'zalki, ularni bemalol gilam naqshlari uchun nusxa qilib ishlatish mumkin.

Ma'lumki, Shoh Abbos (1587–1629) hukmdorligi davrida Eron gullab yashnaydi. Shoh homiylik ko'rsatgan gilamdo'zlik juda rivoj topadi va o'sha davr gilamdo'zlari yaratgan asarlar hozir ham dunyoda tengi yo'q namunalar hisoblanadi. Ayrim gilamlarda zo'r mahorat bilan bajarilgan atirgullar, nilufar, qizg'aldoq va lolalarni uchratamiz.

Shoh Abbos davrida Kaspiy bo'yidagi Mazan-Daron o'lkasida Amol, Barfurush, Sari, Faraxobod, Ashraf va Safnabod shaharlarida juda ko'p bog'lar barpo etilgan. Amoldagi bog' o'zining juda baland sarv daraxtlari bilan mashhur bo'lgan. Shoh Abbos har yili 21-martda nishonlanadigan Eronning yangi yil marosimlarini Mazan-Darondagi bog'da o'tkazgan. Bu bayram bahorda shaftoli, gilos, olxo'ri daraxtlari ayni gullagan paytga to'g'ri keladi. Eron shohi Shoh Abbos XVI–XVII asrlarda poytaxt Isfaxonni obodonlashtirish va ko'kalamzorlash-tirish maqsadida ulkan «Maydoni-Shoh» xiyobonini tashkil etadi. Uning atrofini go'zal imoratlar bilan bezab, yashil ko'kalamzorlar, xiyobonlar, soyabonlar bunyod ettiradi (86-rasm).

Maydoni-Shoh XVII asrda qurilgan eng diqqatga sazovor an-samblardan biri bo'lib, Isfaxonda joylashgan juda katta, tomonlarining uzunligi 512×150 m keladigan ulkan maydondir. Maydon atrofida



86-rasm. Maydoni Shohning ko‘rinishi. Dominanta rolidagi muntazam rejali «chorbog‘» va Shoh masjidi.

janubda Shoh masjidi (1612–1638), sharqda Lutfulla masjidi (1602–1618), g‘arbda Ali-Kapu (Baland darvoza) saroyi va shimolda musiqa-chilar uchun qurilgan nog‘oraxona minbari joylashgan. Maydon Shoh Abbos hukmdorligi davrida qurib bitkazilgan, muntazam rejali ulkan ochiq ko‘kalmazor hududni tashkil qiladi. U hovli muhitida shakllangan va «ichki bog‘lar» jumlasiga kiradi. Maydon atrofi zanjirqator do‘kon ravoqlari bilan chegaralangan. Ravoqlar oldida soyali daraxtlar ekilib, sug‘orish uchun ariq o‘tkazilgan. Maydon yuzi tekis maysazor bilan qoplangan, u milliy marosimlar, tantanalar o‘tkazishga va chavgon o‘yiniga mo‘ljallangan.

Bog'da atrofidan katta kanal oqib o'tgan keng maydon chavgon o'yinlari uchun xizmat qilgan. Ali-Kapuning ayvonidan maydonda bo'layotgan chavgon o'yinlari va marosimlarni kuzatish juda qulay bo'lib, faqat shoh va uning oilasigina bayramlarda bundan foydalanishgan. Ali-Kapuda davlat qa'bul ma'rosimlari va sud ishlari olib borilgan.


Maydoni Shohni bunyod etish tajribasi o'rta asr Eron me'morlari va shaharsozlariga Isfaxonning quruq issiq iqlimi sharoitida an'anaviy «chorbog'» uslubidan keng ko'lamda foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Natijada maydondan yarim kilometr g'arb tomonda shaharning yangi bosh xiyoboni va istirohat bog'i — «Shahar-bog'» bunyod etilib, u o'zining g'aroyib bog' saroylari va muntazam sayrgohlari bilan Maydoni-Shohga Ali-Kapu orqali tutashtirilgan (87-rasm).

Chexel-Suton, Xasht-Bexisht va Talar-Ashraf kabi go'zal saroylarga ega bo'lgan «Shahar-bog'» xiyobonlariga sakkiz qator chinor, tol va jasminlar ekilib, favvoralar, hovuzlar, kanallar va gulzorlar bilan bezalgan uchta keng sayrgohlar tashkil etilgan (88-, 89-rasmlar).


Shahar-bog' bosh xiyoboni o'qi bo'ylab o'tkazilgan kanalning har 300 metrda hovuzlar joylashgan. Bosh xiyobon «choxarbog'» esa janubga Zanderud daryosi tomon 1650 metrga cho'zilib, keyin yana shahardan 3 km tashqaridagi Xazori Jerib bog'lariga qo'shilib ketgan. Shahar-bog' va Maydoni-Shoh O'rta Sharq o'rta asr xalqlarining shaharsozlik, landshaft arxitekturasi va, xususan, bog'-park san'ati bobida qo'lga kiritgan ilg'or tajribalarining Erondagi eng go'zal namunalaridan hisoblanadi.

Bog'-istirohatchilik amaliyoti Sharqda muqaddas san'at darajasigacha ko'tarilgan. Bog'larning soyali daraxtlari, gulzorlari, hovuzlari va zilol oqar suvlari go'yo jannatni ifodalaydi.

Yuqorida aytilgan ikkala turdagi bog'lar ham Eron shaharlari bog'lariga «chorbog'» uslubiga asoslangan qat'iy muntazam tartib, simmetriya va uyg'unlikka ega bo'lgan Shahar-bog' misolida «Chorbog'-xiyobon» tizimiga aylanib ketgan. Bu esa Eron chorbog'larining uchinchi turidir. To'g'ri burchaklar asosida qurilgan chorbog'-xiyobonning markaziy o'qida bosh va yonbosh xiyobonlar kesishgan, markazda bog' saroyi va hovuz joylashgan (89-rasm). Aksariyat Eron bog'laridagi saroylar Shahar-bog' va Maydoni-Shoh saroylari kabi sun'iy tepalik ustiga qurilgan, chortaraf esa zilol suvga to'la keng kanallar bilan chegaralangan. Kanallar va hovuzlardagi favvoralardan suv tizgini otilib turgan.





a. Ali-Kapu — «Maydoni-Shoh» kompleksining asosiy binolaridan biri.




b. Isfaxon. «Shahar-bog'» istirohat bog'iga tutashtirilgan Maydoni-Shoh xiyobonining maketi. Bog' kompozitsiyasi simmetrik, to'rtburchak shaklda bo'lib, markaziy o'q bo'ylab yo'naltirilgan.

87-rasm.



88-rasm. Isfaxon. «Shahar-bogʻ» kompleksining bogʻ-saroylari.





89-rasm.

Hovuzlarga atrofdagi saroy ustunlari va daraxtlarning aksi tushib turgan. Hovuzlar shakli turlicha: kvadrat va to'g'ri to'rtburchakdan xoch shakligacha, olti va sakkiz qirradan murakkab gulchanoqqacha ko'rinishlarda ishlangan. Qiyalikda joylashgan bog'lar sathi pog'onalarga bo'linib, suv yuqoridan pastga bosh xiyobon markazidan o'tgan o'q ariqlardan sharshara bo'lib oqqan. Ularga qo'shilib ketgan hovuzlar va kanallar marmardan, zinalar esa toshdan ishlanib, ayrim hollarda, asosiy hovuzlar moviy rangli koshinlar bilan pardoziangan.

Bosh xiyobonlar va sayrgohlar bilan chegaralangan bog' hududi to'g'riburchakli kichik sahnlariga bo'linib, ularning har biriga alohida turdagi mevali (o'rik, anor, pista, bodom, anjir, olcha, olxo'ri, uzum va sh.k.) daraxtlar ekilgan. Xiyobonlar bo'ylab soya beruvchi tol, chinor kabi manzarali daraxtlar qatorlab ekilgan. Daraxtlar orasidagi ochiq joylarga esa gullar (binafsha, nargis, lola, gulxayrilar) ekilgan (90-, 91-rasmlar). Daraxtlar ichida alohida e'tiborlisi sarv hisoblansa, gullar ichida atirgul e'zozlangan.





90-rasm.



91-rasm.

Funksional nuqtayi nazardan qaraganda bu bog‘-u saroylar shoirlar bazmi, faylasuf va diplomatlar bilan uchrashuvlar o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda hukmdorlar uchun gohida xilvatga chekinib, yolg‘izlikda orom olishlari mumkin bo‘lgan alohida tinch va sokin burchaklar tashkil qilingan. Bu simmetrik markaziy kompozitsiyali, «chorbog‘» yo‘nalishida, «ichkari» bog‘ turidagi, hovli muhitida rivojlangan bog‘lardir. «Chorbog‘» bag‘rida sayr qilib yurgan tovuqlar, «chorchaman»ning suv havzalarida suzib yurgan o‘rdak va oq qushlar



92-rasm. Dengiz sohilidagi pog'onalar va sharsharalar tizimini shakllantirgan pog'onali bog'-saroylarning hozirgi ko'rinishi.

inson tabiatiga ruhiy ta'sir qilib, tinchlantiradi, kayfiyatini ko'taradi. Masjid va madrasalar qoshidagi bog'lar esa uzoq yaqindan kelgan ziyoratchilarning hordiq chiqarishlariga mo'ljallangan.

XVII–XVIII asr Eron bog'-parklari ichidan Isfaxon shahri yonidagi Zanderud daryosi bo'yida bunyod etilgan Xazori Jerib istirohat bog'i va Kaspiy dengizi sohilida qad ko'targan Ashraf bog'lari va bog'-saroylarini ham eslab o'tish zarur. Ashraf bog'lari bir necha bog' va

bog'-saroylardan tarkib topib, ulardan asosiylari — Bog'i-shoh, Bog'i-chashma va Bog'i-sohibzamonlar dengiz-sohili qiyaliklarida joylashib, o'ziga xos pog'onalar va sharsharalar tizimini tashkil etgan. Bunday yechim Eron bog'larining antiqa fazoviy-hajmiy shakllanishining yorqin misoli bo'lib, pog'onali «mo'jaz» bog'lar qatoridan o'rin olgan.


Isfaxon shahri atrofida kanallar bilan sug'oriladigan mevali bog'lar — «bo'ston»lar ham ko'p bo'lib, ularda shaftoli, bodom va behi o'stirilgan. Shoh Abbos davrida Kaspiyga yaqin Mozondaron viloyatining Amol, Barfurush, Faraxobod, Ashraf va Safnobod shaharlarida ham, yuqorida eslatilgan bog'lar kabi, ko'plab «pog'onali bog'lar» qurilgan (92-rasm). Amoldagi bog' ulkan kiparislari bilan mashhur bo'lgan. Bu kabi antiqa bog'lar Eronning yana ko'plab shaharlarida barpo qilingan. Kashon shahridagi bog'lar ham shunday bog'lar bo'lib, o'ziga e'tiborni qaratadi.

Kashon Isfaxon vohasining bosh shahri hisoblangan. XII—XIV asrlarda u yuqori sifatli sopol buyumlar, kulolchilik buyumlari va koshin, ya'ni koshin (plitka)lar ishlab chiqarish markaziga aylangan. Hozirgi Eron tilida «kashi» — «koshin» degan atama Kashon shahrining nomidan kelib chiqqan. Hovuzlar mana shu koshinlar bilan bezatilgan. Ispaniyadagi mashhur Algambra mavritan bog'ining qayta qurilishida ham shu koshinlar ishlatilgan. Kashonda yuz yillar mobaynida yahudiy diasporasi yashab kelgan (ularning ko'pchiligini Ispaniyadan quvilgan yahudiylar tashkil qilgan). Shu sababdan, ayrim kashonliklar sochining mallaligi, ko'zlarining yashil va ko'k rangi bilan ajralib turadilar. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Kashon Eron yahudiylarining madaniy markazi bo'lib, ayrim manbalarda Kashonni «kichik Ierusalim» deb ham atashgan.


Safoviy shohlari Kashonda hordiq chiqarishni xush ko'rishgan. Shu sababdan bo'lsa kerak u serfayz, bepayon bog'larga boy bo'lgan. Odatda qat'iy muntazam shaklga, markaziy simmetrik kompozitsiyaga ega bo'lgan yuqorida eslatilgan bog'lar kabi bu bog'lar ham «ichkari» va «tashqari» bog'larga bo'lingan. Ayniqsa Fin bog'i (Bog'i Fin) shunday kompozitsiya yechimi namunasida bo'lib, u hozirgi kunda ham Erondagi eng mashhur bog'lardan hisoblanadi. Bu ajoyib bog' ataylab Shoh Abbos I uchun qurilgan bo'lib, mevali daraxtlari, hovuzi bilan Eron an'analaridagi xayoliy jannatning mumtoz timsolidir. Bu yerlardagi birinchi bog'ga 7000 yil oldin Cheshme-ye Sulaymon bulog'i yonida asos solingan deyiladi. Kadjarlar hukmronligi davrida Safoviylar tomonidan bunyod etilgan me'moriy qurilishlarning ko'plari tubdan

almashtirilgan va qayta qurilgan. Ammo park landshafti, marmar kanallar va favvoralar joylashuvi boshlang'ich holatga juda yaqin. Bog'i-Fin ichki hovli hajmida shakllangan bo'lib, qat'iy simmetrik xarakterga ega, markazda dominanta rolidagi hovuz joylashgan. 1852-yilda Eronni boshqargan Nasriddin Shohning vaziri Amir-Kabir deb nom olgan Mirzo Tag'ixonning shu yerda o'ldirilishi bog'ning nomini salbiy shuhrat bilan tanitgan (93–97-rasmlar).

1778-yilda ro'y bergan zilzila Kashonni yakson qildi: Safoviy Shoh Abbas tomonidan qurilgan barcha imoratlar, bog'lar buzilib ketdi, 8000 kishi halok bo'ldi. Bugungi kunda bu bog' majmuasi – Eronning mashhur, diqqatga sazovor joylaridan biri bo'lishiga XVIII–XIX asrdagi juda ko'p hashamatli shaxsiy uylarning qayta tiklanishi asos bo'ldi. Quyida Kashonning diqqatga sazovor «ichki» va «tashqi» bog'-saroy majmualarining fotosuratlarini keltirilgan, bu yerda asosiy kompozitsiyaviy rol suv va suv sharsharalariga berilgan, ulardan ayrimlari pog'onasimon tarzda joylashgan. Bularning barchasi, avvalgilari kabi, qat'iy muntazam «chorbog'» uslubiga, markaziy simmetrik kompozitsiyaga asoslangan (98-, 99-rasmlar).




93-rasm. Kashondagi Bog'i Fin. Hovli muhitidagi «ichkari» bog' landshafti. Simmetrik kompozitsiya markazida joylashgan ulkan suv havzasi dominant rolni bajaradi.




94-rasm. Kashon. Bog'i Findagi «tashqari» bog' landshafti. Uzunchoq shakldagi suv havzasi kompozitsiyaning markaziga yo'naltirilgan.



95-rasm. Bog'i Fin. Suv havzasi ustiga qurilgan pavilyon. «Tashqari» bog' o'qining simmetrik markazida joylashgan.




96-rasm. Bog'i Fin. Suv havzasi «ichkari» bog' simmetrik kompozitsiyasi markazida dominant rolni bajargan.



97-rasm. Bog'i Fin. Ayvoncha-ko'shk markazidagi hovuz va «tashqari» bog' kompozitsiyasi markazidagi suv havzasi.



98-rasm. Kashon. Boruderji ichki (hovli) bog'ining ko'rinishi.



99-rasm. Kashondagi Tabatabayi hovli bog'i. Simmetriya va markaziy hovuz asosida shakllangan.


Bu bog'lar Eronda «Pers bog'lari» deb atalib, ular 9 ta Eron viloyatlari kabi 9 ta bog'ni o'z ichiga oladi va bu turkumdagi hovli bog'larining rang-barangligini aks ettiradi. Zamonlar o'tishi bilan ular o'zgarib, turli iqlim va boshqa sharoitlarga moslashib kelgan. Biroq ular yuqorida tilga olingan o'z ajdodlari hisoblangan buyuk Kir davrida (miloddan avvalgi VI asr) shakllangan «chorbog'» uslubini saqlab qolgan. Quyida fotolavhalarda Eronning simmetrik, markaziy kompozitsiyaga asoslangan bog'-saroy komplekslarining eng diqqatga sazovor namunalari keltirilgan (100–102-rasmlar).

Erondagi Sheroz shahri g'oyatda go'zal bo'lib, maftunkor me'moriy obidalarga boydir. Sherozning timsoli va boyligi uning bog'larida mujassamlashgan. Bog'lar asosan saroylar atrofida joylashgan bo'lib, ular bilan birgalikda ajoyib sharqona ertakning u yer-bu yerda sochilib ketgan varaqlariga o'xshab, sayyohlar uchun juda qiziqarlidir. Eng maftunkor va sayohatchilar gavjum bo'ladigan bog' — bu «Bog'i Eram», ya'ni «Jannat bog'i»dir. Bog' ichida atrofi suv bilan o'ralgan juda chiroyli saroy joylashgan. Bog' botanik bog' bo'lgani bois unda faqat sayr qilibgina qolmay, balki mahalliy o'simliklarni o'rganish ham mumkin.

Eronning boshqa shaharlariga nisbatan Sherozda diqqatga sazovor bo'lgan me'moriy bog'lar soni ancha ko'p. Balki ular Isfaxondagi bog'lardan ham ko'proqdir. Chunki Sheroz ham ko'p yillar davomida Eronning poytaxti bo'lgan. Mahalliy sherozliklarning aytishicha, «dunyoga mashhur Isfaxon diniy yodgorliklar shahri bo'lsa, Sheroz Eron tarixining shahridir». Ko'pchilik uchun bu yer, birinchi navbatda, Eron mumtoz she'riyatining yorqin namoyondasi Hofiz Sheroziy (1324–1391) dafn qilingan joydir (103-rasm). Uning qabri va ijodiga Eronda munosabat ayniqsa boshqachadir. Hofiz Sheroziy qabri tasvirining Eron fuqarolari pastportlarida tasvirlanganligi buning yaqqol dalilidir.

Hofiz Sheroziyning qabriga yaqin joyda yana bir mashhur shoir Saadi Sheroziy (1209–1291) maqbarasi joylashgan. Bu ikki manzil Eronning faxriy ramzlari hisoblanadi.



Haqiqatdan ham «Sherozning ajoyib bog'lari» iborasini idioma deb hisoblash mumkin. Shaharda bog'lar juda ko'p va turlicha: turar-joylar ichidagi mo'jaz gul bog'lardan tortib juda keng bog'-park ansambllarigacha davom etadi. Bularning barchasida Eron bog'lari uchun an'anaviy simmetrik markaziy kompozitsiion tuzilishga ega bo'lgan «ichki» (odatda, mo'jaz bog'lar) va «tashqi» (odatda, katta



100-rasm. Rasmlarda pog'onasimon simmetrik markaziy kompozitsiyaga asoslangan Eron bog'lari tasvirlangan. Bosh o'qda bog' ko'shki va sharsharalar joylashgan.




101-rasm. Eron. Simmetrik kompozitsiyali bog'. Kompozitsiya markazida uzunchoq shakldagi suv havzasi joylashgan.



102-rasm. O'rta asr Eron bog'larining saqlanib qolgan ko'rinishlari. Ularda simmetrik kompozitsiya yaqqol ko'zga tashlanadi.


bog'lar) yaqqol ko'zga tashlanadi. Yana bir bor eslab o'taylik: «Ichki bog'» bu binoning hovlisida joylashgan, asosan uzunchoq yoki kvadrat shaklda bo'lib, markaziy o'qi bo'ylab hovuz joylashgan. Hovuz bog' kompozitsiyasining markazini tashkil qilib, bog'-saroy majmuasida bosh binoga yo'naltiruvchi omil bo'lib hisoblanadi. Karimxon nomli bog'-kompleks shu turdagi bog'larga misol bo'la oladi (104–106-rasmlar).



103-rasm. Shoir Hofiz Sheroziy maqbarasi. Bog' kompozitsiyasining markazida dahma ustiga o'rnatilgan ayvon joylashgan.



104-rasm. Sheroz. Karimxon bog' kompleksining ichki ko'rinishi.




105-rasm. Karimxon bog' kompleksining tashqi devorlari.




106-rasm. Karimxon bog'ining devorlari Buxoro Arkining tashqi devorlariga o'xshab ketadi.

«Tashqi bog'»larda saroyning bosh binosi o'rtada joylashgan bo'lib, unga asosiy hovuz borib taqaladi. Bog' oddiy paxsa devorlardan to jimjimador cho'yan to'siqlargacha bo'lgan turli bog'-devorlar bilan o'rab olingan va tashqaridan ark devorini eslatadi (107–109-rasmlar). «Ark» eroncha «qal'a, qo'rg'on» degan ma'noni anglatadi.




107-rasm. Sheroz. Saroy tashqarisidagi Naranjiston Kavam bog'i. «Tashqari bog'» simmetrik markaziy kompozitsiyaga asoslangan.




108-rasm. Naranjiston Kavam bog'i Sherozdagi eng qadimiy bog'lardan biri.



109-rasm. Sherozdagi Afifabad bog'ining landshafti.




110-rasm. Termizdagi bizgacha saqlanmagan bog' qal'asi.



111-rasm. Vaqil masjidining hovlisi daraxt va o'simliklar yo'qligi bilan ajralib turadi.

Karimxon me'moriy obidasi uning asoschisi nomi bilan atalgan. Karimxon Buxoro va Termezda bo'lganmi-yo'qmi — bu gumon, biroq uning me'morlari bu shaharlardagi arklardan namuna sifatida foydalanganlari aniq (105-, 106-, 110-rasmlar).

Sherozdagi Vaqil masjidiga qadam ranjida qilgan kishi hovli ichki hajmiy yechimiga yangicha yondashuvni ko'radi. Bu yerda ko'zimiz o'rganib qolgan hovlidagi daraxtlar, gulzorlar va boshqa o'simliklar o'rnini hovuz egallagan. Hovli o'rtasida baliqlar suzib yurgan hovuz, atrofda ayvonlar va nishalar joylashgan (111-rasm). Ayvonlar (2 ta janubiy va shimoliy) hashamatli va serjilo bezatilgan. Nishalar esa oddiy va odmi, umuman olganda naqsh islimiy va geometrik ornamentlardan iborat. Bog'lardagi o'simliklar bog'ning yo'qligini sezdirmoqchi emasday, naqshlardagi yorqin ranglarga ko'chganday tuyuladi.



112-rasm. Sherozdagi Bog'i Eram.

Sheroz yana atrofi suv bilan o'ralgan va qiyalikda joylashgan bog'lari bilan ham mashhurdir (112-rasm). Bunday bog'lar shaharning sharqiy tomonida Bog'i Eram, Bog'i Dilkusho, Bog'i Jannuma, Chaxil-Tan va Haft-Tan, shimoli-g'arbdagi Bog'i Taxt — yettita terrasadan iborat, g'arbda esa Bog'i Shayx va Rashki Bixishtlar joylashgan. Bu ro'yxatni davom ettirish mumkin. «Butun voha bog'larga ko'milgan, ayniqsa, ular yarqirab turgan Ko'hi Barf — qorli tog' cho'qqisi bag'ridagi tepaliklarning g'arbiy yonlarida juda ko'plab joylashgan», deb yozadi fransuz gugenoti Sharden.

Asli kasbi zargarlik bo'lgan Sharden bu davlatda 10 yil yashagan va uning sharofati bilan Yevropa o'rta asrlardagi Eron haqida keng ma'lumotga ega bo'lgan. «Sherozda jamoat bog'laridan ham ajoyibroq narsa yo'q, ularning soni 20 ta bo'lib, ularda dunyodagi eng katta daraxtlar: sarvlar, chinorlar, qarag'aylar yig'ilgan», deb yozgan u o'z kundaligida.

Bu davrda bir qator Eron shaharlarida, bog'lar bunyod etilib, ular ham Eronning yuqorida aytib o'tilgan bog'lari kabi an'anaviy «chorbog'» uslubida, simmetrik muntazam kompozitsiyalarda ishlangan. Bu bog'larda suv va soya yetakchi o'rinni egallagan, ularda aksariyat oila a'zolari dam olishgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Eronning o'rta asrlardagi bog'lari aksariyat istirohat bog'lari turkumiga mansub bo'lib, bu bog'lar «chorbog'» uslubiga asoslangan, ularda qat'iy muntazam tartib, simmetriya va uyg'unlik mavjud bo'lgan. Bunday bog'larda oilaviy bayramlar, shoirlar bazmi, faylasuf va diplomatlar bilan uchrashuvlar o'tkazilgan.

Bu yerda hukmdorlar dunyo tashvishlaridan chetda hordiq chiqarish imkoniyatiga ega bo'lganlar. O'rta asrlardagi Eronning diqqatga sazovor bog'lari haqida gap ketganda, xulosa qilib aytish mumkinki, g'oyat go'zal bu bog'-park san'ati yodgorliklari 2 turga bo'lingan:

— «hovli bog'lari», odatda bu uncha katta bo'lmagan mo'jaz ichki bog'lar bo'lib, bino kompleksidagi hovli ichida joylashgan, tarkibida mo'jazgina hovuz yoki favvora mavjud;

— «tashqi bog'lar», odatda katta bog'lar bo'lib, katta saroy binosining atrofida joylashgan, saroyga katta hovuz borib taqaladi, bog'ning atrofi yengil va nafis bog'-devor bilan o'raladi.

Bundan tashqari, atrofi keng suvlik bilan o'ralgan, tepalik qiyaliklarda joylashgan bog'lar ham Eronga xosdir. Relyefdagi bog'larning asosi qat'iy simmetriya, suv shalolasi, ikki tarafdin muntazam shakllangan ko'kalamzor maydonchalar mujassamligi ansamblning bosh o'qini tashkil etadi. Bosh o'q pog'onalar va sharsharalar tizimini shakllantirgan bo'lib, bog'larni antiqa fazoviy-hajmiy yechim bilan ta'minlagan. Eronning o'rta asrdagi bog'larida suvning tutgan o'rni ayniqsa katta. Bog'-park san'atida har qanday kompozitsion yechimlarda ham suvga muhim ahamiyat berilgan: hovli bog'larida to'rtburchak suv havzasi joylashib, kompozitsiya markazini tashkil etadi, «tashqi» bog'larda esa uzunchoq shakldagi suv havzasi tashqarida joylashib, asosiy saroy binosining oldidagi kompozitsiyaning markazi hisoblanadi.

Xuddi shunday, «tashqi» bog' kompleksi arxitekturasi kichik ko'l ko'rinishidagi hovuzchalar uchrab turadi, ular kompozitsiyaning markaziy o'qida joylashib, gohida suv purkovchi moslamalar bilan ta'minlangan.

Bog'ning umumiy kompozitsiyasida hovuz markaziy ahamiyatga ega bo'lib, saroy bog' kompleksida hovuzcha bosh binoga yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

O'rta asrlarda Eron ko'p o'zgarishlarni boshidan kechirgan bo'lishiga qaramay, biz o'rganayotgan davr davomida bog'-park san'ati o'zining asosiy konstruktiv an'analarini saqlab qoldi. Bular: muntazamlik, simmetriya o'qi, o'z boshlanishini asrlar qa'ridan olgan «chorbog'» uslubi. Ushbu me'moriy uslubning ijodiy kompozitsion xarakteristikasi undan keyingi asrlarda ham Sharq mamlakatlari bog'-park san'atining rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, an'anaviy tajriba va san'atning dolzarb qismi, ilg'or yo'nalishi bo'lib qoldi.



2.4. Turkiya va Kichik Osiyoning o'rta asrlardagi bog'-parklari

Islom madaniyati o'rta asrlarda Turkiya va Kichik Osiyoda o'ziga xos san'atni shakllantirgan. Boy tarixga ega bo'lgan Turk musulmon davlatining madaniy me'rosi bir necha ming yillarda shakllangan. Bog'-park san'ati o'ziga xos maftunkor, rang-barang muhit bilan sug'orilib, davr va din ta'sirida sayqal topgan.


XII–XIII asrlarda jamoat va diniy binolar yonlarida nozik did bilan bog'lar bunyod qilgan saljuqlar Turk bog'-park arxitekturasiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan. Turk-saljuqlar O'rta Osiyo ko'chmanchi o'g'uz urug'idan bo'lib, o'z nomini hukmronlik qilgan saljuqlar sulolasi nomidan olgan. XI asrda saljuqlar Eronni, Kavkaz xalqlarini, Iroqni va Kichik Osiyoning katta qismini zabt etib, bu zaminda mustaqil davlat tuzganlar.

Saljuqiy Rum sultonligining qudratli siyosati XII–XIII asrlar oxirida arxitektura va bezak san'atining ham sezilarli darajada gullab yashnashiga sabab bo'ldi. Shaharlar qurilishi jonlandi. Arxitektura va bezak san'ati rivojlanishi bilan birgalikda, ular bilan uzviy bog'liq bo'lgan bog'-park san'ati ham rivojlanib bordi.

Bu san'atning gullab yashnashi Rum sultonligining xalqlararo iqtisodiy va madaniy rishtalarining gurkirab rivojlangan davrida ro'y berdi. Saljuqiylarning XII–XIII asrlardagi bog'-park san'ati shu yerlik Kichik Osiyo xalqlari an'analarini o'ziga singdirib, qo'shni davlatlarning, ayniqsa, Kavkaz xalqlarining madaniyati ta'sirida o'sdi. Bizgacha yetib kelgan dastlabki bog'-park yodgorliklarida erkin bog'peyzaj uslubining rang-barang badiiy usullari uyg'unlashib ketganini tez-tez uchratamiz. Bu yo'nalishdagi saljuqiylar bog'-park arxitekturasiga va Kichik Osiyo bog'chilik san'atida o'ziga xos badiiy chizgilar, aniq stil uslublari o'z originalligi va yuqori saviyasi bilan e'tiborni tortadi (113-, 114-rasmlar).



113-rasm. Turkiya. Saljuqiy bogʻ-park arxitekturasidagi erkin rivojlangan peyzaj stilidagi uslublar.



114-rasm. Turkiya. Erkin rivojlangan peyzaj uslubidagi bogʻ va inshootlar. Bogʻ oʻrtasida ayvon joylashgan.

Turk bog'-saroy arxitekturasi o'rta asrlar davri uchun erkin kompozitsiyali bog' va bog' o'rtasida joylashgan ko'shk ko'rinishidagi saroylar xosdir. O'rta asrlarning so'nggi davri uchun (XV–XVI asr) esa ko'shk-ayvonlar o'rnida saroy, masjid yoki madrasalar joylashgan bog'lar xosdir (115-rasm). XVII asrgacha saqlanib qolgan «ko'shk» so'zi turk tilidan ko'p hollarda «kiosk» deb t'arjima qilinadi. Bu inshootni zinhor gazeta, har xil mayda-chuyda narsalar sotiladigan kiosk bilan adashtirish mumkin emas. Usmoniylarda uncha katta bo'lmagan ayvon (pavilyon), tantanalar o'tkazish uchun yoki qisqa vaqt yashash uchun mo'ljallangan inshoot «ko'shk» deb atalgan. Istambuldagi Topkapu saroyining «Chinnili pavilyon»ini «ko'shk»ning mumtoz namunasi desa bo'ladi (116-rasm).



Ushbu «ko'shk» interyerida asosan o'simlik elementlarini tasvirlovchi bezaklarga e'tibor ko'p qaratilgan. «Chinnili ko'shk» ayvonining aniq va qat'iy shakllarga ega bo'lgan ustunlari ortida jimjimador islamiy naqshlar, kalliografik yozuvlari bo'lgan keramik koshinli qoplamalar asosiy o'rinni egallaydi. Xona devorlariga bog' peyzajlari xuddi gilamday, oq fonda bir-biriga chirmashib ketgan yashil yoxud zangori o'simlik novdalarida qip-qizil lola va chinnigulli naqshlar chizilgan. Keng tarqalgan yana bir bezak usuli – koshinli pannoda daraxtlar, aksari hollarda sarv daraxti yoki guldondan o'sib chiqib, antiqa ekilgan gullarga burkangan shox va novdalar tasviri bo'lgan. Chiroyli naqshinkor panjaralar va marmardan o'yib bezatilgan favvoralar ustiga o'rnatilgan gumbazli ayvonlar Istanbulda va Turkiyaning boshqa shaharlarida ko'plab bunyod etilgan (117-, 118-rasmlar).

Kichik Osiyo bog' arxitekturasi san'atida saljuqiy quruvchilar o'z tuzilish shakllari bilan og'ir va zalvorli tashi devorlarni, gumbaz yopmali me'moriy qurilmalar – masjid va saroylarni, ularni o'rab turgan yoki atrofida joylashgan bog'larni bir-biriga o'zaro moslab yaratishga harakat qilganlar.


Ushbu bog'lar xuddi avvalgilari kabi erkin kompozitsiyalarda shakllangan. Me'morchilikda boy o'yima naqshlar bilan bezatilgan peshtoqlar, shuningdek, baland va nafis minoralar, bir-biriga geometrik shakllarda o'ralib ketgan naqshlar, o'simliklarning stillashgan naqshlari va yozuvlar katta rol o'ynadi. Bunday bog'lar suv qurilmalarining keng ko'lami buloqlar, suv havzalari, favvoralar, suv purkovchi moslamalar ko'rinishida ishtirok etishi bilan ajralib turadi (118–121-rasmlar).





115-rasm. Turkiya. O'rtasi asrlarning so'nggi davri bog'larida bog' o'rtasidagi ko'shk-ayvonlar o'rni saroy, masjid yoki madrasa egallagan.





116-rasm. Istanbul. Topkapu saroyidagi «Chinnili ko'shk».




117-rasm. «Bog'dod ko'shki». Yopiq ayvon. Devordagi koshindor panno va yozuvlar stillashgan o'simlik uslubida ishlangan.



118-rasm. Favvoralar va hovuzlar bilan bezatilgan bog'lar.



119-rasm. Istambuldagi Shah-Zoda masjidi. Uning atrofi peyzajli bog' bilan o'ralgan.



120-rasm. Masjidga aylantirilgan Ayya Sofiya cherkovi atrofidagi katta hovuz va erkin rejada shakllangan me'moriy bog' majmuasi.



121-rasm. XII-XIII asrlar bog'dorchilik san'atiga xos bo'lgan erkin kompozitsiyali «peyzaj»li bog'lar. Turk miniaturalaridan.

XIII asrda gullab yashnagan Konye shahri qalin qal'a devori bilan o'rab olinib, hunarmandlar kvartallariga bo'lingan, ularning ayrimlari bir-biridan devorlar orqali ajratilgan. Hozirda shahar markazida qarorgoh va sulton Alovuddin Qay Qubad I (1219–1236) qurdirgan saroy, masjid va madrasalarning xarobalari saqlanib qolgan. 1209–1210-yillarda barpo qilingan masjid binosi baland ustunli zaldan iborat bo'lib, atrofi keng yoyilgan bog' bilan o'ralgan. Bu masjidning bog'i ham erkin shaklda rivojlangan. Bog' park tizimida erkin ravishda joylashgan elementlarning, ya'ni suv havzasi qoldiqlari va boshqa suv muhandisligi qurilmalarining borligi buning isbotidir. Saljuq monumental saroy arxitekturasi uchun nafaqat erkin shaklda rivojlangan va madaniyat markazlariga aylangan bog'lar, balki Kichik Osiyoda yuqorida tilga olingan erkin kompozitsiyali suv havzasi, buloqlari bo'lgan, tabiat bokira ko'rinishlarini o'zida ifodalovchi komplekslar ham amalda keng qo'llanilgan.

Konyedagi ko'plab arxitektura yodgorliklarining an'anaviy arxitekturaviy kompozitsiyasi o'z ansambli tarkibida yovvoyi tabiat ko'rinishiga ega bo'lgan erkin kompozitsiyali bog'lar bilan o'ralgan masjid yoki madrasalardan iborat (122-rasm).

Bu bog' komplekslaridagi binolarning tashqi ko'rinishi yopiq hajmli, asosiy kirish qismi baland, monumental peshtoqli, peshtoq esa o'yma ornamentga boy bo'lgan.



Saroy komplekslari ichki hajmiy tizimiga ko'ra, kompozitsiya markazini ochiq to'rtburchak yoki kvadrat hovli tashkil qiladi. Bosh o'q bo'ylab 2 ta yoki 4 ta ayvon joylashib, ayvonlar arkalar bilan hovliga yuzlangan.

Konyedagi Sirgali madrasasi (1242-y.), Erzurumdagi Chifte Minar masjidi va boshqalar xuddi shundaykompozitsiyaga ega. Bunday ayvon qurilmalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – hovli perimetri bo'ylab qurilgan galereyalardir. Odatda, galereyalarning ustunlari arkalarni ko'tarib turadi. Bu masjidning eng nozik jihatlaridan biri – hovli yuzining kvadrat shaklida bo'lishligi va unda erkin shakllangan bog'ning mavjudligidir (123–125-rasmlar).


Bu hovli-bog' me'moriy kompozitsiyasining o'ziga xos xususiyati – markazda pavilyon, katta bo'lmagan suv havzasi va qirqib shakl berilgan o'simliklardir (124-rasm). Bu qurilmalarning me'moriy ko'rinishida, yuqorida aytib o'tilganidek, devorlardagi dekorativ bezaklar ham muhim rol o'ynaydi.



122-rasm. Konye shahri. Sulton Alovuddin Qay Qubad I ning saroy kompleksi atrofida yoyilib yotgan erkin kompozitsiyali park.



123-rasm. Konyedagi ko'plab me'moriy bog'-saroy komplekslari o'z tarkibida masjid yoki madrasa atrofida erkin shakllangan bog' majmuasiga ega.




124-rasm. Konye shari. Chifte Minar masjidi hovlisida erkin shakllangan bog'.



125-rasm. Markazida katta suv havzasi va qirqilgan o'simliklari bo'lgan hovli bog'lari.

O'zida stillashgan o'simlik va geometrik naqshlarni, bog'lar aksini mujassam qilgan keng tasmasimon bezaklar peshtoqlarning tik chiziqlariga yanada keskinroq viqor bag'ishlaydi, o'yma naqshlarda relyef balandligining goh baland, goh pastligi naqshlar fazoviyiligini yanada oshiradi. Masjidlarning peshtoqlari islmiy naqshlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Divrigi shahridagi masjid peshtoqining naqshi juda ajoyib ishlangan. Stillashgan o'simliklar motivida bajarilgan rozetka va palmettalar mujassamlanib, kirish eshigi atrofidagi naqsh yuzasini to'ldirgan arka tepasida friz tashkil qilgan. Arkaning profil ko'rinishi murakkab,



126-rasm. Masjid peshtoqining o'simlik motividagi naqshlari.



ajabtovur shaklda bo'lib, geometrik naqshlar va yozuvlar bilan bezatilgan. Saljuq me'morlari masjid devorini jimjimador bezaklar bilan boyitib, bir qismini tekis qoldirganlar. Bu usul bezakning relyefli xarakteriga diqqatni jalb qiladi. Ko'pincha peshtoq toqi arkasining guldastasi (timpan) bezaksiz qoldiriladi yoki 2 ta simmetrik joylashgan rozetka bilan bezatilar edi (126-rasm).

Turkiyada oliy tabaqaga xos bo'lgan arxitektura yodgorliklaridan karvonsaroylar saqlanib qolgan. Ular orasida Konyedagi Sulxon-Xonning 1229-yilda qurdirgan karvonsaroyi kattaligi bilan ajralib turadi, asosiy binoning tarzi toshga o'yilgan juda boy naqshlar bilan bezatilgan. Madaniy qurilishlar bilan bir qatorda karvonsaroylar komplekslari hovlilarida ham ko'pincha bog'lar bo'lgan. Ularning tarhiy yechimi haqida boshlang'ich manbalarda hech nima deyilmagan.

Turkiya va Kichik Osiyoning ilk o'rta asrlar madaniyati rivojlanayotgan Vizantiya, Arman va, xususan, Eron davlatlari ta'sirida bo'lgan. Turli sujetlar fonida bog'lar tasvirlangan rangtasvir asarlari mavjud. Ularda o'rta asr boshlariga tegishli uzviy shakllarga ega bo'lgan bog' va parklar uchramaydi.

Mo'g'illarning qirg'inli yurishlaridan keyin Rum sultonligi mayda, mustaqil bo'lmagan hududlarga bo'linib ketadi. XIV asrning boshlarida uncha katta bo'lmagan Turk knyazligi bosh ko'tarib chiqib, muvaffaqiyatli janglar qilib, tezda o'z hududini kengaytirib oldi. XV asrda esa Vizantiyaga qaqshatqich zarba berib, bu davlat knyazlik hukmroni nomi bilan Usmon davlati deb, uning tarkibiga kirgan Kichik Osiyo turklari Usmoniyalar deb atala boshlandi.

Usmon imperiyasi harbiy rivojlangan feodal — zo'raonlik munosabatlariga asoslangan davlat edi. Usmon davlatining madaniyati mahalliy an'analar asosida Saljuqiy, Kichik Osiyo va Vizantiyaning katta va



127-rasm. Karvonsaroy hovlisida joylashgan bog'lar.

boy madaniyatini yangilab, o'ziga singdirib rivojlandi. Bu davrning bog'-park ijodiyoti haqidagi ma'lumotlar faqat miniaturalardagina yetib kelgan. Usmoniylar hukmronligi davrida ularga an'analar orqali o'tgan miniatura tasviriy san'ati salmoqli o'rin tutgan. Xuddi avvalgi davrlardagidek, o'rta asr boshlaridagi Rum sultonligida, san'atning bog' ijodi janrida, hovlilar sahnida to'rtburchak shaklli bog'lar uch-rasa ham, hali ularda simmetrik markaziy kompozitsiya kuzatilmaydi (127-rasm).


1402-yilda Amir Temur Anqara yaqinida Usmoniylarni tor-mor qildi. Sulton Boyazit asirga tushdi va ko'p o'tmay dunyodan o'tdi. Usmoniylar davlati parchalanib ketdi. XV–XVI asrlarda esa katta Turk madaniyatlari qo'shiluvi sodir bo'ldi.

XV asrning ikkinchi yarmida Turkiyada navbatdagi me'morchilik rivoji jadallik bilan boshlandi. XV asr oxiri, ayniqsa XVI asr bog' arxitekturasining gullab yashnashi bilan ajralib turadi. Rivojlanishning bu bosqichida Temuriylar davlati maktabining bog' va arxitektura san'ati an'analari o'z ta'sirini ko'rsatib, muhim rol o'ynadi.


XV–XVI asrlarda turk me'morlari Temuriylar regional me'morchilik maktabining bog' ustalari yaratgan bog'-saroy komplekslardan, arxitektura majmualarining me'moriy qurilishlaridan, dekorativ naqshinkorlik san'atidan ibrat olganlar. Monumental me'moriy ansambllardagi bog'-park arxitekturasida simmetrik va markaziy o'q kompozitsiyalarini qo'llash me'moriy yuksaklikning talabi bo'lib qoldi. Saroy, madrasa, masjidlar oldida yoki ularning atrofida asosiy o'q bo'ylab, to'rtburchak shakldagi markazida suv havzasini joylashtirish, undan to'rt tarafga ariqlar chiqarish, o'simliklar va butalarni qirqish kabi me'moriy usullar bu davrning bog'-park qurilishida eng keng tarqalgan uslublar bo'lib qoldi. Bu uslublar yangi davrning qurilishlariga o'zgacha fazoviy ko'rinish bag'ishlab, ularga islom falsafasi obrazini singdirib, yangi badiiy ma'no, mazmunlik va mutanosiblik baxsh etdi (128–130-rasmlar).

Bu davrga kelib turk saroylari va boshqa jamoat binolari muhitida muntazam (regulyar) bog'lar mavzusi turli variantlarda yassi yoki qiyalik joylarda qo'llanila boshlandi. O'tgan davr Temuriylar arxitekturasida an'analarga murojaat etilib, tarhi simmetrik va markaziy kompozitsiyali bog' bosh o'qda joylashgan asosiy bino poyida yastanib yotadi (129-, 130-rasmlar).



Turk me'morchiligining rivojlanishi va yuksak kamolotga erishuvida navbatdagi muhim qadam mashhur turk arxitektori Hoji Sinan (1489–1578 yoki 1588) nomi bilan bog'liq. Uning ijodiga mansub bo'lgan yuzlab binolar orasida ko'plab masjid, madrasa, maqbara, saroy va boshqa binolar bilan birga «chorbog'» uslubidagi bog'lar ham bo'lgan. Sinanning o'zi uchta asarini alohida ajratib ko'rsatgan: Istambuldagi Shah-Zoda (1543–1548) va Sulaymoniya masjidlari, Edirndagi Selimiya (1566–1574) masjidi. O'zining yozuvlaridan birida Sinan, Shah-Zoda masjidi uning o'quvchilik ishi, Sulaymoniya – shogirdlik ishi, Edirndagi Selimiya masjidi esa ustalik ishi ekanligini aytib o'tadi (131–134-rasmlar).




128-rasm. Monumental me'moriy ansamblning atrofi simmetrik va muntazam markaziy kompozitsiyali bog' bilan o'ralgan.






129-rasm. Muntazam (regulyar) uslubdagi bog'. Qat'iy geometrik yechim, simmetriya va markaziy kompozitsiyali ansamblning hovli muhitida shakllangan bog' landshafti.






130-rasm. Qiyalikdagi bog'larning simmetrik va markaziy o'qqa asoslangan kompozitsiyasi.



131-rasm. Istambuldagi Hoji Sinan bunyod etgan Sulaymoniya masjidi va uning atrofidagi bog'.



132-rasm. Hoji Sinanning Istambuldagi Shah-Zoda masjidi.



133-rasm. Edirndagi Selimiya masjidi va uning yonidagi qat'iy, muntazam rejada tashkillashtirilgan to'rtburchak shaklidagi bog'.

Sinanning ijodida nafaqat ichki muhitni tashkillashtirish, balki bino hovlisi va atrofidagi landshaftni tashkil qilish ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Sinan o'z saroylari interyerlarida Vizantiya an'analarini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilgan bo'lsa, hovli muhitini tashkillashtirishda o'zigacha bo'lgan me'morlar uslublaridan boshqacha uslubda yondashadi. Me'mor Sinan Temuriylarning muntazam rejali tartibli bog' yaratish tizimidan foydalandi, simmetriya usulini, kompleksning asosiy elementlarini, saroy, to'rtburchakli bog', suv havzasini bosh o'q bo'ylab joylashtirdi.

Sinan o'zining eng sara arxitektura asarlarida yuqorida qayd etilgan, qat'iy geometrik va simmetrik shaklda bosh o'q bo'ylab yo'naltirilgan bog'larni ham barpo etdi. Ular o'z kompozitsiyalari bilan Temuriylarning pog'onasimon bog'lariga o'xshaydi. Muntazam qismlarga bo'lingan, pog'onali (terrassali) bog'lar, sahndan-sahnga oqqan sharsharalar qadimgi islom bog'larining ma'naviyati talablariga javob berar va Temuriylar imperiyasining buyuklik g'oyasini o'ziga singdirgan edi. Shu bilan birga me'mor ijodida Temuriylar san'atiga xos bo'lmagan, badiiy masalalarni dekorativ yo'l bilan yechishga intilish yaqqol seziladi. Sinanning binolarida dekorativ boshlanma badiiy obraz to'qilmalariga juda tabiiylik bilan kirib kelgan. Bu me'moriy shaklning ko'plab ravoqlarga mohirona bo'linuvida, nisha va derazalar ko'rinishlarida, interyerni devoriy islamiy naqshlar bilan boyitishda, sernaqsh o'yib ishlangan marmar taxtalarda, rang-barang serjilo vitrajlarda o'z o'rnini topdi.

Shah-Zoda masjidida gumbazni ko'tarib turgan og'ir qirrali ustunlarda ham bu uslub aniq ko'rinib turibdi, navbatma-navbat keluvchi ochiq va to'q ranglardagi g'ishtlardan bajarilgan ravoqlar tizimi yaqqol ko'zga tashlanadi. Sulaymoniyada Sinan fazoviy va dekorativ elementlarning uyg'unligiga yanada ko'proq erisha olgan. Bu yerda parus va gumbazni ko'tarib turgan ustunlarning ko'rinishi asosiy rol o'ynaydi. Sinan ularga murakkab ko'rinish bergan ustunlarning qirralari boy va bo'laklarga ajratilgan devor yuzi bilan uyg'unlashib ketgan.

Sinan Edirdagi Selimiyani yaratish jarayonida o'zgacha fazoviy-kompozitsion yechim topgan. Gumbaz 8 ta ustunga o'rnatilgan, ulardan paydo bo'lgan katta rotonda devor kvadratlariga shunday joylashtirilganki, fazoviy hajm bir butunlikni tashkil qilgan. Devor yuzining boy plastikasi va gumbazni ko'tarib turgan ustunlar interyerga ajoyib go'zallik baxsh etgan. Ulkan fazoviy kenglikning bir necha yaruslardagi juda ko'p derazalari orqali tushayotgan yorug'lik bino hashamati, bayramona tanatanali taassurotni yanada kuchaytirgan.

Sinanning binolari temuriylarnikidan tashqi ko'rinishi bilan ham ajralib turadi. Ularning proporsional nisbiy o'lchamlari kattalashgan, gumbazlari yalpoqroq ko'rinishga ega. Istambuldagi Sulaymoniya masjidining gumbazi Samarqanddagi Bibi-xonim masjidining gumbazidan ancha baland. Biroq ikkala masjidning ham to'rtburchakli, qat'iy simmetrik rejali bog'lari bo'lib, ularning joylashuvi har xil. Sulaymoniya masjidida bog' kompleksi masjid atrofida yoyilib yotibdi. Samarqanddagi Bibi-xonim masjidida esa bog' to'rtburchak hovli hududida joylashgan (131-, 134-rasmlar).




134-rasm. Samarqanddagi Bibi-xonim masjidi. To'rtburchak hovli hajmida joylashgan qat'iy simmetrik rejali «chorbog'».


Edirdagi Selimiya masjidi arxitekturasi alohida yaxlitligi bilan ajralib turadi. Bino kompozitsiyasi yuqoriga sari torayib boradigan yaruslardan iborat bo'lib, bu yaruslar asta-sekin masjid gumbazining yarimsferasiga o'tadi. Masjid tik va gorizontalar arxitekturasi xosdir. Devor tekisliklari gorizontalar joylashgan ravoqlarga bo'lingan, bu ravoqlarda derazalar qatori joylashgan.

Turk monumental diniy binolaridan olinadigan kuchli taassurot sezilarli darajada gorizontalar shakllarga kontrast tushgan osmonga yo'naltirilgan tik minoralar va sokin silliq chizilgan siluetli binolarga, devorlaridagi takrorlanuvchi ravoqli inshootlarga bog'liq. Bu obyektning landshaft muhiti qanday shakllanganligi bizga noma'lum.

Hoji Sinan ijodi turk feodal davri me'morchiligining rivojlanish cho'qqisi bo'ldi. Holbuki, XVII asrdayoq o'tgan yuz yillik an'analar asosida buyuk imoratlar barpo etilgan. XVII asrda qad ko'targan monumental arxitektura asarlari qatorida me'mor Mexmed Aga (1540–1620) barpo etgan Axmediya (1609–1614) masjidini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Chiroyli siluetli, monumental proporsiyalarga ega bo'lgan bino to'rtburchak bog' bilan o'ralgan (135-rasm).



135-rasm. Me'mor Mexmed Aga barpo etgan Istambuldagi Axmediya masjidi atrofidagi muntazam bog'.




136-rasm. «Chorbog'» uslubidagi muntazam bog'lar tasviri chizilgan miniaturalar. O'rtada to'rtburchakli suv havzasi va undan to'rt tarafga oqqan ariqlar. XV–XVI asrlarga xos bo'lgan Temuriylar chorbog'lari turk bog'dorchilik ijodida.

Turk tasviriy san'ati asosan miniatura janri tufayli mashhurdir. Turk miniaturalari Temuriylar va Boburiylar badiiy maktablarining ta'siri ostida rivojlanib borgan. Kam sonli illustralatsiyalangan qo'lyozmalarda XV va XVI asr boshlariga xos bo'lgan Temuriylar chorbog'larining turk bog'dorchilik ijodida qo'llanilishiga namunalar — o'rtasida to'rtburchakli suv havzasi bo'lgan va undan to'rt tarafga ariqlar chiqqan bog'lar tasviri bor (136-rasm).

Arxitektura bog'-park me'morchiligining gullab yashnagan davridan ko'plab diniy va saroy binolaridan tashqari, qal'alar, savdo inshootlari (yopiq bozorlar, karvonsaroylar) va turar-joylar tarkibiga kirib kelgan. Arxeologlarning ma'lumotlariga ko'ra, ularning ko'pchiligida markazida to'rtburchak suv havzasi va asosiy bino bilan bir o'qda joylashgan bog'lar bo'lgan, ularga piyodalarga soya beruvchi xiyobonlar orqali kirib kelingan. Bog' o'simliklarini qirqishda ham o'xshashlik kuzatiladi. Ular to'g'ri burchak ostida kesilib, tekislik va to'g'ri chiziqlarni yanada bo'rttirib ko'rsatgan (137-139-rasmlar). Biroq XVIII va XIX asrlarda Turkiya me'morchiligi deyarli rivojlanmadi.



137-rasm. Turkiya bog'laridagi «ochiq» va «yopiq» xiyobonlar.



138-rasm. Turkiya. Shakl berilgan daraxt va butalardan shakllangan muntazam bog'larning kompozitsion ko'rinishi.



139-rasm. Hovli muhitidagi bog'ning kompozitsion ko'rinishi, tekis qirqilgan o'simliklar bog'ni yanada bo'rttirib ko'rsatgan.

Shunday qilib, oʻrta asrlar Turkiya va Kichik Osiyoning islom davlatlari bogʻdorchilik ijodiyotini oʻrganib, quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Oʻrta asrlardagi Turkiya va Kichik Osiyoning saroy-bogʻ arxitekturasida mavjud boʻlgan bogʻlar rejaviy yechimini ikki tipga boʻlish mumkin. Ularning har qaysisi oʻz davriga ega.

XII–XIII asrlarda erkin rejali bogʻlar shakllangan, bogʻ oʻrtasida pavilyon joylashgan, keyinchalik pavilyon oʻrnini saroy, masjid yoki madrasalar egallagan. Bu oʻziga xos usul: bepoyon erkin kompozitsiya, suv havzasi va ariqlar, yovvoyi tabiatning tabiiy manzalarini koʻrsatuvchi bogʻlarning meʼmoriy komplekslar atrofida barpo qilinishi oʻsha davr bogʻ-park ijodining mahsuli boʻlib qolgan. Bu davrda binolar interyerining devoriy naqshlari va binolar tarzlarining bezaklari – koshinkor panno boʻlgan. Stillashgan oʻsimliklar rasmi chizilgan bu panno bogʻ koʻrinishini tasvirlagan.

XV–XVI asrlarga xos boʻlgan qatʼiy muntazam, simmetrik kompozitsiyali, toʻrtburchak shaklli bogʻ, suv havzasi, undan toʻrt tarafga yoʻnalgan ariqlar – bularning hammasi hukmdor saroyi, masjid yoki madrasa binosi bilan asosiy oʻq boʻylab joylashtirilgan.

Qatʼiy tartibga keltirilgan yangi bogʻ tizimi muhim ahamiyatga ega boʻlib, uni Temuriylar davlati regional manzaraviy bogʻchilik maktabining buyuk anʼanalaridan deb hisoblash mumkin. Usmon imperiyasining tor-mor etilishidan keyin (1402-yil, Anqara yaqinida) Oʻrta Osiyolik Temuriylar davlat boshiga keladi. Ular bosib olgan davlatlar hududida bu davr arxitektura va landshaft ijodiyotining gullab yashnagan davri boʻlib, XV asrning oxiri va, ayniqsa, XVI asrga toʻgʻri keladi. Shu davrda muntazam qismlarga boʻlingan, qiyalikdagi pogʻonali (terassa) bogʻlar, terassa sahnalari orasidagi shar-sharalar, bir oʻq boʻylab joylashgan bogʻ kompleksining asosiy elementlari Temuriylar bogʻlari talablariga javob berar, imperiyaning buyukligi gʻoyasini oʻzida mujassam etar edi. Oʻrta asr boshlarida ikkala davlatning ham miniatura sanʼatining turli sujetlarida bir xil anʼanadagi bogʻlar va parklar tasviri kuzatiladi.

XII–XIII asrda bogʻlar rejasini erkin shakllangan, peyzaj koʻrinishli bogʻlarga, XV–XVI asrlardagi bogʻlarni tartibli simmetrik muntazam rejaviy bogʻlarga ajratish mumkin. Oʻrta asrlarda mashhur boʻla boshlagan Turk rangtasviri, asosan, miniaturada oʻrta asr Temuriylari badiiy maktabining taʼsiri ostida rivojlandi. Koʻplab miniaturalar sujetlari fonida oʻrtada suv havzasi joylashgan, undan toʻrt tarafga ariqlar


yo'naltirilgan bog' tasvirlangan, bu xuddi Temuriylar davriga xos bo'lgan «chorbog'» bog'lariga, qadimgi Eron miniatura san'ati asarlariga aniq va ravshan o'xshaydi.

2.5. Shimoliy Hindiston, Pokiston va Kashmir bog'-park san'ati

O'rta asr Sharq mamlakatlari bog'lariga xos an'analar Shimoliy Hindistonda Bobur va Boburiylar hukmronligi davrida (XVI–XVII asrlarda) yanada taraqqiy topdi. Boburiylar yaratgan bog'lar nafaqat hozirgi Hindiston va Pokistonda, balki Afg'onistonda ham saqlanib qolgan. Dehli, Agra, Fatexpur-Sekri, Shohjahonobod (eski Dehli), Lohur, Kashmir, Qobul shaharlaridagi Boburiylar qurgan bog'lar nafaqat Hindistonning, balki butun Islom dunyosi o'rta asr bog'-parkchilik san'atining javohirlari qatoridan o'rin olgan.

Boburiylarning bobolari Amir Temur va Temuriylar «chorbog'»larni shahar atrofidagi tabiatan nafis joylarda bunyod etgan bo'lsalar, Boburiylar «chorbog'» uslubini nafaqat nafis tabiat quchog'iga, balki shahar ichidagi me'moriy obidalar majmualari – saroylar, qasrlar, ko'shklar, maqbaralar muhitiga olib kirib, bu san'atning yangi yo'nalishini yaratdilar. Ana shunday me'moriy obidalar bilan hamohang tarzda yaratilgan chorbog'ni Dehlida, Akbarshoh otasi Xumoyunga atab 1566-yilda qurdirgan maqbara-bog'da ko'rish mumkin. Maqbaraning atrofida simmetriya tarzida suv havzalari, ariqlar, xiyobonlar va chamanlar barpo etilgan. «Chorbog'» bu yerda maqbara uchun manzaraga boy, jozibador, dilni yayratadigan me'moriy yashil muhit-peyzaj vazifasini bajargan. Agradagi Akbarshoh maqbara-bog'i ham ana shunday orombaxsh bog'lardandir. Akbarshoh maqbarasi bog'ning geometrik markazida joylashgan. Bog'ning to'rt tarafida to'rtta ulkan darvozasi bo'lib, sersoya daraxtlarga boy bu daraxtzorlarda maymunlar, tovuslar va ohular saqlangan.

Hindistondagi maqbara-bog'lar orasida eng mashhuri – bu Agradagi Toj Mahaldir (XVII asr). Uni boburiy Shoh Jahon rafiqasi Orzumandbonu (Mumtoz Mahal)ning so'nmas xotirasi uchun qurdiradi. Toj Mahal ham boshqa maqbara-bog'lar kabi «chorbog'» uslubida rejalangan. Biroq undagi maqbara binosi Xumoyun va Akbarshoh maqbaralari kabi bog' markazida emas, balki uning to'rida joylashtirilgan. Natijada maqbara-bog' g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan ertaknamo obida va unga poyandoz tushgan go'zal chorbog' hosil bo'lgan. Bosh xiyobon bo'ylab o'tkazilgan keng ariqlar va hovuz-



140-rasm. Agrada «chorbogʻ» uslubida qurilgan Toj-Mahal maqbara bogʻ-saroyi (1630–1653-y.y.)


larga tushgan maqbara-saroy aksi bogʻ muhitiga yanada sehrlı, maf-tunkor fayz baxshida etgan. Toj Mahalni koʻrishga kelganlar chorbogʻ darvozasidan kirishi bilan koʻz oʻngida turfa xil jilo berib tovlanayotgan obidaning jamolini koʻrib, to maqbara binosiga borgunlaricha bu jannatmakon bogʻning tarixini chuqurroq oʻrganib, kengroq musho-hada etishga shoshiladilar (140-rasm).

Hindistonning Auranobod shahrida ham meʼmoriy-rejaviy kom-pozitsiyasi jihatidan Toj Mahalga juda yaqin boʻlgan Bibi-Kamakbar maqbara-bogʻi (XVII asr) saqlanib qolgan.



Hindiston va Pokistonda XVII asrda goʻzal Himolay togʻlari etak-larida bunyod etilgan «Shalimar» va «Nishat»-bogʻ deb nomlangan bir nechta bogʻlar mavjud (141–144-rasmlar). Bularning aksariyati Boburiylar tomonidan qurilgan. Bu bogʻlar hududida togʻ etaklarida sunʼiy tashkil qilingan kvadrat shaklidagi pogʻonalar, togʻlardan oqa-yotgan suvga toʻla shalolalar, ariqlar, katta-kichik hovuzlar, gulzorlar, xiyobonlar joylashgan. Bu bogʻlar kompozitsiyasi sof muntazam sim-metrik rejada chorbogʻ va chorchaman uslublarida qurilgan.






141-rasm. Agradagi Shalimar bog'i.



142-rasm. Lohurdagi Shalimar bog'ining hovuzi.




143-rasm. Nishat bog'ga misollar.



144-rasm. Lohurdagi Shalimar bog'ining landshafti.

Akbarshohning o'g'li Jahongirshoh (1569–1627) ham Agra va Lohur shaharlarida, shuningdek, Hindistonning eng go'zal joylari – Kashmir va G'arbiy Pokistonda qator bog'lar yaratgan. Uning Kashmirdagi Dal ko'li sohilida joylashgan Shalimar bog'ining rejasi cho'zinchoq to'g'ri to'rtburchak shaklida (500×200 metr) bo'lib, ketma-ket uch qismdan: tashqi bog', markaziy bog' va ichkari bog'lardan iborat. Tashqi bog'ning me'moriy ochiq maydoni va ulkan shiyponi bo'lib, u podsho qabulxonasi bilan tutashgan. Markaziy bog' sahani esa ikki pog'onali bo'lib, o'rtasida shoh saroyi va qabulxonasi joylashgan. Ichkari bog' shoh oilasi uchun mo'ljallangan bo'lib, bog'dagi saroylar qorli; ulug'vor Maxadev tog'lari etagida joylashgan. Ana shu tog' qoyalaridan boshlangan keng ariq Shalimar bog'ini uzunasiga kesib o'tib, sharshara va favvoralar, har ikki yondan esa xiyobonlar hosil qilgan. Xiyobonlar chetida chinorlar ekilgan.

Kashmirning Shalimar bog'lari bir tomondan ko'l suvining maftunkor manzarasi, ikkinchi tomondan baland tog' landshaftiga uyg'unligi bilan boshqa bog'lardan ustun turadi (145-rasm).



145-rasm. Kashmirdagi Shalimar bog'ining landshafti.

Shalimar bog'i (sevgi maskani) 1619-yilda imperator Jahongir tomonidan uning rafiqasi Malika Nur Jexar uchun qurilgan. Undan ham yashilroq va shinamroq bo'lgan «Huzur-Halovat bog'i» 1632-yilda Jahongirning akasi Asif Xon tomonidan qurilgan. Bog'larning eng kattasi gullar ekilgan yettita pog'ona (terassa)lardan iborat bo'lib, ularda turli-tuman xrizantemalar, georginyalar, atirgullar, baxmal gullar ekilgan. Bog' sevishganlarning sevimli joyi, ularning u yer-bu yerda sayr qilib yurgani, gohida daraxtlar tagida o'tirganlarini uchratish mumkin.


Kashmirdagi Dal ko'li havzalarida suv ustida suzib yuruvchi g'aroyib bog'lar yaratilgan. Buning uchun quruq qamishdan to'qilgan yengil «gilam» suv ustiga to'shalgan. Suv ostida o'suvchi turli o'simliklar tomirlari va loyi bilan ushbu gilam ustiga yozilgan. Bu narsa qisqa vaqt ichida hosildor qatlama aylangan. Unga tashlangan don tez orada o'sib chiqqan. Avlodan-avlodga o'tib kelgan bu suzuvchi bog' qatlami yangidan qo'shilgan cho'kindilar yordamida mustahkamlangan, asta-sekin pastga o'sib, suv tagiga yetgan va yaxlit yer massasiga aylangan. Bu massaga tashqaridan tushgan turli chiqindilar uning sathini suv yuzasidan ko'tara borgan va natijada inson qo'li bilan yaratilgan quruq sun'iy yer qatlami hosil qilgan. Bu qatlam ustida nafaqat bog'lar, balki uylar, imoratlar ham qurish mumkin bo'lgan.

Shoh Jahonning Lohurdagi Shalimar bog'i haqida alohida to'xtalib o'tish joizdir. Bog' 1641–1642-yillarda bunyod etilgan. U qiyalikda joylashgan bo'lib, maydoni pog'onali uch tekis sahnga bo'lingan. Cho'zinchoq to'g'ri to'rtburchakli muntazam rejadagi bog' atrofi baland devor va darvozalar bilan o'ralgan. Meridional yo'nalishdagi bog' o'qi bo'ylab markaziy xiyobon va o'rtada o'q ariq, ikki yondan esa unga parallel yonbosh xiyobonlar o'tkazilgan. Xiyobonlarni ko'ndalang kesgan parallel yo'laklar va ariqlar bog'da kvadrat shaklidagi chorchamanlarni hosil qilgan. Bog' maydoni 16 gektarga yaqin. Xiyobonlar va yo'laklar kesishgan joylarda turli shakldagi favvoralar yoki shalolalar bunyod etilgan. Quyi va yuqori pog'onalarning tarhi bir-biriga o'xshagan chorbog' ko'rinishida bo'lgan. Chorchamanlarda mevali daraxtlar, gulli butalar va gulzorlar mavjud bo'lgan. Bog'ning sharqiy va g'arbiy devorlari bo'ylab bir-biriga o'xshaydigan bir oshyonli saroylar va yordamchi xonalar qurilgan.



Bog'ning asosiy binosi — ikki qavatli saroy o'rtadagi hovuz yonida joylashgan. Bog'ning sharqiy qismidagi ravoqlar bilan bezalgan xona-

larda dastlab shohning harami joylashgan bo‘lib, unda asosiy xonalardan tashqari hammom va cho‘milish uchun hovuz ham bo‘lgan. Tevarak-atrofni to‘ldirib turgan atirgullarning muattar hidi, qafasdagi rang-barang to‘tiqushlar dilga surur bag‘ishlagan. Shalimar bog‘i endilikda Lohur shahri bilan qo‘shilib ketib, o‘ddiy xalq va sayyohlar dam oladigan go‘zal go‘shaga aylantirilgan. «Shalimar» so‘zi turlicha tarjima qilinib, «Sevgi maskani» yoki «Huzur-halovat va go‘zallik maskani» degan ma’nolarni bildirar ekan.


Boburiylar bog‘larida suv nafaqat hayot manbayi, balki dam oluvchilar uchun jismoniy halovat, estetik va ruhiy oziqa omili hamdir. Shu boisdan ham, Boburiylar bog‘larida, xususan, Kashmir va Lohurdagi Shalimar va Nishat chorbog‘larida suvdan foydalanishning turli va g‘aroyib shakllarini uchratamiz. Bu bog‘da muntazam rejali ulkan hovuzlar va favvoralardan tashqari, sun‘iy sharsharalar va shalolalarni eslatuvchi «chodar» va «chini-xona» nomli qurilmalar ham mavjud. Suvning yuqoridan pastga tekis yuza yoki qiya tekislik bo‘ylab oqib tushishida shildirashi va shovullashiga hamda quyosh nurida yarqirashiga asoslangan bu qurilmalar Boburiylarning pog‘onali bog‘lariga juda yarashib turgan (146–148-rasmlar).




146-rasm. Suv va soya — Hindiston bog‘lariga xos xususiyat.



147-rasm. Hindiston. Yuqoridagi rasmda Akbarshohning saroy-bog'i, pastdagi rasmda Kashmirning pog'onasimon bog'laridagi chodarlar.



148-rasm. Fatexpur Sekri. Akbarshohning saroy-bog'idagi suv havzalari.



149-rasm. Hindiston me'moriy yodgorliklari qoshidagi zamonaviy mo'jaz bog'.

Bobur va uning avlodlari yaratgan bog'larning hozirgacha saqlanib qolganlari qatorida Qobuldagi Bog'i Bobur, Istolifdagi Bog'i Istolif, Agradagi Bog'i Nurafshon (Pombog') bog'-saroylari, Toj-Mahal, Dehlidagi Xumoyun va Sekridagi Bog'i Akbarlar, Srinarga va Lohurdagi Shalimar bog'lari shular jumlasidandir. «Bobur sevib tasvirlagan «Bog'i Istolif» hali ham bor, — deb yozadi Afg'onistonga mehmon bo'lib borgan o'zbek olimi Hamidulla Hasanov. — Boburning qo'li tekkan daraxtlar hali ham xushqomat, yo'g'on va serbutoq. Bog' balandlikda, keng supada joylashgan, bir tarafi chuqur jarlik, Bobur aytgan Rud soyining suvi muzdek sovuq, billurdek tiniq, bog'ning bir tarafida Bobur qazdirgan ariqda hali ham shovullab zilol suv oqib, bog'dan Istilof shahrining go'zal manzarasi ko'rinib turadi. Hindikush tog'larining janubidagi keng, yam-yashil, mevazor vodiy — Kuxidoman vodiysi ham uzoq-uzoqlargacha ko'rinadi... Bog' hozir ham eng sevimli istirohat joylaridan biri hisoblanadi...» (149-rasm).

Chodar — bu suv tejimli qo'llanadigan sun'iy shalola bo'lib, qiya asosga o'rnatilgan, yuzasi keng to'g'ri to'rtburchak shaklidagi suv

novidir. Yuzasi o'yib, geometrik naqshlar ishlangan tosh yoki marmar plitalar shu qiya asosga tekis terilib, suv yuqoridan pastga ushbu shaffof qiyalik orqali oqib tushganda go'zal manzara hosil qiladi va shildiragan yoqimli tovush chiqaradi (147-rasm).

Chini-xona – bu tekis tosh yuzali keng sharsharani eslatib, sharshara orqasidagi toshga o'yilgan nisha yoki ensiz nishalar qatoridan tuzilgan. Bu nishalarga oqshom sham yoki moy chiroqlar qo'yilib, yuqoridan oqib tushayotgan sharshara suvi chiroq nurida yarqiraydi va go'zal manzara hosil qiladi.

Shunday qilib, «chodar» va «chini-xona»lar Shimoliy Hindiston va Pokistondagi Boburiylar davri bog'larida suvdan tejimli va samarali foydalanishning o'ziga xos badiiy shakllari hisoblanadi. Favvoralar esa Sharqning boshqa xalqlari bog'lariga, masalan, Eron va Turon bog'lariga ham xos me'moriy shakllardir. Favvoralar Xitoy va Yaponiyaning yirik bog'lariga xos emas, bu bog'larga asosan shalolalar, irmoqlar va ko'llar xosdir.

Xulosa qilib aytganda, Bobur va Boburiylar hukmronligi davrida bog'-park san'ati Hindistonda va Pokistonda yanada taraqqiy topdi.

Boburiylarning bobolari Amir Temur va Temuriylar «chorbog'»larni shahar atrofidagi tabiatan nafis joylarda bunyod etgan bo'lsalar, Boburiylar «chorbog'» uslubini nafaqat nafis tabiat quchog'ida, balki shahar ichida me'moriy obidalar majmualari: saroylar, qasrlar, ko'shklar, maqbaralar muhitiga olib kirib, bu san'atning yangi yo'nalishini yaratdilar.

Boburiylar bog'larida suv nafaqat hayot manbayi, balki dam oluvchilar uchun jismoniy halovat, estetik va ruhiy oziqa omili ham bo'lgan. Shu boisdan ham, Boburiylar chorbog'larida suvdan foydalanishning turli va g'aroyib shakllarini uchratamiz.

2.6. Xitoy bog'-park san'ati

Ushbu mintaqaning o'rta asr bog'-parkchilik san'ati Islom mamlakatlari bog'chilik san'atidan ancha farq qiladi. Biz yuqorida ko'rganimizdek, Islom mamlakatlari bog'-parklariga «chorbog'» tizimida shakllangan, muntazam rejali simmetrik kompozitsiyali yechimlar juda mosdir. Xitoy mintaqasida muntazam rejadan farqli o'laroq, park qurilishi va dizaynining tabiiy landshaft yoki peyzaj (sun'iy peyzaj) uslublari keng rivojlangan (150-, 151-rasmlar). Bu esa Uzoq Sharq

xalqlari o'rta asr diniy falsafasiga bog'liq bo'lib, bu falsafa o'z navbatida tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi ibtidoiy animistik (har bir narsaning joni, ruhi bor deyuvchi) maslaklar bilan birgalikda shakllanib borgan. Uzoq Sharqning yirik mamlakatlari – Xitoy va Yaponiyaning milliy bog'lari bu jihatdan alohida qiziqarlidir.

Bu mamlakatlar amaliyotidagi murakkab va ko'p qatlamli diniy-falsafiy tizimlar inson va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikni kengroq tushunishga xizmat qiladi. Tabiat go'zalligini mutlaqlashtirish g'oyasi inson faoliyatining tabiat qonuniyatlariga bo'ysunishiga olib kelgan. Uzoq Sharqning landshaft arxitekturasi va bog'-park san'ati ustalari o'z ijodlarida ushbu tamoyilga qadimdan amal qilib, jonli erkin tabiat manzaralarini aks ettiruvchi milliy bog'larni yaratganlar. Ana shunday ijodiy yo'nalishning ongli tarzda amalga oshirilganligini, jumladan, III asr shoiri Szo Su she'riyatida ko'ramiz: «Navoni sevingizlar! Jonli tabiatda tog' va anhorlar navosi har qanday musiqa asboblari kuyidan afzaldir» (152-, 153-rasmlar).


Xitoy tadqiqotchilarining ma'lumotiga ko'ra, Xitoyning bog'-parkchilik san'ati uch ming yildan ko'proq tarixga ega. Chet ellar uchun ma'lum bo'lmagan Xitoy bog'-parkchilik san'ati Xitoyning o'zida yaxshi o'rganilgan. Bu qadimiy san'atning an'analari hozir ham mufassal amal qilinib kelinmoqda. Mamlakatda, qadimgi bog'-parklarning olti xil turi mavjud: imperator bog'lari, imperator qabrlari qoshidagi bog'lar, ibodatxona bog'lari, tabiiy-peyzajli bog'lar, hovli bog'lari, allomalar (yoki adabiyot) bog'lari. Bog'larni bunday turlarga bo'lish shartli bo'lib, u bog'larning me'moriy-kompozitsion jihatlari-dan ko'ra ko'proq lirik xususiyatlarini ochib beradi. Bog'lar, albatta, o'zlarining ko'lami, rejaviy tuzilishi, shaharlar muhiti yoki tabiiy muhitda joylashishiga qarab bir-biridan farqlanadi. Biroq ularga xos bir qator muhim umumiy xususiyatlar ham mavjudki, bularga kulrang toshli qirg'oqlari bo'lgan suv havzalari, toshdan ishlangan «qoyalar» kompozitsiyasi, suv sahnida deyarli tekis yoki yoy shaklida bo'lgan mo'jaz ko'prikchalar, g'isht rangiga o'xshash qizil ustunlarga o'rnatilgan qiya tomli shiyonchalar (pavilyonlar), uzundan-uzoq, cho'zilgan soyabon (galereya)lar, nafis to'shamali yo'laklar, g'aroyib shakllarga ega ekzotik daraxtlar kiradi. Shu va shunga o'xshash muhim xususiyatlar Xitoy manzaraviy bog'laring asosiy belgilaridir. Xitoyda bundan atigi uch asr avval bunyod etilgan bog'lar ham eng qadimgi bog'larga xos an'analari asosida qurilgan.



150-rasm. Tabiiy landshaft uslubida shakllantirilgan Xitoy bog'lari.



151-rasm. Hovli muhitida sun'iy peyzaj uslubida shakllantirilgan Xitoy bog'lari.



152-rasm. Xitoy. Badiiy-estetik ishlov berish asosida shakllangan tabiiy bogʻ.




153-rasm. Xitoy. Jonli erkin tabiat manzaralarini aks ettiruvchi milliy bogʻ.

Xitoydagi eng mashhur va ulkan bog'lar — bu imperator bog'laridir. Ular yuqorida o'rganilgan «Qadimiy Xitoy bog'lari» bo'limidan bizga ma'lum. Bu bog'larning erkin rejaviy yechimlari to'g'ri burchakli hovlilar zanjirini tashkil qilgan, qat'iy simmetrik kompozitsiyaga ega saroy binolari bilan uyg'unlashgan. Bunday zanjirqator hovlilar o'z navbatida nafis ishlov berilgan tabiat landshaftidagi ko'l va qirliklar quchog'iga uyg'unlashib ketgan. Bog' landshaftining eng jozibador sun'iy elementlari hisoblangan qavariq ko'priklar, odatda, yorqin qizil, yam-yashil, sariq va boshqa ranglarga bo'yalgan shiyponlar bilan jonlantirilgan.

Imperator parklari qurilishining eng yirik markazi Pekin hisoblanadi. XII asrda bu yerda shaharning g'arbiy devorlari bo'ylab joylashgan Beyxay, Chjunxay va Nongxay ko'llarida bunyod etilgan imperator parklari yastanib yotgan (154–157-rasmlar). Bu parklar shaharning Gugun imperator saroyi va undan shimolroqdagi go'zal ko'rinishli Szinshanning sun'iy qirliklari va Pekin shahrining to'qqiz kilometrlik katta o'qi bo'ylab joylashgan boshqa binolardan iborat.

Imperator bog'larining aksariyati XVII–XVIII asrlarda Pekin shahriga yaqin joylarda, asosan, shimoliy va g'arbiy tomonlarda joylashgan. Bu bog'larning aksariyati saqlanmagan, ulardan eng yirigi Yuanminyuan esa qisman saqlangan, xolos. Yuanminyuan yozgi saroyi XII asrda qurilgan. Syanlun imperatorining hukmronligi davrida saroy-parklar kompleksiga aylangan. Yuanminyuan uch qismdan iborat: Chanchunyuan parki — Abadiy Bahor Bog'i, Vanchunyuan parki — Bahoriy bog' va Yuanminyuan parki — qadimgi saroyning yozgi bog'i. Ushbu kompleks Xitoy bog'-park arxitekturasiining durdonasi hisoblangan, ammo 1860-yilgi urushda barcha yog'och qurilmalar yonib ketgan. Bugungi kunda kompleksdan faqatgina xarobalar qolgan (158-rasm).



Bizgacha yaxshi holatda saqlanib kelgan imperator bog'laridan biri — bu shahar oldi bog'-park ansambli — Ixeyuan yozgi saroyidir. Bu bog' Vanshouan tog'lari bo'ylab 330 gektar maydonni o'z ichiga oladi. Ixeyuan bog'-park ansamblining kompozitsion markazi bu — parkda sun'iy tarzda yaratilgan ulkan Kunminxu ko'li. Uning suv yuzasi 250 gektardan ziyod hamda bir nechta orollar va banddan iborat. Bog'da yozgi imperator saroyi, ulkan ibodatxona, o'rmon, irmoqlar, sohillar, ko'priklar, sayrgohlar mavjud. Ushbu tog' etagida XII–XIII asrlarda ulkan sun'iy ko'l qazilgan. Parkning qurilishi va kengayishi XIX asrgacha davom ettirilgan. Hozir u Xitoydagi dab-dabali an'naviy imperator parklarining eng yaxshi namunalaridan biri hisoblanadi. Parkning tarkibida ko'llar, qoyalar, saroy imoratlari, g'aroyib shiyponlar, ko'priklar, darvozalar mavjud (159-rasm).




154-rasm. Pekin. Gugun imperator bog'idagi Szinshang sun'iy qirliklari.




155-rasm. Nongxaydagi bog' muhitining landshaft dizayni.




156-rasm. Pekindagi ulkan Beyxay imperator bog'i.



157-rasm. Pekin. Qiyaliklar va tabiiy ko'llar uzra shakllangan Chjunxay imperator bog'i.



158-rasm. Yuanminyuan saroy bog'ining xarobalari.



159-rasm. Ixeyuan imperator saroyidagi ibodatxonalar va tabiiy ko'llar manzaralari.


Xitoyliklarning bergan ma'lumotiga ko'ra, Xitoy bog'-parklariga xos falsafiy g'oya, ayniqsa, «allomalar» yoki «adabiyot bog'lari» deb ataladigan manzaraviy mo'jaz bog'larda o'z aksini topgan. Ana shunday bog'lar bilan Shanxay yaqinidagi Suchjou shahri mavzolari mashhurdir. Suchjou bog'larida (ularning soni hozir 60 dan ziyod) imperator parklaridagi kabi rasmiy dabdababozlik yo'q. Bu bog'lar xilvatda yolg'iz qolib fikr qilish, hordiq chiqarib dam olish uchun yaratilgan. Shuning uchun ham ular «allomalar» yoki «adabiyot bog'lari» deb nom olgan. Bunday bog'larga xos elementlarni baland qavariq ko'priqli uncha katta bo'lmagan ko'llar, sopol tomli shiyponlar, pagodalalar, tabiiy toshlardan shakllangan kompozitsiyalar tashkil

qiladi. Yashash xonalarining davomi hisoblangan va butkul tashqi dunyodan to'silgan sokin bu mo'jaz bog'lar o'zida halovat dunyosini, osoyishtalik va tabiat go'zalligini mujassam etgan. Suchjouning tarixiy mo'jaz bog'lari — Lyuyuan («Sokin o'tgan vaqt»), Vanshiyuan («To'rlar ustasi bog'i»), Chjo-ujenyuan («Kamtarin ma'murning bog'i») va boshqalar XVI—XVII asrlardan, balki undan ham oldingi davrlardan beri mavjuddir (160—162-rasmlar).


Adabiyotlarda Xitoy manzaraviy bog'lari XVII asrdagi Angliya manzaraviy bog'larining rivojiga turtki bergan, degan mulohazalar mavjud. Chunki bu davrda Xitoy—Yevropa aloqalari jonlantirilgan edi. Agar biz Yevropaga milodning boshlaridayoq manzarali bog'larning begona bo'lmaganligini e'tiborga olsak, yuqoridagi fikrga to'liq qo'shilish qiyin bo'ladi. Biroq Yevropa uchun ekzotik bo'lgan Xitoy bog'dorchiligining XVIII—XIX asr Yevropa bog'-parkchilik san'atiga ta'sirini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

O'rta asr Xitoy landshaft arxitekturasining ajoyib xususiyati eng go'zal va jozibador tabiiy landshaftlarni o'ziga xos tartibga solib, o'zida mujassamlashtirishdir. Ana shunday go'zal landshaftlar jumlasiga, Guylin shahri yaqinidagi Liyang daryosi vohasida joylashgan, «dunyoning eng go'zal joyi» deb nom olgan ekzotik tog' manzarasi kiradi. Tabiatning bunday mo'jizalariga bo'lgan an'anaviy munosabatni, nafaqat Xitoyda, balki Janubi-Sharqiy Osiyoning boshqa mam-lakatlarida ham kuzatish mumkin.

Xitoyliklarning o'rta asrlar bog'-park inshootlari arxitekturasini dizaynini, ya'ni ko'priklar, darvozalar, ochiq muhitdagi haykallar yaratishdek mahoratining yuqoriligini ham alohida e'tirof etish zarur. Jumladan, Pekin yaqinidagi Min sulolasi xilxonasining yo'li odamlar va hayvonlarning qator tuzilgan husnkor haykallari bilan bezatilib, ko'p ustunli oraliqli darvozalar bilan yakunlangan. Parklar va saroy ansambllari tizimiga kirgan yelkasida yassi tosh ko'targan toshbaqalarga o'xshash «ajdar bolalari»ning haykallari, sherlarning badiiylashtirilgan shakllari, naqshinkor ustunlar va to'siqlar ajib va mo'jizakordir. Ayniqsa, parklarning eng muhim tomoshagoh kompozitsiyaviy nuqtalariga joylashtirilgan shiyponlar va ko'priklar o'ta mohirona va o'ziga xos tarzda ishlangan. Shanxay yonidagi tarixiy shahar Suchjou parklaridagi qavariq ko'priklar juda go'zal va tabiatga hamohangdir. Suchjou Pekindan janubga Xanchjouga eltuvchi qadimgi transport yo'lidagi Buyuk kanal sohillarida joylashgan. Suchjou shahri parklari va kanallarining ko'pligidan «Xitoyning Venetsiyasi» deb nom ham olgan.




160-rasm. Suchjou shahri. Lyuyuan — «shoilrlar bog'i».



161-rasm. Suchjou shahri. Chjo-ujenyuan — «xilvatdagi yolg'izlik bog'i».



162-rasm. Suchjoudagi «Zumrad shiypon bog'i».



163-rasm. Buyuk Xitoy devori – tabiiy landshaftda sun'iy inshootlarni loyihalashga yorqin misol.


Tabiiy landshaftda sun'iy inshootlarni loyihalashning zamonaviy timsoliga Buyuk Xitoy devorini ham misol keltirish mumkin, chunki bu devor o'zi joylashgan tabiat manzarasiga xuddi uzukka qo'yilgan gavhardek mos tushgan (163-rasm).

Shunday qilib, ushbu mintaqaning o'rta asr bog'-parkchilik san'ati Islom mamlakatlari bog'chilik san'atidan ancha farq qiladi. Biz yuqorida ko'rganimizdek, Islom mamlakatlari bog'-parklariga «chorbog'» strukturasi tizimida shakllangan, muntazam rejali simmetrik kompozitsiyali yechimlar mos bo'lsa, Xitoyda muntazam rejadan farqli o'laroq, park qurilishi va dizayning tabiiy landshaft yoki peyzaj (sun'iy peyzaj) uslublari keng rivojlangan.

Mamlakatda qadimgi bog'-parklarning olti xil turi mavjud: imperator bog'lari, imperator qabrlari qoshidagi bog'lar, ibodatxona bog'lari, tabiiy-peyzajli bog'lar, hovli bog'lari, allomalar (yoki adabiyot) bog'lari. Bog'larni bunday turlarga bo'lish shartli bo'lib, u bog'larning me'moriy kompozitsion jihatlaridan ko'ra ko'proq lirik xususiyatlarini ochib beradi. Bog'lar, albatta o'zlarining ko'lami, rejaviy tuzilishi, shaharlar muhiti yoki tabiiy muhitda joylashishiga qarab bir-biridan farqlanadi.

2.7. Yaponiya bog'-park san'ati


Maftunkor manzarali bog'-parklar yaratishning favqulotda yuqori madaniyati Yaponiyaga mansubdir. Bunday madaniyat Yaponiyada XIII asrdan beri mavjuddir. Hozirgi kunda esa Yaponiya bog'larining dovrug'i butun dunyoga mashhurdir. Yapon bog'larining falsafiy asoslari va kompozitsion tamoyillarining tahliliga bag'ishlangan ma'lumotlar va adabiyotlar juda ko'p. Biroq Yapon bog'ining asl mazmun-mohiyatini faqat yaponlarning o'zlarigina aniq ifodalay o'tadilar. Jumladan, taniqli landshaft arxitektori Makoto Nakumara 1986-yilda shunday yozgan: «Yapon bog'ining go'zalligi ikkita asosiy g'oya: miniaturalashtirish va simvol (timsol)lashtirish bilan bog'liq. Miniaturalashtirish orqali katta bo'lmagan bog' hududida Yaponiyaning ulkan tabiiy landshaftini kichraytirilgan tarzda yaratish mumkin. Bunday paytda, tomoshabin o'zining sezgi organlari yordamida kichraytirilgan bog'ning tabiiy go'zalligini mumkin qadar to'laroq va uzviyroq sezadi. Ana shu maqsadda bog' ikki sifatni: badiiylik va tabiiy ishonchlikni o'zida mujassamlantirmog'i lozim. Yapon bog'idagi miniaturalashtirish tabiiy ramziylikka asoslangan bo'lib, bu sifatlar Yaponiyada ko'p asrlar davomida taraqqiy etib kelgan» (164-, 165-rasmlar).




164-rasm. Ramziy bog'lar.

Har bir yaponiyalik ham o'z yerida haqiqiy bog' yaratish imkoniyatiga ega emas. Yerning o'zi har kimda ham yo'q. Aslida bu yaponlarning azaliy muammosi bo'lib, bu davlatda aholi zichligi shunchalar balandki, har qanday oilaning ham bog' yaratish uchun hovlisi yo'q. Biroq yaponlar o'z an'alariga sodiqdirlar va har bir oilaning kichkina (bir lali yuzichalik) bo'lsa ham o'z bog'i bor. Bugungi kunda yaponiyaliklar orasida xona yuzida yoki stol ustida joylashgan kichkina bog'lar rasm bo'lgan. Interyer uchun kichkina yapon bog'idan ham yaxshiroq qanday bezak bo'lishi mumkin? Bog'bon xizmati shart bo'lmagan yapon minibog'i insonga qadimgi Yaponiya muhitidagi tinchlik va sokinlikni his etishga imkoniyat yaratadi.

Agar Xitoyda bog'lar mavjud tabiatning husnkor joylarini yanada takomillashtirish, ularga badiiy-estetik ishlov berish orqali yaratilsa, yapon bog'-parkchilik san'ati tabiat dunyosini oldindan o'ylanib belgilangan kichik miqyoslarda asliga o'xshatib ifodalashga asoslangandir. Xitoyda juda qadim zamonlardan ma'lum bo'lgan daraxtlar turini mo'jaz ko'rinishlarda o'stirish san'atining g'aroyib tajribalariga aynan Yaponiyada erishilgan. «Ban-say» deb nom olgan bu san'at daraxtlarning ko'pgina turlarini, jumladan, an'anaviy — yapon olchasi — sakurani ham miniaturaviy ko'rinishlarda yaratishga imkon bergan. Yaponiyada «eski» toshlardan turli kompozitsiyalar: chiroqlar, ko'prik va ko'prikchalar, yo'laklar, o'rindiqlar va boshqa bog' elementlarini turli dizaynlarda yaratishning ulkan san'ati mavjud (166-, 167-rasmlar).



165-rasm. Miniaturalashtirish orqali katta bo'lmagan bog' hududida Yaponiyaning ulkan tabiiy landshaftlarining ramziy namunalari yaratilgan.



166-rasm. Yapon bog'ida toshlardan tuzilgan turli kompozitsiyalar.

Bu yerdagi havzalar uchun manzarali baliqlar va sun'iy tabiat go'zalligiga erishish uchun turli butalar, gullar, maysalar va boshqa o'simliklar ko'plab o'stiriladi. Ularning aksariyati doim yashil o'simliklardir. Ana shunday daraxtlardan qarag'ay, kameliya, azaliya, magnoliya, butalardan beresklet, padubalar keng tarqalgan. Shu boisdan yapon bog'lari yil davomida maftunkor yashil manzarali ko'rinishlarga ega. Yaponiya bog'laridagi yo'laklar to'g'ri o'q chizikli muntazam rejali emas. Oval va silliq egik rejali yo'laklar yapon bog'lariga juda xosdir. Yo'laklar to'shalgan toshlar yassi va mahkam joylashgan bo'ladi.



167-rasm. Yapon bog'lariga xos tabiat manzarasi.

Yaponiyada ham bog'lar dastlab o'rta asr feodal davlatlaridagi kabi zodagonlar saroylari, ibodatxonalar qoshida yaratilgan. Hozirgi eng eski yapon bog'lari ham bu yerdagi mavjud qadimgi bog' namunalari ko'p asrlik milliy an'analar asosida qayta tiklash natijasida vujudga kelgan.


Ko'p asrlardan beri Yaponiya bog'-parkchilik san'atining alohida yirik markazi bo'lib davlatning qadimgi poytaxti Kioto hisoblanadi. Bu yerdagi saroylar qoshida qurilishi XIV–XV asrlardan, ehtimol undan ham avvalroq, boshlangan va hozirgacha o'zining asosiy kompozitsion tamoyillarini saqlab qolgan manzaraviy bog'lar joylashgan. Ular orasida Dzito-dzi (Kumush ko'shkli bog'), Kinkaku-dzi (Oltin ko'shkli bog'), Sayxo-dzi (Moh bosgan bog') hamda Rean-dzi ibodatxona bog'idagi mashhur «toshloq bog'» keng tanilgan (168-rasm). Ayniqsa, Rean-dzidagi «toshloq bog'» to'raligicha yaponcha kompozitsiyaga ega. Manzaraviy bog'dagi ibodatxona hujralari oldida sathi 12×25 metrlik tekis maydon joylashgan bo'lib, unga qum aralashtirilgan mayda shag'al to'shalgan. Shag'al ustida yirik tabiiy toshlarning bir necha guruhi joylashtirilib, u dengiz timsolini ifodalaydi va quruq peyzajli jozibador kompozitsiya hosil qiladi. Aytishlaricha,



Dzito-dzi (Kumush ko'shkli bog')



Kinkaku-dzi (Oltin ko'shkli bog')



Sayxo-dzi (Mox bosgan bog').

168-rasm. Kioto shahridagi manzaraviy bog'lar.

ushbu bog' Dzen buddizmining falsafiy ramzi hisoblanadi. Yapon olimlari bog'ning yaratilgan davrini taxminan XIV–XVII asrlarga bog'laydilar. Bugungi kunda Rean-dzi toshloq bog'i ushbu uslubda yaratilgan bog' kompozitsiyalarining eng qadimgilaridan biri hisoblanadi (169-rasm).


Umuman, Rean-dzi ibodatxona bog'ining rejasi yapon bog'ining muayyan xususiyatini aniqlashga, uni xuddi shunday tabiatga munosabat falsafasiga asoslangan Temuriylar davridagi «chorbog'»lardan



169-rasm. Kioto. Rean-dzi toshloq bog'i.

farqlashga imkon beradi. Yaponiyada bog', odatda, simmetrik tuzilgan binolar guruhi atrofida shakllantirilgan. Temuriylar bog'lari tarkibiga esa bir o'q bo'ylab joylashgan uchta asosiy element – saroy, hovuz, to'rtburchak shaklli gulzor kirgan. Odatda, ular birgalikda guruh bo'lib, simmetrik tizim orqali birlashtirilgan. «Chorbog'»larning jozibadorligi asosiy bog' elementlarini badiiy ko'rinishini boyitish maqsadida qimmatbaho toshlar yordamida naqsh va o'ymakorlik ishlari bilan bezash bo'lgan. Bu borada asosiy manzarali nuqtalar saroy tarzlari, shiyponlar, darvozalar, saroy xonalarining ichki muhitlari, hovuzlar va yog'och ustunlar, eshiklar, shiftlar bo'lgan. Yapon bog'lariidagi maftunkor manzaralar, bog' ko'rinishlari o'zgarishi doimiy bo'lmay, ular maxsus sayrgoh yo'llar bo'ylab loyihalanadi. Bu xususiyat, ayniqsa, Xeyyandzingu (Xeyyan – Kioto shahrining eski nomi) ibodatxona bog'ida yorqin ifodalangan (170-rasm).

Yaponiyada o'rta asr feodal davriga mansub imperator bog'lari va ibodatxonalar qoshidagi manzaraviy bog'lardan tashqari, turar-joylar qoshida ham mo'jaz bog'lar yaratish san'ati keng tarqalgan. Bunday bog'lar ayrim hollarda bir necha kvadrat metr joyni egallaydi. Biroq bunday bog'chalarda yapon bog'ining zaruriy elementlari – mo'jaz tabiiy ko'rinishli havzalar, «yovvoyi» toshloqlar, tosh chiroqlar, pagoda, daraxtlar, yo'laklar, gullar mavjud. Kiotoliklarning an'anasiga ko'ra,



170-rasm. Xeyyan-dzingu ibodatxona bog'ining manzaralari.

ana shunday mo'jaz hovli bog'larining uch xil turi bor: «ke» — ichki ro'zg'or ehtiyojlari uchun mo'ljallangan bog'; «xare» — an'anaviy ramziy marosimlar o'tkazishga xizmat qiluvchi bog'; «suki» — faqat estetik funksiyalarga mo'ljallangan nafasat bog'laridir. Ayrim hollarda bir bog'ning o'zida «ke» va «xare» yoki «xare» va «suki» funksiyalari mujassamlashtirilgan. Ehtimol, aynan ushbu mujassamlardan XVI asrda yaponlarning maxsus choy marosimiga bag'ishlangan milliy bog'lari vujudga kelgandir (171—174-rasmlar).

Ko'p sonli mahalliy maktablarga ega bo'lgan feodalizm davrining bog'-parkchilik san'atida o'z aksini topgan landshaft arxitekturasi Osiyoda hali nisbatan kam o'rganilgan. Ular orasida Hindi-Xitoy, Nepal, Tibet, Shri-Lanka va ko'pgina boshqa mamlakatlarning o'ziga xos mustaqil maktablari mavjud. Masalan, yozma manbalardagi rivoyatlarda Gotam buddasi tug'ilgan «Lumbiniyaning muqaddas bog'lari» hamda Shri-Lankaning saroy bog'lari haqida gapirilgan. Bu o'lkalardagi Myanma (Birma), Amarapura va Mandala shaharlarida hozir ham XVIII—XIX asrlarda yaratilgan saroy bog'larining ayrim qoldiqlarini uchratish mumkin. Bu bog'larning ayrimlari XIX asrda ishlangan suv-bo'yoq tasvirlarida ham muhrlanib qolgan. Tasvirlarda bog'larning rejasi shartli tarzda ko'rsatilgan bo'lsa-da, daraxt va butalarning turi, shakllari, bog'lardagi hovuzlar va inshootlar haqida aniq tasavvur beradi. Ta'kidlash kerakki, yapon bog'larida favvoralar deyarli uchramaydi, biroq aksariyat Yapon bog'larini sharshara va irmoqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi (175-rasm).

Xullas, Yapon bog'ining go'zalligi ikkita asosiy g'oya: miniaturalashtirish va simvol (timsol)lashtirish bilan bog'liq. Yaponiya bog'laridagi yo'laklar to'g'ri o'q chiziqli muntazam rejali emas, balki oval va silliq egik rejali yo'laklardir.

Yapon bog'ining muayyan xususiyatini aniqlash uni xuddi shunday tabiatga munosabat falsafasiga asoslangan Temuriylar davridagi «chorbog'»lardan farqlashga imkon beradi. Yaponiyada bog' yig'iq, odatda, tabiiy manzarali bo'lib, simmetrik tuzilgan muayyan bino atrofida shakllantirilgan. Temuriylar bog'lari tarkibiga esa bir o'q bo'ylab joylashgan uchta asosiy element — saroy, hovuz, to'rtburchak shaklli gulzor kirgan. Odatda, ular bog' bilan birgalikda bir guruh bo'lib, simmetrik tizim orqali birlashgan.

«Chorbog'»larning jozibadorligi, badiiy ko'rinishini boyitish maqsadida bog' elementlari qimmatbaho toshlar yordamida naqsh va o'ymakorlik elementlari bilan bezalgan. Bu borada asosiy manzarali



171-rasm. «Suki» — bu faqat estetik funksiyalarga mo'ljallangan nafasat bog'i.



172-rasm. «Xare» — bu an'anaviy ramziy marosimlar o'tkazishga xizmat qiluvchi bog'.



173-rasm. «Ke» — ichki ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan bog‘.

nuqtalar saroy tarzlari, shiyponlar, darvozalar, saroy xonalarining ichki muhitlari, hovuzlar va yög‘och ustunlar, eshiklar, shiftlar bo‘lgan. Yapon bog‘laridagi maftunkor manzaralar, bog‘ ko‘rinishlarining o‘zgarishi doimiy bo‘lmay, ular maxsus sayrgoh yo‘llar bo‘ylab loyihalangan.

Yapon bog‘-park san‘atida quyidagi 8 ta tamoyilga amal qilinadi:

- bog‘ yaratishda mahalliy sharoit va holatlarni e‘tiborga olish;
- atrofdagi tabiat ko‘rinishidan maksimal foydalanish;
- asosiyni ikkinchi darajadagidan ajrata bilish;
- kontrastlik effektini qo‘llash: katta va kichik, yorug‘ va qorong‘u, keng va tor, baland va pastqam;
- kichik muhitda katta imkoniyatlarga erishish;
- shakllar va peyzajlar uyg‘unligi va mutanosibligiga amal qilish;
- tabiat manzaralarining ketma-ket o‘zgarib borishini ta‘minlash;
- peyzajlar ko‘rinishlarida mavsumiylik, ya‘ni vaqt ta‘sirini e‘tiborga olish.



174-rasm. O'zida «ke», «xare» va «suki» bog'lari funksiyalarini mujassam etgan bog'.



175-rasm. Yapon bog'i landshaftiga xos bo'lgan tabiiy sharshara va suv havzasi.

III B O B


SHARQ MAMLAKATLARINING ZAMONAVIY BOG'-PARKCHILIK SAN'ATI

3.1. Eron va Turkiyaning zamonaviy bog'-parklari


Eronning zamonaviy bog'lari bu o'lkada tarixiy shakllangan an'anaviy bog'lardan farq qilib, o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Xushmanzara voha, daryolar va qirliklar, tog'larda yaratilgan tabiiy bog'lar, qo'riqxonalar, milliy parklar, bolalar bog'lari, suv-bo'ylaridagi sohil bog'lari, gul bog'lari va, nihoyat, shaharlarda zamonaviy turar-joylar tarkibidagi hovli bog'lari (chorbog'lar) ana shunday xilma-xillikni tashkil qiladi. Shular ichidan «chorbog'» yoki «choharbog'»lar, zamonaviy milliy parklar va gullar bog'i Eronda keng tarqalgan (176-, 177-rasmlar).

Hozirgi qurilayotgan hovlili zamonaviy turar-joylar tarkibidagi mo'jaz bog'lar Eronning an'anaviy hovli chorbog'lariga ko'p jihatdan o'xshaydi, ya'ni ular muntazam rejali, to'rt qismli mo'jaz hovli bog'lari bo'lib, atrofi ichki yo'lak va devorlar bilan aylantirilgan. Bog'da o'ziga xos manzaraviy yashil muhit bunyod etilgan. Aksariyat hovli chorbog'larini xususiy qurilgan muntazam rejali sug'orish tizimi bilan ta'minlangan bo'lib, ulardagi mo'jaz ariq va kanallardan oqayotgan suvning shildirashi dilni yayratadi. Yoz paytlari mo'jaz hovli bog'larda mehmon qabul qilinadi. Atrof gulzor, tuvaklarda xushbo'y va yorqin gullar o'stiriladi. Daraxt va butalardan, devorlar va uydan tushgan soyalar, bog' markazidagi favvora va ariqdagi suvlar hovli iqlimini salqin qiladi, unga bamisoli «behisht», ya'ni jannat bog'i ramzini beradi. Ayrim zamonaviy hovli bog'lari sathiga tekis maysa ekilib, o'rtadagi favvora va to'rdagi ko'shkdan tashqari, kechqurun yoritadigan tosh chiroqlar, haykallar va o'rindiqlar ham did bilan joylash-tirilgan.

Yuqorida eslatganimizdek, Eronda erkin tabiat bag'rida, xushmanzaralarga boy daryo va ko'llar, qirliklar, baland tog' va qoyalar qo'ynida, Eronga xos milliy flora va fauna genafondini tashkil qiluvchi go'zal tabiatli yashil voha-vodiylarda qator qo'riqxonalar va ular asosida milliy parklar yaratishning boy tajribalari orttirilgan.



176-rasm. Muntazam bog' landshaftiga xos parter maysazorlar va yashil to'siqlar.



177-rasm. Eron. Zamonaviy jamoat binosi atrofida tashkil etilgan bog'.

Kirmon viloyatida joylashgan va rezervatsiyalangan Ruchun yovvoyi tabiatini o'z tarkibiga olgan Xabr milliy parki va tabiat qo'riqxonasi, Dergez okrugi (Shimoliy Xuroson)dagi Tandura tabiat kompleksi: milliy park va qo'riqxonasi, Shimoliy Tehronga yaqin joylashgan Tochal tog' cho'qqisi va Jamshidiya tabiat parki, Isfaxon viloyatidagi Najvon milliy parki va undagi «Qushlar oroli bog'i», Fars viloyatidagi Baxtegan ko'li qo'riqxonasi va parki, Bamu milliy bog'i, Urmiya ko'lida tashkil qilingan milliy parklar, Koshon shahri atrofidagi atirgullar bog'i va boshqalar Eronning ochiq muhitda yovvoyi tabiat qo'ynida yaratilgan zamonaviy milliy bog'-parklari tizimini tashkil qiladi.

Tabiiyki, bu bog'-parklar erkin tabiiy landshaftli katta hududlarni o'z ichiga olgan va shaharlar tashqarisida joylashgan. Shunga qaramay, shaharlar bilan qulay bog'langan bu parklar shaharliklar uchun ham, xorijiy sayyohlar uchun ham doim ochiq bo'lib, go'zal tabiat qo'ynidagi dam olish va istirohat bog'lariga aylantirilgan. Ularda dam olish uylari, kurortlar, sanatoriyalar, sport bog'lari, hayvonot bog'lari, gidroparklar, bolalar lagerlari, ilmiy-tadqiqot maskanlari tashkil qilingan.

Eron shaharlarida keng xalq ommasiga mo'ljallangan ko'p funksiyali madaniyat va istirohat bog'lari yo'q. Biroq ularning funksiyasini erkin tabiat quchog'ida ulkan hududda joylashgan milliy parklar bajaradi. Masalan, Isfaxon shahridan oqib o'tadigan Zayanderud daryosi sohillari bo'ylab joylashgan Najvan tabiat parkini olaylik. Bu park Isfaxon shahri havosini sog'lomlashtirishga xizmat qilishdan tashqari, shahar xalqining erkin tabiatda dam oladigan istirohat bog'i ham hisoblanadi. Bog'da ko'plab sport va bolalar o'yin maydonlari, cho'milish va suzish suv havzalari, kempinglar va ovqatlanish joylari, gushlar bog'i mavjud, kabrioletlar va otlarda sayr qilish, qayiqlar va velosipedlarda hordiq chiqarish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, parkda sog'lom va faol dam olish, sport turlari bilan shug'ullanish, erkin hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Faqat qushlar bog'ining o'zi 55 ming kv.metrni tashkil qilib, unda 5 mingdan ziyod turli qushlar makon topgan. Bog'dagi to'rtta katta va kichik suv havzalarida o'rdak, g'oz, turna, flamingo va boshqa ko'plab suvda suzuvchi qushlar yashaydi. Bog'ning sharqiy qismidagi «Saxre bog'»da esa tog' va sahro qushlari joylashtirilgan. Zayanderud daryosidagi ulkan orol ham «Qushlar bog'i»ga aylantirilib, park bilan yog'och ko'prik orqali bog'langan.


Shu bilan birga, musulmon arxitekturasi diqqatga sazovor yodgorliklariga boy bo'lgan Eron mamlakati o'rta asr arxitekturasi noyob, butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan monumental durdonalarini, bugungi kunda ham davrlar osha o'z xalqiga xizmat qilayotgan qadimiy «chorbog'»larini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Bunday bog' komplekslari hududlarida ommaviy va madaniy, milliy bayramlar tantanalari, an'anaviy sport musobaqalari, xalq folklorining musiqali festivallari o'tkaziladi, odamlar hordiq chiqaradilar, bo'sh vaqtlarida sayr qiladilar (178-rasm).

Eronning provinsial shaharlarida saqlanib qolgan, o'sha davrning hukmdorlari, zodagonlariga tegishli bo'lgan, uncha katta bo'lmagan, xususiy uylarning o'rta asr arxitektura ansambl komplekslari tizimidagi «chorbog'»lar sayyohlarning bo'sh vaqtlarini o'tkazadigan eng sevimli joylaridir (179-rasm). Bunday ixcham bog'lar yangi uylar hovlilari muhitida ham mavjud (180-rasm).

Erondagi kabi Turkiyada ham o'rta asr monumental yodgorliklari bo'lgan masjid, saroy va madrasa muhitidagi bog' komplekslari saqlanib qolgan. Bu bog'larda Sharqning nafasini, antik davr shabadasini, ming yillar davomida barpo bo'lgan bog'-park qurilishi an'alarini borlig'ingiz bilan his etasiz. Milliy kolorit — bu ajoyib san'atning takrorlanmas omillaridan biridir.

O'rta asrlardan saqlanib qolgan zamonaviy Turk bog'larida qilgan sayringiz bugungi kun haqiqatidan kichkina bir ertakka tushib qolgan bir umr yodingizda qoladi. Igna bargli o'rmonlar, toza va nam havo, tog' cho'qqilari, yam-yashil tepaliklar, xushbo'y hid taratadigan gulzorlar. Bu yerda ko'krakni to'ldirib nafas olish va hayot gashtini surish mumkin. Boy arxitektura merosi bo'lmish qadimiy sivilizatsiyalarning sirli qoldiqlari, afsonaviy saroylar bog' kompleksining dominantlari bo'lib, jannatga dahldorlik hislari tuyg'usini yanada boyitadi, to'ldiradi.


O'rta asr muntazam va peyzajli bog'larining kompozitsiyaviy an'analari bizning davrimizgacha saqlanib, yetib kelgan (181-, 182-rasmlar). Turkiyaliklar qadimgi arxitekturaning bu an'alarini muqaddas bilib asrab kelganlar. Turk bog'lariga bir qadam ranjida qilgan odam o'zi uchun takrorlanmas yangilik kashf qiladi. Xususiy uylardagi zamonaviy bog'larning maxfiy va sirli burchaklari, zamonaviy parklarning muntazam yoki erkin shakllangan muhiti, plyajlarning ko'ngilochar komplekslari kishini ohangrabodek o'z bag'riga tortadi (183–185-rasmlar).




178-rasm. O'rtta asr arxitektura ansambli hovlisida saqlanib qolgan «chorbog'» hududida o'tkazilayotgan ommaviy marosim.




179-rasm. O'rtta asr xususiy uyning hovlisidagi zamonaviy «chorbog'».




180-rasm. Zamonaviy uy tizimida shakllantirilgan an'anaviy «chorbog'».




181-rasm. Istanbul. Binolar atrofida shakllangan erkin «peyzaj»li bog' landshafti.




182-rasm. Markaziy o'q va bosh binoga bo'ysungan «muntazam» rejali bog'.



183-rasm. Xususiy uy qoshidagi «muntazam» rejali zamonaviy bog'.



184-rasm. Erkin rejali zamonaviy tabiiy peyzajli bog'.



185-rasm. Turkiyaning plyajli madaniy ko'ngilochar bog' kompleksi.

Xulosa qilib aytganda, Eronning zamonaviy turar-joylar tarkibidagi mo'jaz bog'lari ham an'anaviy hovli «chorbog'»lariga ko'p jihatdan o'xshaydi, ya'ni ular muntazam rejali, to'rt qismli mo'jaz hovli bog'lari bo'lib, atrofi ichki yo'lak va devorlar bilan aylantirib o'ralgan, bog'da o'ziga xos manzaraviy yashil muhit hosil qilingan.

Eronda go'zal tabiatli yashil voha va vodiylarda qator qo'riqxonalar va ular asosida milliy parklar yaratishning boy tajribalari orttirilgan. Bu bog'-parklar tabiiy landshaftli katta hududlarni o'z ichiga olgan va shu boisdan ham shaharlar tashqarisida joylashgan. Ularda dam olish uylari, kurortlar, sanatoriyalar, sport bog'lari, hayvonot bog'lari, gidroparklar, bolalar lagerlari, ilmiy-tadqiqot maskanlari tashkil qilingan.

Turkiyaning zamonaviy bog'-parkchilik ijodida xuddi Erondagiday 2 tipdagi bog'lar kuzatiladi: birinchisi, o'rta asr monumental obyektlari bo'lgan masjid, madrasa va saroy muhitida saqlanib qolgan bog' komplekslari bo'lib, ular ham o'z navbatida muntazam tarzda shakllangan chorbog'lar va peyzajli bog'larga bo'linadi. Ikkinchisi, xususiy uylar hovlisidagi zamonaviy katta bo'lmagan bog'lar, madaniyat va

istirohat bog'lari, ko'ngilochar kompleks-plyajlar bo'lib, ular ham muntazam rejali yoki erkin kompozitsiyalarda shakllangan bo'lishi mumkin.


3.2. O'zbekistonning zamonaviy bog'-parklari¹

O'zbekistonda XX asr boshlari va o'rtalarida shaharsozlik va landshaft arxitekturasi, bog'-park san'atining shakllanishi.


O'rta Osiyo respublikalari, shu jumladan, O'zbekistonda XX asr boshlari va o'rtalaridagi shaharsozlik va landshaft arxitekturasi, xususan, bog'-park san'atining shakllanishi va uning g'oyaviy yo'nalishini belgilashda 1935-yilda qabul qilingan «Moskva shahrini qayta qurishning bosh rejasi» haqidagi qarori muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Moskva shahrini qayta qurish va rivojlantirish loyihasida ko'rsatilgan aksariyat me'moriy va shaharsozlik tamoyillari Markaziy Osiyo respublikalarining poytaxtlari — Toshkent, Dushanbe, Olma-ota, Ashxobod, Bishkek shaharlarining ham bosh rejalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi. Shuni ta'kidlash zarurki, ushbu shaharlarning bosh rejalarini loyihalashda mahalliy shaharsozlar bilan bir qatorda Moskva va Sankt-Peterburg me'morlari ham faol qatnashdilar. Bu loyihalarda ko'rilgan masalalar nafaqat rejaviy, texnikaviy, ekologik va transport muammolariga, balki landshaft arxitekturasi va bog'-park san'atiga ham aloqador edi. Jumladan, dastlab 1924—1931-yillarda, so'ngra 1933—1937-yillarda ishlab chiqilgan Toshkent shahrini qayta rejalashtirish va ko'kalamzorlashtirish loyihalarida «eski» shahar bilan «yangi» shaharni qo'shib, yaxlit bir shaharsozlik organizmini vujudga keltirish, yangi turar-joy hududlari va markazini yangidan tashkil etish, transport magistrallarini o'tkazish, bog'-parklar, xiyobonlar bunyod etish, shahar hududidan o'tuvchi mavjud suv havzalaridan foydalanib, ularning sohillarida ko'kalamzor istirohat maskanlarini tashkil etish ko'zda tutildi (186—188-rasmlar).

Toshkent shahri uchun madaniyat va istirohat parkining birinchi loyihasini Y.K.Gaazenkopf ishlab chiqdi. Gaazenkopfning asl mutaxassisligi agronom bo'lsa-da, u ayni paytda landshaft arxitektori


¹ O'quv qo'llanmaning ushbu qismini yozishda mualliflarning shaxsiy materiallaridan tashqari, SamDAQI magistrarlari va stajor tadqiqotchi-izlanuvchilari B.Elmuurodov, A.Aymatov, N.Fayzullaeva, D.Sultonov, E.Toshev, R.Shodmonovlar to'plangan lavhalar va fotomateriallardan foydalanildi.




186-rasm. Toshkent shahri markaziy qismining shaharsozlik va landshaft yechimi loyihasi. Bosh reja, 1924-yil.



187-rasm. Toshkent shahrini ko'kalamzorlashtirish bosh chizmasi, 1937-yil.




188-rasm. Toshkent shahrining yangi va eski qismlari istirohat obyektlarining o'zaro bog'lanishi.




189-rasm. Toshkentdagi ilk dam olish bog'i (Toshkent Kuranti yonidagi bog').
Bosh reja, 1928-yil. Arxitektor Y.K.Gaazenkopf.

ham edi. U 1926–1932-yillarda Toshkent va Ashxobod shaharlari uchun 20 dan ziyod turli xil landshaft obyektlari: xiyobonlar, bog'lar, parklar, gulzorlar loyihalarini ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Gaazenkopf o'sha yillari Toshkent shahrining ko'kalamzorlashtirilishi va bog'-parkchiligini o'zida aks ettiruvchi uchta ajoyib albom tuzib, ularga o'zi ishlagan va amalga oshirgan barcha landshaft obyektlarini kiritdi (189-rasm).

Birinchi albom — «Toshkent shahrini ko'kalamzorlashtirish. Shahar qurilishi, 1926–1932-yillar» deb nomlanib, unda Toshkentning 1929-yildagi rejasi va shahar hududida ko'zda tutilgan barcha katta-kichik bog'lar, parklar, xiyobonlar, skverlar va ularning loyihalari ko'rsatilgan. Dam olish bog'i, Kafanov nomidagi bog', Obuxov xiyoboni, Toshkent shahar soveti oldidagi gulzor, Qardoshlar mozori va Federatsiya parki, Xiva skveri, O'rda-Xadra yashil halqasi, Baland masjid qoshidagi bog', Kichik hospital ko'chasidagi 1-May nomli park, Universitet oldidagi gulzor, 1-May parki, Forobiy parki, Golovachev skveri, Jangoh (Pushkin) parki, shahar gulzor bog'i shular jumlasidandir. Albomda ushbu obyektlarning loyihagacha holati va qayta ishlanib amalga oshgandan keyingi holatlari ko'rsatilgan (190-, 191-rasmlar).



190-rasm. Toshkent. Hozirgi O'zbekiston Milliy istirohat bog'ining dastlabki rejasi. 1939-yil.



191-rasm. «G'alaba» bog'ining rejasi. 1947-yil.


Gaazenkopfning **ikkinchi albomi** (1931-yil) Toshkent shahrining madaniyat va istirohat parkiga bag'ishlangan. Albomda parkning ikki xil hududda bajarilgan loyihalari (Qorasuvda – maydoni 70 gektarga va Bo'zsvuda – maydoni 100 gektarga yaqin loyihalari, 1 : 3000 masshtabda) berilgan (192-, 193-rasmlar). Park hududlaridan birining ko'ndalang kesimi, Toshkent ko'chalarini maqsadli ko'kalamzorlashtirish uchun ularning 11 ta ko'ndalang kesimlari, bolalar o'yin-gohlari, jismoniy tarbiya-sport maydonchalari, markaziy oranjeriyadan tortib, gul do'konlarigacha mo'jaz me'moriy shakllar ishlanib, ularning aksariyati o'sha yillarda amalga oshirilgan.

Uchinchi albomda Turkmaniston botanika bog'ining loyihasi ishlangan (1929-yil). Gaazenkopfning yozishicha, bog' inglizcha, ya'ni peyzajli erkin tabiat ko'rinishida, bog'dagi gulzorlar italyancha, bog'ning ko'rgazmalar hududi esa fransuzcha uslubdagi rejaviy yechimlarda loyihalangan.

1938–1939-yillarda arxitektor A.Kuznetsov rahbarligida Toshkent shahrining yangi bosh rejasi ishlab chiqiladi. Bu Toshkentning



192-rasm. Arxitektor Y.K.Gaazenkopf loyihalashtirgan Bo'zsuvdagi shahar markaziy madaniyat va istirohat bog'ining bosh rejasi. 1931-yil.



193-rasm. Arxitektor Y.K.Gaazenkopf loyihalashtirgan Qorasuvdagi shahar markaziy madaniyat va istirohat bog'ining bosh rejasi. 1931-yil.

istiqboldagi 20—25 yilga mo'ljallanib tasdiqlangan birinchi bosh rejasi edi. Unda shahar aholisining loyihaviy soni 900 ming kishiga, hududi esa 13,8 ming gektarga hisoblangan edi. Moskva shahri tajribalariga asoslanib, Toshkentning asosiy magistrallari radial-doira rejali ko'chalar orqali oltita ma'muriy tumanni birlashtiradi. Har bir tumanda turarjoy massivi, jamoa binolari, madaniyat va istirohat bog'lari, xiyobonlar joylashtirish, sun'iy suv havzalarini tashkil qilish, ko'kalamzorlashtirish va suv ta'minoti masalalari ko'zda tutilgan.

1939-yili toshkentliklar maydoni 29 gektarga teng, dam olish va suv sporti bilan shug'ullanishga mo'ljallangan chiroyli park-ko'l (hozirgi O'zbekiston Milliy istirohat bog'i)ga ega bo'ldilar. Parkda plyajlar, ochiq suv stadioni, yashil teatr, qayiq stansiyalari, bolalar temiryo'li, attraksionlar, ko'lining gir atrofi bo'ylab sayrgoh xiyobon tashkil qilindi. Park obyektlarini o'zaro bog'lovchi ushbu xiyobon gohida suv bo'yiga yaqin keltirilib sohilga aylantirilgan, gohida daraxtzorlar ichiga kiritilgan. Xiyobon bo'ylab yurgan kishining ko'z o'ngida yangidan-yangi go'zal tabiat peyzajlari — ochiq va yopiq yashil maydonlar, sohillar va suv havzalari almashinib turadi.

Toshkent shahri bog'-park san'atining shakllanishida sun'iy suv havzalari: ko'llar, anhorlar, favvoralar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Milliy bog'i park-ko'lining qurilishidan so'ng ko'p o'tmay katta tabiiy suv havzasiga ega bo'lgan «G'alaba» parkining qurilishi (1946–1947-yillarda) boshlab yuborildi. Har ikkala park shahar mikroiklimini sog'lomlashtirish va uning chiroyini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda O'zbekiston Milliy istirohat bog'i shimol tomonga kengaytirilgan. Bu kengaytirilgan qism Navoiy haykali bilan birga an'anaviy chorbog' uslubida shakllantirilib, bu bog' muhiti «Istiqlol» san'at saroyi hududiga qo'shib ketgan. Bog'da har yili Sharq xalqlarining yangi yili va bahor milliy bayrami — «Navro'z» ommaviy tarzda tantana qilinadi. Buning uchun unda bosh va yonbosh xiyobonlar, sayrgoh yo'laklar, teatrlashtirilgan tomoshalar uchun maxsus joylar tashkil etilgan. Bog' hududi chamandek yashnab turadi.

Toshkent shahrining hozirgi markazi asosan 1966–1974-yillarda qurib bitirildi. Markaz o'rnida ilgari 1966-yildagi yer qimirlashidan vayron bo'lgan turar-joy mavzesi mavjud edi. Asosiy masala poytaxt markazi binolari uchun yangi zamonaviy masshtab topish, O'zbekistonning buguni va kelajagini ushbu markaz hamda undagi markaziy maydon va binolarda aks ettirish lozim edi. Arxitektor L.Adamov va S.Adilovlar boshchilik qilgan mualliflar guruhi bu vazifani ustalik bilan ado etdilar. Umumiy maydoni 1,5 ming gektar, sharqdan g'arbga cho'zilgan o'q bo'ylab uzunligi 5 kilometr ga yaqin bu yangi markaz hukumatning ma'muriy binolari, madaniy-ma'rifiy binolar, sport inshootlari hamda yirik savdo markazlari va ulkan ko'kalamzorlarni o'z ichiga oladi. Shaharning qoq markazida tashkil etilgan «yangi voha» va uning keng ochiq hamda yopiq yashil maydonlari, bu maydonlar uzra joylashgan jamoat binolaridan tuzilgan ansambllarni,

shaharning tarixiy tashkil topgan avvalgi markazlarini Navoiy shohko'chasi orqali birlashtirdi. Bu yangi markaz o'zining noyob kompozitsiyasi, mahobatli me'moriy-shaharsozlik ko'lami va landshaft yechimi bilan ajralib turadi.



Ulkan va keng Mustaqillik maydonini tashkil etgan tik kompozitsiyali ko'p qavatli binolar va ularga kontrast tarzda cho'zinchoq joylashgan ma'muriy muassasalar, maydonni bir necha pog'onaga bo'lib turuvchi keng suv havzalari, ulkan favvoralar sharsharasi o'ziga xos va takrorlanmas ishlangan. Markaziy maydonning shakllanishiga va unga emotsional-badiiy tus berishda Mustaqillik monumentining roli katta. Uning me'moriy kompozitsiyasi, joyi va maydonga nisbatan masshtabi juda original topilgan. Mustaqillik maydoni Navoiy shohko'chasi tomonidan ilgarigi Noma'lum askar yodgorligi asosida 1990-yilda qurilgan «Xotira va qadriyat» xiyoboni bilan tugallanadi. Ushbu xiyobon atrofi go'zal va maftunkor manzarali «chorbog'» rejasida shakllangan. Bu maydonda Temuriylar davrining simmetrik-markaziy tizimli kompozitsiyasi qayta tiklandi. Keng maydonda juda qulay joylashgan «chorbog'» bugungi kunda shahar landshafti kompozitsiyasida yetakchi hisoblanadi (194-, 195-rasmlar).

Markaziy maydon maysazorlar, daraxlar qatori, gulzorlar va favvoralar bilan to'ldirilgan. Ushbu maydondagi ochiq va yopiq yashil muhitlar sathining nisbati bir-biriga yaqin. Shuning uchun ham ulkan sharsharali otma favvoralar issiq yoz kunlari maydondagi haroratning oshib, namlikning esa pasayib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Aksincha, ushbu favvoralar tegarasida va binolar soyasida kishiga yoqimli, yengil shabada effekti vujudga kelgan. Mustaqillik maydonida har yili O'zbekistonning Mustaqillik milliy bayrami ommaviy tarzda tantana qilinadi.


Hozirgi Toshkent shahri ko'chalari, ayniqsa shohko'chalar, jamoat binolari atroflari yanada kengaytirilib, yashil tusga, bog'lar fayziga kiritilgan (196-rasm).

Shahar markazidagi yashil muhitga Burjar kanalining go'zal va maftunkor sohillari, Bo'zsuv arig'ining obod qirg'oqlari kelib qo'shilgan. Bularning hammasi «Paxtakor» stadioni mavzesidagi yashil massiv va xiyobonlar bilan birga Toshkent markazida o'ziga xos «yashil oazis»ni vujudga keltirgan.

Xuddi shunday istirohat markazlari, bog'-xiyobonlar, maydonlar va ochiq muhitlar landshaft arxitekturasi O'zbekistonning boshqa shaharlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Zarafshon, Andijon, Urganch va Termizda ham amalga oshirilgan.



194-rasm. Toshkent. Mustaqillik maydonida «chorbogʻ» tizimida shakllangan bogʻ muhiti.






195-rasm. Toshkent. Mustaqillik monumenti va «Baxtli ona» kompozitsiyasining landshaft muhiti.

Samarqand shahrining mustaqillik yillaridagi bog'-park san'ati.

1981-yil Samarqand shahri markazining batafsil rejaviy loyihasi ishlanib, unda shahar markazini, ayniqsa uning markaziy xiyobonini janub tomonga Lolazor mavzesigacha kengaytirish ko'zda tutiladi. Loyihada bog'-park san'ati va landshaft obyektlarining uzluksiz yaxlit tizimini yaratish va ularning mavqeyini me'moriy obyektlarga tenglashtirish g'oyasi ilgari suriladi.

Shaharda landshaft arxitekturasining tarixiy shaharlarga xos juz'iy obyektlari mavjud. Ulardan biri hozirda «Universitet xiyoboni» deb nomlanuvchi xiyobondir. 1870-yillarda bunyod etilgan ushbu xiyobonning ayrim joylarida toshdan ishlangan barelyef-haykallar o'rnatilgan (197-rasm).

Shahar markazida Alisher Navoiy bog'i takrorlanmas ko'rinishda shakl topgan. Bu yerda Alisher Navoiyning tik turgan haykali o'rnatilgan va uning atrofida gulzorlar, park muhiti joylashtirilgan.




196-rasm. Toshkent shahridagi bog'-rog'larga burkangan binolar atrofidagi ochiq muhitlar arxitekturasi.


Ushbu majmuadan shimol tomonda Hamid Olimjon nomidagi teatr binosi oldida katta skver tashkil etilib, undagi xiyobon va gulzorlar aro o'ziga xos pog'onali otma favvoralar ansambli bunyod etilgan. Xuddi shunday zamonaviy otma favvoralar va chaman-gulzorlar ushbu skver va xiyobonga, «Universitet xiyoboni»ga, unga yaqin joylashgan Afrosiyob mehmonxonasi, Amir Temur va Ruhobod maqbara majmualari qoshida, Dahbed ko'chasi yonida va ularga boriladigan yo'llar chetida ham tashkil etilgan (198-rasm).



197-rasm. Samarqand. Universitet xiyoboni.



198-rasm. Samarqand. Dahbed ko'chasi yonida tashkil etilgan bog'-xiyobon.





199-rasm. Registon maydoni va uning atrofida bunoyd etilgan bog'lar.

Samarqanddagi Registon me'moriy ansamblining maydonini qayta tiklash loyihasi ko'ra, dastlab 1968-yilda, so'ngra 2004–2010-yillarda ansambl atrofidagi shakllangan jamoat binolari buzib tashlanib, ularning o'rnida bog'-park hududi va ochiq gulzorlar vujudga keltirildi. Bu harakat Registon ansambliga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ulug'vor ansambl yangi yaratilgan keng muhitda o'zining asl mashtabi, mahobatini qayta tikladi (199-rasm).

Samarqandning yangi shahar markazida vujudga kelgan keng ma'muriy maydon o'z mashtabiga ko'ra o'ta behad hisoblanib, uning landshaft yechimi takomiliga yetkazilmagan edi. Aksariyat qismiga asfalt, beton, qolganiga yirik beton plitalar va tosh to'shalgan keng katta ochiq maydon yozning jazirama issiq kunlari yanada isib, qishda esa sovub ketardi. Maydon iqlimini muvofiqlashtirish va maydonning me'moriy-landshaft yechimini yaxshilash maqsadida bu yerda «Favvoralar bog'i» bunyod etildi. Fikrimizcha, vazifasidan qat'iy nazar ushbu maydonda yopiq yashil muhit hajmini ko'paytirish, uni an'anaviy chorbog' va xiyobon uslubida shakllantirish maqsadga muvofiqdir (200-rasm).



Samarqandda 2002-yili ilgaridan mavjud «Ozero» parki qayta ishlanib, zamonaviy bolalar akvaparkiga aylantirildi. U o'zining jo'shqin me'moriy shakllari, suv attraksionlari va haykallari bilan ajralib turadi. «Sug'diyona» massivida esa yangi akvapark barpo etildi (201-, 202-rasmlar).



200-rasm. Samarqand shahri markazidagi ma'muriy maydon va unda bunyod etilgan «Favvoralar bog'i» loyihasi.



201-rasm. Samarqand. «Bolalar» akvaparki. 2002-yil.



202-rasm. Samarqand. «Sug'diyona» massivida bunyod etilgan akvapark. 2002-yil.

Buxoro shahrining mustaqillik yillaridagi bog‘-park san‘ati.

Yurtimiz istiqlolga erishgach, madaniy merosimizga, milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. O‘zligimizni anglab yetdik. Shu asnoda ona tabiatning ajralmas bir bo‘lagi sifatida biz yon atrofga, borliqqa teran nazar bilan qarashga o‘rgandik. Bog‘dorchilik sohasidagi qadimiy an‘analar ham qayta tiklana boshladi. Sharif shahrimizda barpo etilgan «Istiqlol», «Fathobod», «Fitrat», «Xoja Ismat Buxoriy» bog‘lari fikrimizning dalilidir. O‘nlab tabarruk qadamjolarida obodonchilik ishlari amalga oshirilib, bog‘-rog‘lar, gulzorlar barpo etildi. Kishining bag‘ri-dilini ochuvchi bu bog‘lar yurtimiz tarovatiga tarovat qo‘shayapti. Mamlakatimizning barcha go‘shalarida bo‘lgani kabi, Buxoroda ham obodonchilik, bunyodkorlik ishlarining qamrovi tobora kengaymoqda. Xususan, bevosita yurtboshimiz I.A.Karimov tashabbuslari bilan barpo etilgan «Ko‘hna va Boqiy Buxoro» yodgorlik majmuasi bu qadimiy go‘shada yashovchi minglab insonlar yuragida quvonch va faxr-iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi. Bu majmua, eng avvalo, o‘zida qadimiylilik va boqiylikni ifoda etishi nuqtayi nazaridan qadrlidir. Unda Buxoroning azal-azaldan qadimiy-sivilizatsiyalar makoni, din-u diyonat quvvati, ilm-ma‘rifat, madaniyat o‘chog‘i bo‘lib kelayotgani o‘z ifodasini topgan (203–209-rasmlar).


107 gektar maydonni egallagan ushbu majmua shahar bosh tarhining shimoliy qismida joylashgan bo‘lib, markaziy avtomagistral yo‘l orqali Buxoro shahriga kirib kelayotgan mehmonlarni qarshi oladi. Majmua loyihalangan maydonda sobiq Ittifoq davrida sun‘iy ko‘l va uning atrofida tabiiy shakllangan bog‘ mavjud edi. Ko‘p yillar qarovsiz qolgan bu yerda bugungi kunda shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turgan go‘zal bog‘ ansambli shakllangan.

Majmuada milliy an‘analarimizni o‘zida majassam etgan 750 o‘rinli zamonaviy drama teatri binosi, 2000 kishi sig‘imidagi amfiteatr binosi va Buxoroning oltin tuprog‘ini ifodalovchi yodgorlik qad ko‘targan (204-, 205-, 207-rasmlar).


Majmuaning umumiy maydoni assimetrik shaklda bo‘lishiga qaramay, markazda janubi-g‘arbga yo‘nalgan o‘q bo‘ylab to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi «chorbog‘» shakllantirilgan. Bu to‘rtburchak sakkiz bo‘lakka bo‘lingan. «Chorbog‘»ning to‘rida markaziy o‘qda musiqali drama teatri binosi markazga qarab joylashtirilgan. «Chorbog‘» markazida yo‘laklardan aylana tashkil qilinib, sun‘iy tepalikda «Ko‘hna va Boqiy Buxoro» yodgorligi o‘rnatilgan. Yodgorlikning poyida elektr yoritgichlar bilan bezatilgan uchta otma favvoralar mavjud.




203-rasm. «Ko'hna va Boqiy Buxoro» majmuasining shahar bosh tarhida joylashishi.



204-rasm. «Ko'hna va Boqiy Buxoro» bog' majmuasida joylashgan S.Ayniy nomidagi musiqali drama teatri.



205-rasm. «Koʻhna va Boqiy Buxoro» bogʻ majmuasida joylashgan 2000 kishilik amfiteatr.



206-rasm. «Koʻhna va Boqiy Buxoro» bogʻ majmuasidagi favvoralar atrof mikroiklimining yaxshilanishiga xizmat qiladi.




207-rasm. «Ko'hna va Boqiy Buxoro» bog' majmuasidagi yodgorlikning ushbu barilyefi insonlarni bog'lar yaratishga da'vat etadi.

Majmuaning markazidagi aylana maydonning ikki yon tomonidan yarimaylana shaklini hosil qilib, unga yo'laklar kelib qo'shilgan. Pastroqda esa 2000 kishilik amfiteatr binosi markazga qarab o'rnatilgan. Markaziy ochiq xiyobonning ikki tarafida, teatr binosi atrofida, yodgorlik o'rnatilgan tepalikda, amfiteatr atrofida doim yashil maysalar ekilgan. Maysalar uzra rang-barang gullardan rabatka va klumbalar tashkil qilingan.

«Chorbog'»da Belgiyadan keltirilgan noyob daraxtlar: kashtan, katalpa, do'lana (boyarishnik), qora qarag'ay, «Alkoleyd» gilosi, yapon qarolisi, sakura, qishki gilos, edons gilosi, eman (dub), chetan (ryabinya), g'arb tuyasi, vigela, shumtol (yasen), jo'ka (lipa), o'rmon yong'og'i (leshina), zarang (klyon), zirk (barbaris), Budlaya Davida, skullpiya, irg'ay (kizilnik), deysiya, enkiantus, beresklet, magoniya, nok ekilgan.

«Chorbogʻning atrofi turli shakldagi boʻlaklarga boʻlingan. U yerda mahalliy manzarali daraxtlar: qora archa (mojjevelnik), zarang (klyon), katalpa, qayragʻoch, majnut tut, shumtol (yasen), sharq tuyasi, mujassam tuya, eman (dub), yapon saforasi, terak, jiyda, yovvoyi xurmo, pisarda qarolisi, akatsiya, sovun daraxti, qayin (beryoza), bagryanik, farzitsiya, yapon behisi, amorfa, aylant, makyuralar ekilgan (208-rasm).

Umumiy hisobda 80 turdagi 72 ming dan ortiq nihol ekilgan. Bogʻda qulay oʻrindiqlar, yoritgichlar, kichik suv purkagichlar tizimi mavjud. Bu Buxoroga xos boʻlgan issiq va quruq iqlim sharoitida muhim ahamiyatga egadir. Yozning jazirama kunlarida quyosh botgandan soʻng bogʻ oilaviy sayrga chiqqan buxoroliklar va shahar mehmonlari bilan gavjum.




208-rasm. «Koʻhna va Boqiy Buxoro» bogʻ majmuasining bosh tarxi.

Majmuaning janub tomonida bolalar istirohat bog'i ham mavjud. Istirohat bog'ining ikki tomoniga aylana ayvonlar qo'yilgan. U yerda bolalar uchun muzqaymoq kafesi joylashgan. Bog' tarhda simmetrik shaklga ega. Markaziy o'qdan o'tgan xiyobon umumiy hududni ikkiga bo'ladi. Har bir bo'lakda bolalar uchun o'yin maydonchalari va charx-palaklar mavjud. Ularni 209-rasmda keltirilgan tarhdan kuzatish mumkin.



Bog'ning landshaft muhitini yaratishda turli xil daraxtlar ekilishiga alohida e'tibor berilgan. Daraxtlardan: eman, eldar qarag'ayi (sosna eldarskaya), qora archa, tuya, shumtol, zarang, sovun daraxti, katalpa, yukka, safora, tut, ipak akatsiya (shelkovaya akatsiya), amorfa, samshid, yapon behisi, qayrag'ochlar ekilgan. 16 turdagi daraxtlar bog'ning landshaft muhitiga turli manzaralar bag'ishlaydi.

Mustaqillik yillarida Buxoro shahri va uning atrofida bog'-park san'atida katta istiqbolli rejalar amalga oshirildi. Shahar markazining ko'chalari, istirohat bog'lari, bolalar dam olish zonalarida rejalashtirilgan landshaft muhitini yaratishga katta e'tibor berildi. Shahardagi markaziy ko'chalarning kengaytirilishiga qaramay, yo'l yoqasida yashil zonalar qoldirilishi muhim ahamiyatga ega (210-rasm).

Buxoro shahrining shahar ahamiyatiga ega yana bir yirik istirohat bog'i bu — «Somoniyalar bog'i»dir. U sobiq Ittifoq davrida qurilgan bo'lib, barpo etilgan davrida ko'p funksional istirohat bog'i vazifasini bajargan.



209-rasm. «Ko'hna va Boqiy Buxoro» majmuasi tarkibidagi bolalar bog'ining tarhi.



210-rasm. Buxoro shahrida 2004-yilda qayta qurilgan Abduholiq G'ijduvoniy ko'chasining landshaft muhiti.


Istirohat bog'i tinch va shovqinli zonalarga bo'lingan. Bog'da bolalar zonasi – charxpalaklar, muzqaymoq kafesi, amfiteatr, cho'milish havzasi bo'lib, bu istirohat bog'ining shovqinli zonasi hisoblangan. Tinch zonaga «No'malum soldat qabri» majmuasi, Somoniylar maqbarasining tevarak-atrofi kirgan. Shu tariqa bu bog' ko'p funksional bog' sifatida barpo etilgan (211–217-rasmlar).

Bugungi kunga kelib, bu bog' unda joylashgan Somoniylar maqbarasi sharafiga «Somoniylar bog'i» nomini olgan. Mustaqillik sharofati bilan bog'ning landshaft muhitida ko'pgina ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, maqbara atrofida amalga oshirilgan ishlar e'tiborga loyiqdir.



Avvalambor maqbara atrofini to'sib turgan, zich joylashgan daraxtlar tartibga keltirildi, maqbaraning janubi-g'arbiy tomonida qadimda mavjud bo'lgan hovuz qayta qazilib ta'mirlandi va ishga tushirildi. Bu bilan maqbara atrof-muhitining mikroiqlimini yaxshilanishiga erishilgan. Maqbaraning old tomonida (janubiy tarz) «chorbog'» barpo etildi. «Chorbog'»da maqbaraning ko'rinishini to'sib turmaslik uchun baland bo'lmagan butalar ekilgan. Tunda esa maqbara turli rangli sun'iy yoritgichlar yordamida yoritiladi. Bu bog'ning tungi ko'rinishiga sirlilik ruhini bag'ishlaydi. Tunda ham, kunda ham bog'ning qaysi burchagidan qaralmasin, maqbara to'la-to'kis holda namoyon bo'ladi. Maqbara bog'ning yetakchi elementi hisoblanadi.

Bog'ga bosh darvozadan kirib, ochiq xiyobonga duch kelasiz. Ikki qator qora archalar orasidan beton ariq oqib o'tadi. Bu bog'ning kirish qismiga tantanalik bag'ishlaydi. Qora archalar baland bo'lmaganligi sababli, kiraverishda bog'ning hamma tomonini kuzatish mumkin.

Ariq ustida katta bo'lmagan mo'jaz ko'prikchalar va charxpalaklar qurilgan. Bu ko'prikchalar 2 kilometr ga cho'zilgan xiyobonni kesib o'tishga yordam beradi. Ariqning ichi turli hayvonlar tasvirlarlangan tosh haykalchalar bilan bezatigan. Ushbu xiyobon bog'ning markaziy bosh o'qi bo'ylab o'tadi va tarhda uni ikkiga bo'ladi. Xiyobon markazidan oqib o'tuvchi ariq bog'ning janubi-g'arbida joylashgan sun'iy ko'lga borib tutashadi.



211-rasm. Buxoro. «Somoniylar bog'i»ning asosiy darvozasi.



212-rasm. Somoniylar maqbarasining landshaft muhiti.



213-rasm. Somoniylar bog'idagi
ochiq xiyobon.




214-rasm. Ariq ichidagi mo'jaz
tosh haykalcha.




215-rasm. «Somoniylar bog'i»dagi sun'iy ko'l va uning atrofida shakllangan
tabiiy landshaft.




216-rasm. «Somoniylar bog'i»ning chetida joylashgan milliy choyxona.



217-rasm. «Somoniylar bog'i»dagi favvoralar kompleksi.




218-rasm. Buxoro. «Somoniyilar bog'i»dagi «Xotira maydoni».



219-rasm. «Xotira maydoni»ning landshaft ko'rinishlari. Milliy uslubdagi ayvonlar chap tomonda ko'rinib turgan «Qo'sh madrasa» ansambli bilan uyg'unlashib ketgan.

Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbuslari bilan 2009-yilda «Somoniyilar bog'i»da «Xotira maydoni» tashkil topdi. Ushbu majmua bog'ning janubida joylashgan. Majmua simmetrik tarhga ega bo'lib, ochiq va yopiq muhitlardan tashkil topgan. Maydon markazida ikki tomoni oq va pushti rang gullar bilan chegaralangan keng yo'lak. Ona haykaliga qarab yo'naltirilgan. Maydonning ikki yon tomonida baland ayvonlar mavjud. Ayvonlarning milliy uslubda ishlanganligi uning atrofdagi muhitga uyg'unlashib ketishiga xizmat qilgan (218-, 219-rasmlar).



220-rasm. «Somoniylar bog‘i»dagi «Hunarmandlar markazi»ning ...
landshaft muhiti.

«Somoniylar bog‘i»ning yana bir e‘tiborga loyiq joyi – bu 2011-yilda tashkillashtirilgan «Hunarmandlar markazi»dir. Ushbu joy ochiq va qisman yopiq muhitlardan tashkil topgan. Markazda joylashgan oval shaklidagi favvoraning atrofiga ixchamgina o‘rindiqlar qo‘yilgan. O‘rindiqlar atrofi esa eni 1,5 m keladigan, turli o‘t-o‘lan, gullar ekilgan yashil hoshiya bilan o‘rab olingan. Hoshiyaning to‘rtga bo‘linganligi an‘anaviy bog‘ yaratish usullarini eslatadi. Bu mo‘jaz landshaftning janubiy tomonida yengil konstruksiyadan qurilgan savdo rastalari qo‘yilgan. Bog‘ga tashrif buyurgan mehmonlar favvora oldida biroz



dam olib, hunarmandchilik rastalaridan koʻhna Buxoroni eslatuvchi sovgʻalardan xarid qilishlari uchun shunday goʻzal manzarali qulay muhit tashkil etilgan (220-rasm).

Shahar hududidagi faoliyat koʻrsatmayotgan, shahar muhitini ifloslantirayotgan sanoat inshootlari shahardan tashqariga koʻchirilib, uning oʻrnida bogʻlar barpo etildi. «Paxtaoy» bolalar bogʻi, «Fathobod» bogʻi, «Ekobogʻ» shular jumlasidandir.


«Ekobogʻ»da asosan tinch muhit yaratilgan. Bogʻning atrofida archalar ekilgan boʻlib, markazda favvora joylashgan. Favvora atrofidagi maydonda zamonaviy uslubda, yengil konstruksiyadan ayvonlar qurilgan. Umumiy maydon aylana shaklida boʻlib, yoʻlaklar yordamida sakkiz boʻlakka boʻlingan. Bu boʻlaklarda turli xil atirgullardan chamanlar yaratilgan. Bahordan kuzga qadar bu bogʻ turli ranglarda tovlanadi. Yilning har bir faslida har xil turdagi atirgullar ochilib turadi. Gullarning xushboʻy hidlari yil davomida bogʻni tark etmaydi. Ushbu muhit inson qalbini tinchlantirib, bogʻga tashrif buyurgan har bir kishiga tabiat goʻzalligini yaqindan his etishga va uni qadrlashga undaydi (221–223-rasmlar).




221-rasm. Buxoro. «Ekobogʻ»ning shahar bosh tarhidagi koʻrinishi.



222-rasm. «Ekobog'»ning kirish darvozasi.



223-rasm. «Ekobog'»ning bosh tarhi.




224-rasm. «Fathobod bog'i»ning bosh tarhi.


Xuddi shunday bog'lardan yana biri — «Fathobod bog'i». Ushbu bog' Sayfiddin Boxarzi-Shayx-ul Olam, Buyon Kulixon maqbaralarining atrofini obodonlashtirib bunyod etilgan (224-, 225-rasmlar).

Bu bog'ni «faylasuflar bog'i» desak ham, adashmaymiz. Bog'dagi muhit islom dinining yetuk namoyondalari qabrlarini ziyorat qilishga kelgan har bir kishini dunyo, hayot, tafakkur haqida fikrlashga undaydi.



Bog'ning maydoni assimetrik shaklga ega. Maydondagi yetakchi shakllar bo'lib maqbaralar hisoblanadi. Qolgan barcha shakllar maqbaralar shakllariga bo'ysundirilgan. Atrof-muhit ko'kalamzorlashtirilgan. Hududda maqbaralar ko'rinishi to'silib qolinmasligi uchun baland daraxtlar ekilmagan. Mikroiklimni yaxshilash uchun ikkita favvora o'rnatilgan.



225-rasm. «Fathobod bog'iga kirish darvozasi.



226-rasm. «Paxtaoy» bog'ining darvozasi. Bog'dagi darvoza va muzqaymoq kafesi ko'rinishini yaratishda ertaknamo mavzu tanlangan.



227-rasm. Buxorodagi «Labi Hovuz» ansambli. Nodir Devonbegi madrasasi oldidagi chorbogʻda ekilgan klumbalar.





228-rasm. «Labi Hovuz» ansambli. Ansabl markazida joylashgan suv havzasining koʻrinishi.

«Paxtaoy» bolalar istirohat bogʻi sobiq yogʻ ishlab chiqarish zavodi oʻrnida bunyod etilgan (226-rasm). Zavod atrof-muhit havosini zaharlaganligi sababli, shahar havosini tozalash maqsadida ushbu sanoat korxonasi shahar tashqarisiga koʻchirildi. Uning oʻrnida bolalar uchun oʻyingohlar va charxpalaklarga boy istirohat bogʻi barpo etildi.


Mustaqillik yillarida Buxoro shahrining eski shahar hududida ham landshaft muhitini yaxshilash uchun koʻpgina istiqbolli ishlar amalga oshirildi.

2011-yilda Buxoro shahrida «Asrlar sadosi» milliy festivalining oʻtkazilishi munosabati bilan eski shahardagi eng soʻlim joy — «Labi Hovuz» ansamblining atrofi qayta obodonlashtirildi. Nodir Devonbegi madrasasi oldidagi chorbogʻga turli xil gullar ekilib, oʻrinsiz ekilgan daraxtlar olinib, tartibga keltirildi. Natijada qadimiy binolarning koʻrinishini toʻsib turgan elementlar yoʻqolib, atrof keng va yorugʻ muhitga aylandi (227–230-rasmlar).



229-rasm. «Labi Hovuz» ansamblining 1950-yildagi holati.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillari Buxoro shahrining bog'-park san'ati uchun juda sermahsul davr bo'ldi. Shahar va uning atrofida ko'pgina bog'lar yaratildi. O'zida milliylik va qadimiylilikni mujassam etgan «Ko'hna va Boqiy Buxoro» yodgorlik majmuasi, «Somoniylar bog'i» o'z davrining zamonaviy bog'lari bo'lishiga qaramay, biz ularda Temur davrida qayta tiklangan «chorbog'» usulidagi bog' yaratish uslubini kuzatamiz.



230-rasm. Nodir Devonbegi madrasasining ichki hovlisida tashkillashtirilgan landshaft muhiti.

Bundan tashqari, shahar havosini zaharlab turgan sanoat inshootlari, qarovsiz qolgan maydonlar o'rnida bog'lar yaratilgan. «Ekobog'», «Fathobod bog'i», «Paxtaoy» bolalar bog'lari shular jumlasidandir.


Eski shahar hududi ham e'tibordan chetda qolmadi. 2011-yil Buxoro shahrida «Asrlar sadosi» milliy festivalining o'tkazilishi munosabati bilan «Labi Hovuz» ansamblining atrofi qayta obodonlashtirildi. Atrof-muhit ortiqcha elementlardan tozalanib, ko'klamlarga gulli klumbalar ekishga katta e'tibor berildi.

«Chorbog'» uslubidagi bog'lar mahalliy iqlim sharoitidan kelib chiqib yaratilganligi sababli, u asrlar osha bugungi kunga qadar yetib kelib, XXI asrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.


«Xotira va qadriyat» xiyobonlari. Yangidan qurilgan me'moriy-landshaftiy muhitlar.

Keyingi yillarda O'zbekistonda o'zbek xalqining buyuk allomalaridan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo, Ahmad al-Farg'oniy, At-Termiziy, Jaloliddin Manguberdilarning yubileylarini, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik, Samarqandning 2750 yillik yubileylarini xalqaro ko'lamda tantanavor o'tkazish hamda Toshkent va respublikaning barcha viloyatlarida «Xotira va qadriyat» xiyobonlarini tashkil qilish munosabati bilan qator me'moriy va memorial majmualar, bog'-xiyobonlar loyihalari ishlab chiqilib, amalga oshirildi (231–237-rasmlar).


Ta'kidlash joizki, bu ishlarining barchasi respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan amalga oshirildi. Ana shu bunyodkorlik ishlarida jahon landshaft arxitekturasi va bog'-park san'atining badiiy estetik vositalariga amal qilish va O'rta Osiyoga xos milliy bog'-istirohatchilik san'atining merosiy uslublarini qayta tiklash masalalariga keng e'tibor berildi. Bunyod etilgan me'moriy inshootlar, memorial majmualar va muzeylar, bog'-xiyobonlarning aksariyati muntazam simmetrik rejada ishlanib, ularning hududi ochiq va yopiq yashil maydonlar, ulardagi favvoralar, sharsharalar, gulzorlar, xiyobonlar va yo'laklar hamda mo'jaz me'moriy shakllar, buyuk allomalarning timsoli ifoda etilgan ramziy majmualardan iborat bo'ldi. Bu memorial bog'-xiyobonlarning har biri o'zlarining rejaviy markazi va hajmiy-fazoviy yechimidagi kulminatsiyaviy kompozitsiyalariga ega bo'lgani holda, ularda qo'llanilgan me'moriy yechim, yashillik olami va arxitekturaviy qurilish materiallari orasidagi o'zaro uyg'unlik samarasi ushbu majmualarga tarovat bag'ishladi. Bu memorial majmualarning hududi nisbatan katta bo'lmay, 2 gektardan 5 gektargacha maydonni tashkil etdi.




231-rasm. Samarqand. Go'ri Amir maqbarasining ichki hovlisidagi «chorbog'».



232-rasm. Qadimiy Xiva shahrining zamonaviy landshafti.




233-rasm. Buxoro. Me'moriy obidalar qoshidagi ochiq muhitlar landshafti.




234-rasm. Qarshidagi memorial kompleks hududining bog'i.



235-rasm. Shahrisabz. Amir Temur xiyobonining umumiy ko'rinishi.



236-rasm. Toshkent — bogʻ-rogʻlar shahri.




237-rasm. Koʻhna Samarqandning zamonaviy landshafti.




238-rasm. Samarqand. Al-Buxoriy maqbarasining hovli-bog'i.

Keyingi, mustaqillik yillarida O'zbekiston landshaft arxitekturasida va bog'-park san'atining rivoji uchun yaxshi imkoniyatlar yaratildi. Yangidan qurilgan va qayta tiklangan ko'rkam ijtimoiy binolar va ansambllar egallagan hududlar, ayniqsa, ularning bosh tarzlari qoshidagi me'moriy muhit ushbu binolar vazifalariga moslashtirilgan holda mo'jaz bog'larga aylantirildi. Quyosh nurida yarqiragan suv yuzalarini yaratuvchi favvoralar, pog'onali, bir-biridan go'zal shalolalar, yam-yashil tekis maysazorlar, ular uzra yastangan gilam nusxa gulzorlar, guldor butalar, mo'jaz me'moriy shakllar, did bilan ishlangan o'rindiqlar, tekis va jozibador, nafis to'shamalar shular jumlasidandir (239-, 240-rasmlar).

Toshkentdagi sobiq «G'alaba» istirohat parki chegarasiga tutashgan va ko'pdan beri qarovsiz yotgan Anhor kanalining sohillari obod etilib, bu joy uchun «Toshkentlend» parki loyihasi ishlandi va amalga oshirildi. Park Anhor kanalining tabiiy sohillari, ulardan hosil bo'lgan tabiiy jilg'alar va ko'llar hududida joylashtirilgan bo'lib, o'nlab gektar joyni egallagan. Parkda bolalar va kattalar uchun keng, tabiiy sharoitda, sun'iy yaratilgan g'aroyib yovvoyi hayvonlar dunyosi attraksioni ham tashkil qilingan. Unda turli hayvonlar tulumlari sun'iy haraklantiriladi va tabiiy ovozlari chiqaradi. Har bir hayvon uchun u yashaydigan tabiiy muhit landshafti ko'rinishi yaratilgan. Did bilan oroyish berilgan park landshafti tabiiyligicha qoldirilgan. Bu yerda g'orlar va suvosti dunyosi hayvonlari tulumlari ham mavjud. Xizmat ko'rsatish madaniyati yuqori darajada tashkil qilingan (241–243-rasmlar).




239-rasm. Zamonaviy jamoat binosi oldida yaratilgan mo'jaz parter-bog'ning yuqoridan ko'rinishi.




240-rasm. Zamonaviy jamoat binosining landshaft yechimi.



241-rasm. Toshkent shahridagi «Toshkentlend» parki attraksionlari.



242-rasm. Toshkent akvaparki.



243-rasm. Toshkent akvoparkining umumiy ko'rinishi.



244-rasm. «Toshkentlend» parkidagi attraksionlardan biri.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi landshaft arxitekturasini va bog‘-park san‘atining zamonaviy qadamlari bugungi kunda o‘z-o‘zidan va shoshma-shosharlik bilan emas, balki bosqichma-bosqich va kundan-kunga jadal sur‘atlar bilan tashlanayapti, uning istiqboldagi tarraqiyoti porloq bo‘lishi uchun to‘liq imkoniyatlar yaratilgan.

Bu borada qilingan xulosalar quyidagilardan iborat: o‘tgan asr boshlarida, sobiq Ittifoq poytaxt shaharlarining bosh tarhlarini ishlab chiqish masalasi o‘rtaga tashlandi. Loyihalarda ko‘rilgan masalalar nafaqat rejaviy, texnikaviy, ekologik va transport muammolariga, balki landshaft arxitekturasini va bog‘-park san‘atiga ham aloqador edi. Toshkent, Dushanbe, Ashxobod, Olma-ata va boshqa O‘rta Osiyo shaharlarini qayta rejalashtirish va ko‘kalamzorlashtirish loyihalari, «eski» shahar bilan «yangi» shaharni qo‘shib, yaxlit bir shaharsozlik organizmini vujudga keltirish, bog‘-parklar, xiyobonlar bunyod etish, shahar hududidan o‘tuvchi mavjud suv havzalaridan foydalanib, ularning sohillarida ko‘kalamzor istirohat maskanlarini tashkil etish g‘oyasi yuzaga keldi.

Shaharlar bog‘-park san‘atining shakllanishida sun‘iy suv havzalari: ko‘llar, anhorlar, favvoralar muhim o‘rin tutdi.

Barcha poytaxt shaharlari kabi, Toshkentda ham bahaybat o‘lchamli obyektlar qurila boshlandi. Shaharlarning maydon va ochiq muhitlaridagi baland ma‘muriy binolar, juda katta favvoralar aytilgan so‘zlarning tasdig‘i hisoblanadi.

Mustaqillik davriga kelib, shaharsozlikda yangi ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Shahar strukturasiidagi landshaft yechimlari iqtisodiy tejamkorlik bilan, muhitni e'tiborga olgan holda estetik talablarga javob beradigan qilib qabul qilindi, ixchamlashgan yashil maydonlar, o'z kompozitsiyalarida o'rta asr bog'-park ijodining unutilgan an'analarini qayta tikladi.

Toshkent shahridagi markaziy Mustaqillik maydonining shakllanishida va unga zamonaviy emotsional-badiiy va milliy tus berishda, o'rta asrlardagi an'anaviy bog'chilik san'ati tajribasining qo'llanilishi katta rol o'ynadi. Uning me'moriy kompozitsiyasi, joyi va maydonga nisbatan masshtabi juda original topilgan. Undagi ma'muriy binolar kichraytirildi, atrof-muhiti esa asfalt maydonidan bog' muhitiga aylantirildi. Beqiyos badiiy yechimga ega bo'lgan «Xotira va qadriyat» xiyoboni bu muhitda o'zining to'g'ri o'rnini topdi. Ushbu xiyobon atrofi go'zal va maftunkor manzarali «chorbog'» rejasida shakllandi. Bu maydonda Temuriylar davrining simmetrik-markaziy tizimli kompozitsiyasi qayta tiklandi. Keng maydonda juda qulay joylashgan «chorbog'» bugungi kunda shahar landshafti kompozitsiyasida yetakchi unsur hisoblanadi. Markaziy maydon maysazorlar, daraxtlar qatori, gulzorlar va favvoralar bilan to'ldirildi. Ushbu maydondagi ochiq va yopiq yashil muhitlar sathining nisbati bir-biriga yaqindir.

Mustaqillik yillarida Toshkentda qator zamonaviy bog'-rog'lar tizimi shakllantirildi. Bog'i Eram, Bobur bog'i, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i, Yapon bog'i, Toshkent akvaparki, Amir Temur xiyoboni, Toshkent hayvonot bog'i va boshqalar shular jumlasidandir.

1981-yilda Samarqand shahri markazining batafsil rejaviy loyihasi ishlanib, unda ham landshaft yechimlarini shakllantirishda tarixiy tajribalardan foydalanildi. Shahar muhitida bir nechta, milliy tajribaga asoslangan bog'lar yaratildi. Loyihalarda bog'-park san'ati va landshaft obyektlarining uzluksiz yaxlit tizimini yaratish va ularning mavqeyini me'moriy obyektlarga tenglashtirish g'oyasi ilgari surildi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda o'zbek xalqining buyuk allo-malaridan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo, Ahmad al-Farg'oniy, At-Termiziy, Jaloliddin Manguberding yubileylari, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik, Samarqandning 2750 yillik yubileylarini xalqaro ko'lamda tantanavor o'tkazish hamda Toshkent va respublikaning barcha viloyat va tuman markazlarida «Xotira va qadriyat» xiyobonlarini tashkil qilish munosabati bilan qator me'moriy

va memorial majmualar, bog'-xiyobonlar loyihalari ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Ulardan har biri o'zining fazoviy kompozitsiyasida qadimgi bog'-parkchilik merosining an'anaviy usullari va tarixiy tajribalarini aks ettirdi.

Bunyod etilgan me'moriy inshootlar, memorial majmualar va muzeylar, bog'-xiyobonlarning aksariyati muntazam simmetrik rejada ishlanib, ularning hududi ochiq va yopiq yashil maydonlar, ulardagi favvoralar, sharsharalar, gulzorlar, xiyobonlar va yo'laklar hamda mo'jaz me'moriy shakllar buyuk Temuriylar «chorbog'»larining tim-solini ifoda etmoqda.


3.3. Xitoyning zamonaviy bog'-parklari

Xitoy, Koreya va Yaponiya bog'-parklari Yevropa bog'laridan keskin farq qiladi. Ularning asosida bu mamlakat xalqlarining hayot falsafasi va diniy dunyoqarashlariga xos tabiatga bo'lgan alohida hissiyot va munosabat yotadi. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan Xitoy bog'-parklarini bir necha guruhlarga: imperator bog'lari, ibodatxona bog'lari, shahar istirohat parklari va bog'lari, xususiy bog'lar va tabiat qo'riqxonalariga bo'lish mumkin.

Xitoyning imperator va ibodatxona bog'-parklari haqida biz yuqorida, mazkur qo'llanmaning II bobida to'xtalib o'tdik. Bu an'anaviy bog'lar Xitoyda hozirgacha milliy bo'yluk tarzida ko'z qorachig'idek saqlanib kelinmoqda, ular xorijiy sayyohlar va tub aholi uchun doimo ochiqdir. Masalan, Pekindagi Yozgi imperator saroyi, ya'ni Ixeyuan bog'-park ansamblining o'zi sayyohlar uchun katta bir mo'jizadir. Parkdagi Fosyange ibodatxonasi esa unga uzukka qo'yilgan gavhardek yarashgan, juda go'zaldir. Ixeyuan dunyo bog'lari ichida o'zining tengi yo'q ulkan ko'li, g'aroyib manzaralari, park imoratlari va ularning xilma-xilligi bilan ajralib turadi (245-rasm).

Mamlakatning shimoliga xos bo'lgan ulkan tantanovor imperator bog'laridan farq qiluvchi xususiy bog'lar, asosan, Xitoyning janubida joylashgan va nisbatan kichik o'lchamlarga ega. Shanxayga yaqin Suchjou shahri tumani ana shunday xususiy bog'lar bilan mashhur.


Xususiy bog'lar turar-joylar qoshida yoki ichki hovlilar bog'lari tarzida tashkil etilib, mavjud tabiiy landshaft, suv havzasi va relyefga mos tarzda, ular bilan hamohang va uyg'un ishlangan, asosan tinch va sokin dam olish, intellektual suhbatlar va fikrlashga mo'ljallangan bog'lardir (246-rasm).



245-rasm. Pekin. Ixeyuan imperator bog'ining ibodatxonalari va landshafti.

Simmetriyaga asoslangan to'g'ri chiziqli muntazam kompozitsiyalar zamonaviy Xitoy bog'lari uchun xos emas. Aksincha, ularning rejayiv yechimiga erkin, tabiat manzaralariga asoslangan peyzajli kompozitsiyalar xosdir. Xitoy landshaft san'ati qonunlariga ko'ra, bog'ning istalgan nuqtasidan ko'rinadigan peyzaj ortidan yana boshqa peyzaj ko'rinishi shart. Bog'da sayr qilgan tomoshabin nigohida bu peyzajlar ketma-ket va birin-ketin aks etmog'i zarur.


Xitoyliklar uchun bog' masshtabi, ya'ni uning o'lchamlari ahamiyatsizdir. Ularning fikricha, bog' yaratishdagi asosiy narsa — bu «kichik muhitda katta o'lchamni ko'ra bilish»dir. Istalgan bog', hatto uning eng mo'jazi ham tabiat ko'rinishining bir qismi sanalib, unda uchta asosiy element — suv, tosh va o'simliklar mujassamligi ta'minlanishi kerak. Xitoy bog'larida suv havzalari baland sohillarsiz va sun'iy qoplamalessiz ishlanadi. Bog'lardagi orollarda qurilgan ko'shklar xuddi suvdan o'sib chiqqandek orollar yuzini qamrab olgan va atrof-dagi suv yuziga ularning aksi tushib turadi. Ko'shklarga toshko'priklar orqali o'tiladi (247-rasm).



246-rasm. Suchjou shahridagi xususiy bog'lar landshafti. Tabiat bilan uyg'unlashishi, sokinlik va xilvatlik bunday bog'larning asosiy funksiyasidir.

Xitoyning zamonaviy istirohat parklariga xos xususiyatlarni Gonkong va Kaolun parklari misolida ko'rib chiqaylik.

Gonkong shahrining maydoni Moskva shahri maydoniga deyarli teng. Uning katta qismida budda ibodatxonalari, manzaraviy tog'lar, boy villalar, turistik markazlar va deyarli yovvoyi tabiat manzaralari-ga ega bog'lar va parklar joylashgan. Parklar gonkongliklarning hayoti va turmushining ajralmas qismidir. Gonkong shahrining jadal texnik taraqqiyotiga qaramasdan, bu yerda insonlardagi tabiatga bo'lgan




247-rasm. Xitoy bog'larining kompozitsion asosiy elementi — ko'shkdir.

ixlos va muhabbat bolalikdan tarbiyalanadi. Dam oluvchilar parklar obyektlari va ularning landshaftlarini juda qadrlaydilar. Gongkong parklarida o'simlik va hayvonot dunyosini tashkillashtirishga zo'r mahorat bilan yondashilgan, chunki parklarning yaratilishi g'oyasidayoq bu holatga katta ahamiyat berilgan. Bu parklarda o'simliklar kompozitsiyasi va ularning nomi yozilgan taxtachalar o'rnatilgan (248-rasm).


Gongkong parkida kunning qanday o'tganini sezmay qolasiz, parkdagi go'zal oranjereyaga kirib (maydoni 1400 kv.m.) uni uzoq tomosha qilish mumkin. U uch qismga: ko'rgazmali tadbirlar o'tkazish uchun mo'ljallangan, ho'l va quruq tropik hududlarga bo'lingan. Oranjereya binosi o'ta qiyalikda joylashgan bo'lib, go'yo muallaq turgandek ko'rinadi. Uning old qismida qator go'zal havzalar shalolasi joylashgan, ularda bir necha yuzlab suv o'simliklari o'sadi (249–251-rasmlar).

1992-yilda Gongkong parkida ulkan qafasni aks ettiruvchi qushlar bog'i ochilgan. Oranjereyalarga yaqin joyda esa hayvonot bog'i mavjud. Bularning barchasi yashil maskanlar va ochiq tabiat bilan bog'langan. Parkda shahar miqyosidagi ommaviy tadbirlar uchun alohida joy ajratilgan.


Bu yerda ochiq yashil maydonda turli xil sport shoularini, itlarning ko'rgazmalarini, konsertlar, har yili bir marta «Muz g'aroyibotlari» deb ataladigan maydonda o'tkaziladigan muz shousini o'tkazish odat tusiga kirgan. Tomoshabinlar uchun qulay tribunalar, konsert maydonlari, Olimpiya maydonlari kabi maydonlar tashkil etilgan.




248-rasm. Gongkongdagi yangi qurilishlar atrofidagi o'simliklar kompozitsiyasi.



249-rasm. Gongkongdagi zamonaviy ko'p funksional parking ko'rinishi.



250-rasm. Park muhitidagi oranjereyalar.



251-rasm. Gonkong parkidagi oranjereya.

Gonkong shahri parklarida sport inshootlariga keng o'rin berilgan (252-rasm). Hatto zooparkda ham ertalabki yugurish yo'lakhasi va sport o'yinlari uchun joy ajratilgan (253-rasm). Ayrim parklarda ochiq maydonda maxsus sport trenajyorlari qo'yilgan. Har bir park raqobatda ustunlik qilgisi keladi. Bunda nafaqat yangi xizmat turlari, balki tabiat manzaralari ham, flora va fauna ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy Xitoy bugun o'zining qadimiy imperator bog'lari, ibodatxona bog'lari va xususiy bog'lari bilan mashhur.

Ular qatorida Xitoyning zamonaviy istirohat parklari Gonkong va Kaolun parklarida o'z aksini topgan.

Zamonaviy Xitoy bog'-parklari uchun quyidagi xususiyatlar umumiydir:


– suv havzasi bog'ning muhim tarkibiy qismi (30–70% i) hisoblanib, u qirg'oqdan o'tadigan sohil chiziqlari va ko'pgina orollarga ega bo'lib, bu sayr chog'ida go'zal tabiat manzaralarini tomosha qilish imkonini beradi;

– bog'da ko'p sonli an'anaviy park inshootlari – suhbatxonalar, verandalar, pavilyonlar, galereyalar, ko'priklar, yo'laklar mavjud. Inshootlar yorqin ranglarga bo'yalgan, ular o'simliklarning yashil foniga kontrast bo'lib, o'sha park peyzajlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi;

– zamonaviy shahar parklarida ommaviy madaniy tadbirlar uchun ochiq maydonlar, sport maydonlari va turli xil attraksionlar mavjud;

– bog'da sayr qiluvchilarga aniq yo'nalishlar berish – nigohning bog'dagi shaklli oraliqlar orqali zarur tomonga qaratilishidir;

– xitoy bog'larida eski, ko'p asrlik daraxtlar qadrlanadi. Ular bog' peyzajining asosiy urg'ulari hisoblanadi. Ularda o'simliklarning yetarlicha turli xillari mavjud: qarag'ay, qora archa, zarangning bir necha turi, xitoy emani, kedr, magnoliya, ginkgo, nok, qaroli, olcha, majnuntol, bambuk, chiroyli gullovchi daraxtlar – kameliya, azaliya; gullardan: pion va xrizantemalar. Suv havzalari nilufarlar, ularning qirg'oqlari esa gulsapsarlar bilan bezatiladi.



252-rasm. Gongkong parki. Bog'dagi sport ayvonlaridan biri.



253-rasm. Gongkong parki. Hayvonot bog'i ichidagi ertalabki yugurish yo'lakhasi.

3.4. Yaponiyaning zamonaviy bog'lari

Yaponiya bog'-park san'atining g'oyaviy falsafiy asoslarini chuqurroq tushunmoq uchun bu mamlakatning o'ziga xos geografiyasi va tabiiy-iqlimiy sharoitlariga hamda yapon xalqining diniy va dunyoviy tafakkuriga nazar solmoq kerak. Tog'-u toshlar, qoyalar, sharsharalar, ko'llar, dengizlar, tabiiy irmoqlar, Yaponiyaga xos o'simlik va suv dunyosi, ya'ni ona tabiat qanday yaratilgan bo'lsa, yaponlar ularni o'z bog'larida shunday mazmunda, faqat miniaturalashtirilgan va ramziylashtirilgan shakllarda ko'rishga odatlanganlar. Yaponiya dini — dzen-buddizm va sintoizm ham yapon xalqini aynan ana shunga, ya'ni ona tabiat go'zalligini yaxlit holda ko'ra bilishga, uni sevishga, uning elementlari orasidagi mutanosiblikni sezish, uni tushunish va to'liq his qilishga undaydi. Bu ularning turmushini g'o'zal, hayotga ishtiyoqini mustahkam, ruhini quvnoq, dilini baxtiyor qiladi, deb tushuntiradi. Bu esa bizga yapon bog'lariga xos ramziylikni, mazmunlilikni, an'anaviylikni tushunishga yordam beradi.


Demak, Yaponiya milliy bog'larining uslubiyaati yaponlarning ona tabiati, milliy mafkurasi va diniy dunyoqarashlaridan kelib chiqadi.

Dzen-buddizm ona tabiatni inson o'zining barcha sezish organlari bilan, ya'ni nafaqat ko'rib va hidlab, balki eshitib va ta'mini ko'rib o'rganishga ham undaydi. Faqat shundagina inson ona tabiatni yaxshi tushunadi, sezadi va sevadi, deb tushuntiradi.

Ona tabiatdagi tog'-u toshlar, qoyalar, sharshara, irmoqlarning, daraxt va o'simliklarning, havzalarning modellashtirilgan ko'rinishlari yaponlarning jon-u dilidir. Ular o'z bog'larini ana shularsiz, o'zlarini esa bog'larsiz tasavvur eta olmaydilar (254-rasm).

Bu yapon bog'lariga xos eng birinchi va asosiy omildir. Ikkinchisi — bu jonli tabiatning har bir tarkibiy elementi tabiatda o'zaro qanday mutanosiblikda bo'lsa, bog'larda ham xuddi shunday holatlarda tim-sollashtirilishi shart. Yaponiyada inson jonli tabiatning bir qismi, uning tashqarisidan emas, ichidan joy olgan uyg'un organizm deb hisoblanadi. Shu boisdan ham, yaponlar tabiatni zabt etishga emas, balki har doim u bilan uyg'unlashishga harakat qiladilar (255-rasm).

Ma'lumki, tabiatga mavsumiylik, vaqtga ko'ra doimiy harakatchanlik tushunchalari xos. Bu tushunchalar ham yapon bog'larida o'z aksini topgan. Daraxt va butalar, ularning gullari va mevalari — mavsumiylikni bildirsa, tosh va qirlar — doimiylikning, yapon tog'-



254-rasm. Yapon bog'idagi tog'-u toshlar, qoyalar, sharshara, irmoqlarning, daraxt va o'simliklarning, havzalarning modellashtirilgan ko'rinishlari.



255-rasm. Yapon bog'ida jonli tabiat elementlarining timsollashtirilishi.

larining ramzidir. O'simliklar – hayot, suv oqimi – vaqt va harakat ramzidir. An'anaviy yapon bog'lariga xos yana bir narsa – bu ochiq va yopiq yashil muhitlar kontrastidir.

Buning ma'nosi shuki, yaponlar o'z bog'larini tabiat elementlari (toshlar, qirlar, o'simliklar, suvlar) bilan to'ldirib tashlashni emas, balki ochiq muhitlar va ularga xos tabiiy urg'ular orqali tasvirlashni yoqtiradilar. Bog'larda oldingi, o'rta va orqa manzaralarning bo'lishi va ularni bog'ning sayr yo'laklaridan tomosha qilish imkoniyatining yaratilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yapon bog'i monoxromli yoki polixromli ranglarda bo'ladi. Toshloq bog'lar yoki quruq peyzajli bog'lar monoxrom bog'larga kirsam, peyzajli yoki manzarali bog'lar polixrom bog'larga kiradi (256-, 257-rasmlar).

Relyefining holatiga ko'ra zamonaviy yapon bog'lari uch xil: qirli, yassi va past-baland bog'larga bo'linadi.

Yassi bog'lar sahni tekis bo'lib, ularning yuzi mayda shag'al tosh yoki qumdan, bir nechta katta toshdan va mohdan, ayrim hollarda daraxtlardan, quduqdan iborat bo'ladi. Bunday bog'larga, birinchi navbatda, toshloq yoki quruq peyzajli bog'lar kiradi. Bunday bog'larning tarixiy prototipi Kioto shahridagi Rean dzi bog'idir (258-rasm).

Qirli bog'larga qirning mavjudligi xosdir. U odatda suv havzasi, sharshara va suv oqimi, irmoq bilan to'ldiriladi. Bunday bog'lar ham tosh va daraxtlardan holi emas (259-rasm).

Past-baland bog'lar sahni, odatda, o'nqir-cho'nqir bo'lib, ular Yaponiya tog'li mintaqalarining mo'jaz modelini o'zida ramziy ma'noda aks ettiradi. Kichikroq ko'l, orolcha, toshloq qirg'oq, tosh chiroqlar, tosh ko'prik va suv ustidagi tosh yo'laklar bunday bog'larga xos elementlardir. Bu bog'lar ham o'simliklardan holi emas (260-rasm).

Kompozitsion tuzilishining holati va tarkibiy elementlariga ko'ra yuqoridagi har uchchala bog' ham to'liq – «sin», yarim qisqargan – «so» va qisqargan – «ge» shakllarida yaratilishi mumkin.


Sayr yo'laklari bo'ylab bog' ssenariyalari, ya'ni manzaralarining doimiy o'zgarib turishi murakkab kompozitsion tuzilishli katta bog'larga xos asosiy alomatdir. Keng va so'lim maskanlar oralab sayr qilish, unda ona tabiatning jonli ramzlari – qirlar, ko'llar, shalolalar, orolchalar, qirg'oq, qoya, irmoq va yashil dunyoni tomosha qilmoq, yaqin va uzoq manzaralardagi tabiat urg'ulariga razm solmoq, umuman, inson va tabiat uyg'unligi, hamohangligiga erishmoq bunday bog'larning asosiy funksiyasi va g'oyaviy mazmunidir (261-, 262-rasmlar).



256-rasm. Yaponiyaning monoxrom bog'i.



257-rasm. Yaponiya. Polixrom bog'ning ko'rinishi.



258-rasm. Kioto shahridagi Rean dzi – yassi quruq peyzajli bog'.



259-rasm. Qirli bog' landshafti.



260-rasm. Yaponiyaning «past-baland» bog'lari.



261-rasm. Bog' tuzishning «ban-say» san'ati.



262-rasm. Sohil va ko'prik, jilg'alar landshafti.

Butun dunyo bog‘-park tajribalaridan kelib chiqib, bugungi kunda Yaponiya shaharlarida ham ommaviy istirohat maskanlari uchun mo‘ljallangan parklar va bog‘lar yaratila boshlandi. Biroq bu bog‘lar biz Yevropa va Rossiya shaharlarida ko‘rishga odatlangan madaniyat va istirohat bog‘laridek katta bog‘lar emas. Yaponiyaning Tokio, Kioto va boshqa shaharlarida piyodalar ko‘chalari muhitini, binolarning tashqi devorlariga tutashgan piyoda yo‘lakchalarini, binolarga kirish joylarini konteyner qutilarga ekilgan gul tuvaklar va boshqa manzaraviy o‘simliklar bilan faol tarzda ko‘kalamzorlashtirish tajribalari to‘plangan (263–267-rasmlar).

Hajmi unchalik katta bo‘lmagan bunday nufuzli maskanlar mikro-iqlimiga konteyner o‘simliklarining ta’siri ancha katta. Bu o‘simliklar nafaqat atrof-muhit havosini tozalashi va uni kislorod bilan boyitishi, balki unga tabiiy go‘zallik baxsh etishi bilan ham muhimdir.

Yaponiyada 1966-yildan boshlab mo‘jaz bog‘lar yaratishning yangi turi, ya’ni bino tomlari ustida bog‘lar qurish madaniyati ham ommaviy tus olgan. Bu yo‘nalish shakllanishini shaharlarda yangi bog‘lar va parklar yaratishga mos hududlarning tanqisligi tufayligina emas, balki yapon xalqining jonli tabiatga bo‘lgan o‘ta yuksak ishtiyoqidan ham deb tushunmoq kerak. Bino tomida barpo qilingan eng yirik bog‘lardan biri – bu Sapporo, Xokaydodagi Grand-Otel mehmonxonasi tomida yaratilgan bog‘dir. Bog‘ning umumiy maydoni 660 kv. metrni tashkil qilib, ko‘p qavatli bu bino tomida go‘zal va maftunkor oazis bunyod etilganki, bu hol mehmonxona poyida, ya’ni ko‘chada yurgan kishilarning xayoliga ham kelmaydi (268-rasm).

Yaponiya zamonaviy landshaft arxitekturasiga xos navbatdagi manzaraviy yo‘nalish – bu turar-joy balkonlari va erkerlarida bunyod etilgan mo‘jaz bog‘lardir. Bu yo‘nalish Yaponiyada 1990-yillarning boshida shakllangan bo‘lib, hozirda u aksari shaharlarda keng tus olgan.

Xususiy uylar tarkibida yaratilayotgan mo‘jaz bog‘larni, Yaponiyadagi zamonaviy turar-joy maskanlarini ko‘kalamzorlashtirishning o‘ziga xos shakli sifatida ko‘rsatish mumkin (267–269-rasmlar). Turar-joy muhiti bilan uyg‘unlashib ketgan bu mo‘jaz bog‘larda kishi o‘zini go‘yo uyda emas, balki tashqarida, ochiq muhitda yurgandek his qiladi. Tabiiyki, bunday mo‘jaz bog‘lar maxsus loyihalangan xususiy turar-joylar tarkibida yaratilgan. Bunday bog‘larda yaponlar milliy choy ichish marosimini o‘tkazishni yoqtirishadi va shu boisdan ular ayrim hollarda «Choy bog‘lari» deb ataladi.




263-rasm. Tokiodagi zamonaviy Yeegi madaniyat va istirohat parki.


...



264-rasm. Tokio. Zamonaviy Inokasira istirohat bog'i.



265-rasm. Tokiodagi Xibio parki.




266-rasm. Kioto shahridagi an'anaviy park.



267-rasm. Xususiy turar-joylar tarkibidagi mo'jaz bog'lar.



268-rasm. Yaponiya. Bino tomlari ustidagi bog'lar.




269-rasm. Xususiy turar-joylar tarkibidagi mo'jaz «choy bog'i».

Yaponiya bog'larida o'sadigan o'simliklar ichida doim yashil manzaraviy o'simliklar yetakchi o'rinni egallaydi. Ular safidagi eng an'anaviy daraxt va butalardan yapon qarag'ayi, yapon zarangi, kameliya, azaliya, magnoliya, yapon olchasi, sakura, olxo'ri, bambuk, safora va bereskletlarni ko'rsatish mumkin.

Yaponlarning tushunchasiga ko'ra, o'simlik dunyosining «to'rt ziynati»ni xrizantema, olxo'ri, orxideya va bambuk tashkil qiladi. Suv havzalari nilufar gullari, ularning qirg'oqlari esa gulsapsarlar bilan bezatiladi. Gul o'simliklari juda kam, ayrim hollarda umuman qo'llanilmaydi. Yaponiya hovli bog'larida banan daraxtini ekish ham odat tusiga kirgan. Maysa o'rniga yeryopar o'simliklar keng qo'llaniladi. Uncha katta bo'lmagan zamonaviy shahar bog'larida daraxtlarga bondaj yordamida turli xil g'aroyib sun'iy shakllar berish ham Yaponiyada an'anaviy tusga kirgan.

Yaponiya bog'larida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, suv turli shakllarda: ko'l, havza, irmoq yoki sharsharalar ko'rinishida uchraydi. Biroq Yaponiyada suvsiz bog'lar ham mavjud.


Yaponiya zamonaviy bog'-park san'atining ana shunday muhim an'anaviy milliy ko'rinishlaridan biri — bu «toshloq bog'lar» yoki




270-rasm. Yaponiya. Zamonaviy «toshloq bog'lar».

«quruq peyzajli bog'lar» deb ataladigan bog'lardir. Bu yo'nalish Yaponiyada qadimdan an'ana bo'lib, hozirga qadar ham davom ettirilib kelinmoqda (270-rasm).

Toshlar, mayda shag'al, qum, moh, tosh chiroqlar bunday bog'larning o'ziga xos elementlaridir. Quruq peyzajli bog'larda shag'al yoki qum yordamida sun'iy ravishda irmoqning tabiiy ko'rinishi tasvirlanib, oqar suvga taqlid qilinadi, ya'ni aynan o'xshatiladi. Toshloq yoki quruq bog'larning kelib chiqishi yapon dini dzen-buddizmning



271-rasm. Jamoat binolari tarkibidagi toshloq bogʻ.



272-rasm. Xususiy turar-joy muhitidagi toshloq bogʻ.

dunyoviy gʻoyalariga asoslangan. Bu bogʻlarda toshlar, odatda, buddizm uchligiga taqlid qilinib, alohida guruhlarda uchtdan joylash-tiriladi. Toshloq bogʻlar kishini dunyo tashvishlari va turmush yumush-laridan holi qilmoq, xilvatga chekinmoq va milliy meditatsiyalar uchun moʻljallangan. Bunday bogʻlar gʻoyasi oddiy tabiat goʻzalligini his qilish va u bilan uygʻunlashishdan iboratdir.



273-rasm. Miniaturalashtirilgan Yapon bog'lari.

Toshlar Yaponiyada nafaqat «toshloq bog'lar»ning, balki umuman yapon bog'larining, ibodatxonalar qoshidagi bog'lar, jamoat bog'lari, xususiy turar-joy va jamoat binolari tarkibidagi bog'larning ham eng muhim tarkibiy elementlaridir. Boshqacha aytadigan bo'lsak, yapon bog'larini umuman toshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi (271-, 272-rasmlar).

Toshloq bog'lardagi tabiiy toshlar kompozitsiyasi bir necha tamoyillarga bo'ysunadi, ularga ko'ra ikkita o'zaro bog'lanuvchi toshlar sirti chizig'ining uzunligi bir-biriga teng bo'lmazligi; kompozitsiyadagi toshlar sirti chizig'ining birortasi boshqasiga parallel bo'lmazligi va ikkita toshning o'lchami bir-biriga teng bo'lmazligi shart.

Yapon bog'larining yana bir turi – bu miniaturalashtirilgan bog'lar bo'lib (273-rasm), unga xos asosiy element mo'jaz, ya'ni kichik daraxtchalardir. To'shamalar va yo'laklarning shakllari, materiali va ranglari ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu kichkina bog'lar kvadrat shaklida, to'g'ri to'rtburchak, aylana va boshqa shakllarda ham uchraydi.

Umuman, Yapon bog'lari va parklariga mahalliy shart-sharoitlar va udumlarning ta'siri katta. Shuning uchun ham ularning o'lchamlari, me'moriy-rejaviy yechimlari va funksiyalari turlicha. Hozirgi vaqtda Yaponiyada milliy landshaft parklarini tashkil qilishning tamoyillari ishlab chiqilgan. Ularga ko'ra, ranglar, shakllar, materiallar fakturasi, masshtabi va hajmiy kompozitsiyalar kontrastidan foydalanish bog'-park san'atida eng samarali yo'nalish ekanligi ko'zda tutilgan.

Shunday qilib, Yapon zamonaviy bog'lari uchun quyidagilar xarakterlidir: tabiatdagi tog'-u toshlar, qoyalar, sharshara, irmoqlar, daraxt va o'simliklar, havzalarning modellashtirilgan ko'rinishlari.

Yapon bog‘lariga xos keyingi omillardan biri — bu jonli tabiatning barcha tarkibiy elementlari tabiatda qanday mutanosiblikda bo‘lsa, bog‘larda ham xuddi shunday holatlarda timsollashtirilishidir.

Sharq mamlakatlari bog‘-park san‘atiga bugungi kunda ham qiziqish susaygan emas, zero ularda yashiringan sirli falsafiy mushohadalar va tabiatga bo‘lgan munosabat kishi e‘tiborini o‘ziga jalb qilmasdan qolmaydi.

Xulosa

XIX asr butun dunyoda kommunikatsiya vositalarining tezkor taraqqiyoti bilan ajralib turadi. XX asrda dunyoning turli mintaqalarida yashovchi xalqlar o‘zaro tezkor va yengil aloqa qilish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. U yoki bu mamlakatda yaratilgan yaxshi narsalarga tez orada boshqa mamlakatlar ham yetisha boshladi.

Bog‘-park san‘ati uslublari ham umummilliy tus ola boshladi. Hindistonda buddizm ibodatxonalari qoshida vujudga kelgan bog‘lar Xitoy, Koreya va Yaponiyaning ham milliy bog‘lariga aylandi. Ibodatxona bog‘lari Yevropa xristian ibodatxonalari qoshida ham an‘anaga kirdi. Arablar eronliklardan chorbog‘ san‘atini o‘zlashtirib olib, uni butun Islom mamlakatlariga va, hatto, Ispaniyaga ham joriy etdilar. Hozir bu san‘at Yevropaga ham tarqalmoqda. Uzoq Sharqda, Xitoy va Yaponiya bog‘larida o‘sadigan o‘simliklar Yevropa, Amerika va Hindistonda o‘stirila boshlandi. Yaponiya bog‘larini butun dunyo kashf etib ulgurdi va hokazo. Shunday qilib, turli sivilizatsiyalar asosida yaratilgan bog‘-park san‘ati butun dunyo bo‘ylab tarqalmoqda.

Biroq turli mamlakatlarda an‘anaviy yaratilgan tarixiy va zamonaviy bog‘-parklarning mazkur o‘quv qo‘llanmada aks ettirilgan o‘ziga xos uslublari va jihatlari borki, bo‘lg‘usi mutaxassislar ularni qunt bilan o‘rganmoqlari va bu san‘at sirlaridan yangi bog‘-parklarni qurishda samarali foydalanmoqlari zarur. Nafaqat yangi bog‘larni loyihalash va qurishda, balki respublikamizda hozirda mavjud bo‘lgan istirohat bog‘-parklaridan to‘g‘ri foydalanish, ularni zamonaviy-badiiy funksional, texnik va estetik talablarga mos ravishda qayta ta‘mirlash, ulardagi moddiy va ma‘naviy eskirgan funksiyalarni zamonaviylashtirish, bog‘ landshafti va hududini me‘moriy tashkillashtirishda o‘quv qo‘llanmada bayon etilgan ko‘p qamrovli bog‘-park san‘ati merosidan unumli foydalanish va qo‘llash bu sohadagi ishlarimizni yanada takomillashtirib, uni umumjahon talablari darajasiga ko‘tarishga yaqindan yordam beradi, degan umiddamiz.

TAYANCH IBORALAR LUG'ATI

Akveduk — uzoq suv manbalaridan oqizib suv keltirishga mo'ljallangan inshoot, osma quvur, ravoqli suv ko'prik. Suv quvuri ustidan ayrim hollarda odamlar uchun yo'l ham ishlangan. Oddiy akveduklardan bog'-saroylar hududini sug'orishda ham keng foydalanilgan.

Aksent — manzaraning biron joyi yoki detaliga urg'u berish, kishi e'tiborini alohida qaratish maqsadida qo'llanadigan badiiy-me'moriy uslub. Detal yoki muhitga alohida farq qiluvchi holat, shakl, o'lcham yoki rang berish, uni yorug'lantirish va bo'rttirish orqali erishiladi.

Ansambl — yaxlit badiiy-estetik shaklda yaratilgan majmua. O'zaro funksional bog'langan inshootlar, o'simliklar va boshqa landshaft elementlarining yaxlit bir uygunlashtirilgan me'moriy omixtasi.

Arabeska — bog'-parkchilik san'atida handasaviy shakllar, barg, gul, shoda va shu kabilarning tasviridan tarkib topgan murakkab naqshli gulzor, parter yoki to'shama. Dastlab arab arxitekturasiga xos bezak bo'lganligidan shunday nom olgan.

Arxitekturaviy bog' — bog' imoratlari va boshqa sun'iy yaratilgan inshootlar turkumini tashkil qilgan va muayyan kompozitsiya asosida yaratilgan istirohat bog'i.

Bog' — madaniylashtirilgan o'simliklar: daraxt va butalar, gulzorlar bilan birga xiyobonlar, dam olish maydonlari, suv havzalari, ko'shklar, pavilyonlar va boshqa tashqi obodonlashtirish elementlaridan tuzilgan va inson tomonidan yaratilgan yashil hudud.

Bog' hududi parkka ko'ra kamroq, odatda 5 gektargacha maydonni egallaydi. Bog' xususiy madaniy landshaft turi bo'lib, u parklarning alohida bir qismlarini ham tashkil qilishi mumkin. Maxsus adabiyotlarda bog'larning funksiyasiga ko'ra 4 ta asosiy guruhi ko'rsatib o'tilgan: estetik bog'lar, rekreatsion, ya'ni dam olish va hordiq chiqarishga mo'ljallangan bog'lar, ilmiy bog'lar (botanik bog'lar, turli o'simliklar to'plangan bog'lar) va xo'jalik-manfaatli bog'lar (mevali bog'lar, dorivor o'simliklar bog'i, polizlar, niholxonalar).

Bog'-park landshafti — odatda, bog'-park san'ati bilan shug'ullanuvchilar tomonidan yaratilib, u bog' manzarasini shakllantiruvchi tabiiy va sun'iy elementlar — joy relyefi, o'simliklar, tabiiy toshlar, suv havzalari va uning turli shakllari, bog' imoratlari va qurilmalari, yo'laklar va xiyobonlar, to'shamalar, tashqi obodonlashtirish elementlari, mo'jaz me'moriy shakllardan tashkil topadi. Bunday landshaftda yetakchi o'rinni asosan daraxt va butalar, gulzor va maysazorlar, tabiiy toshlar egallasa, keyingi o'rinni suv havzalari va qurilmalari egallaydi.

Bog'-park san'ati — bu bog' va parklarni, bog'-saroylarni, bog'-park ansambllarini muayyan funksional maqsadlarga mo'ljallagan holda me'moriy-rejaviy, manzaraviy-landshaft va tashqi muhitni obodonlashtirish yechimlarini ishlab chiqarish va ularni yuksak badiiy saviyada landschaft loyihalashtirish va tashkillashtirish san'atidir. Bu san'atning asosiy materiallari o'simliklar, joy relyefi, tabiiy toshlar, suv havzalari, hayvonot dunyosi, tashqi muhit obodonlashtirish jihozlari, mo'jaz me'moriy shakllar bo'lsa, uning badiiy uslubi, ya'ni ish quroli esa arxitekturaviy va landschaft kompozitsiyalarining barcha badiiy vositalaridir.

Bo'stonsaroy — saroy atrofidagi obod bog'. Samarqand qal'asidagi Ko'ksaroy, Shahrisabzdagi Oqsaroy atrofidagi ajoyib bog'lar.

Garmoniya — me'moriy shakllar yoki landschaft elementlarining o'zaro uyg'unligi, bir-biriga monandligi, muvofiqligi, badiiy jihatdan mosligi (handasaviy shakllar, ranglar, hajmlar garmoniyasi va h.k.).

Klumba — ochiq maysazorda doira yoki to'garak tarhda shakllantirilgan daraxtlar va butalar guruhi; XIX asr o'rtalaridan klumba deb muntazam rejali parklarning yo'laklari kesishgan, binolarning kirish joylari oldida, haykallar tagkursilari yonida ishlangan nisbatan kichik gulzorlarga aytila boshlandi.

Kompozitsiya — san'at asarining barcha element va qismlarini yaxlit bir garmonik tizimda tashkil etish va birlashtirish. Bog'-parkchilik kompozitsiyasi asosan tarhiy-rejaviy va hajmiy qismlardan tarkib topadi. Ranglar nisbati ham kompozitsiyaning muhim elementlaridan biridir.

Kontrast — shakl yoki ranglar orasidagi yaqqol seziluvchi farq, holat.

Ko'shk, kiosk — to'rt ustunli, tomi qubbali yengil bog' qurilmasi; pavilyon; bog' ichidagi zeb-u ziynatli ayvon, koshona, saroy, qasr. Kiosk savdoga mo'ljallangan yengil mo'jaz me'moriy qurilma tarzida ham keng tarqalgan.

Landshaft I (nem. *land* — yer, *schaft* — manzara) — muayyan bir geografik hududga xos bo'lgan tabiat manzarasi (yer yuzasi, relyefi, tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi, suvi, iqlimi)ni belgilovchi umumiy tushuncha. Landshaftning bir-biridan farq qiluvchi tabiiy turlari mavjud. Masalan, tog' landshafti, dasht-cho'l va sahro landshafti, tundra landshafti, okean, dengiz landshafti va boshq.. Bularning barchasi tabiiy geografik landschaftga kiradi. Biroq madaniy landschaftlar guruhi ham mavjud. Ularga inson qo'li va zakovati bilan yaratiladigan barcha landschaftlar, masalan, me'moriy landschaft, qishloq xo'jalik yerlari landshafti, shahar landshafti, bog'-park landshafti va h.k.lar kiradi.

Landshaftlar hududining katta va kichikligiga qarab mikro- va makro-landschaftlarga bo'linadi:

mikrolandschaft — o'simliklardan sun'iy yaratilgan va joy relyefi, suv havzalari bilan bog'liq bo'lgan mo'jaz manzaraning ko'rinishi.

makrolandshaft – bu katta va ulkan geografik hudud yoki mintaqaning tabiiy landshaftidir.

Landshaft II – ochiq havoda ishlash va dam olish uchun yaratilgan, tarkibi tabiiy (o‘simliklar, relyef, tuproq, suv, hayvonot dunyosi) va sun‘iy (me‘moriy-muhandislik inshootlari) ishlanmalar bilan badiiy, biologok va ekologik qonuniyatlar asosida shakllantirilgan hudud.

Landshaft arxitekturasi – bu ochiq maskanlar arxitekturasi hisoblanib, atrof-muhitni o‘simliklar, suv havzalari, yer relyefi, tabiiy toshlar, me‘moriy qurilmalar, tashqi obodonlashtirish elementlari yordamida muayyan maqsadlarga moslab badiiy-landshaft shakllantirish va loyihalash san‘ati; me‘moriy faoliyatning alohida turi; me‘moriy landshaft yaratish amaliyotining nazariy asosi.

Maysazor – bog‘larda ko‘p yillik boshqoqli o‘tlardan ekilgan yashil maydon. Vazifasiga ko‘ra, maysazorlarning sport o‘yinlari maydoni, maxsus vazifalarga va manzarali maydonlarga mo‘ljallangan xillari mavjud. Manzarali maysazorlarning parterli, oddiy va yaylovli turlari mavjud.

Nyuans – shakl yoki ranglar orasidagi zo‘rg‘a seziluvchi farq, holat.

Oranjereya – issiqxona, ochiq joyda o‘smaydigan ekzotik o‘simliklarni o‘stirishga mo‘ljallangan maxsus xona. Parklarda sitrus va boshqa ekzotik o‘simliklarni o‘stirishga qurilgan bir va bir necha zallik inshoot. Qishki bog‘ vazifasini ham bajaradi. XVIII asr Yevropa parklarida oranjereyalar saroylar yonida qurilib, sayr-tomosha maqsadlarida ham foydalanilgan.

Oroyish – bezak, pardoz, chiroy; bog‘-istirahatchilik san‘atida bog‘lar dizayni ma‘nosida anglanadi.

Pavilyon – bog‘ yoki parkdagi uncha katta bo‘lmagan yopiq yengil imorat; ko‘shkning subhatbop mo‘jaz bir turi; ko‘rgazmalar ko‘shki, ko‘chada ro‘znomalar sotiladigan ko‘shklar va h.k.

Paradiz – Eron hukmdorlarining atrofi devor bilan aylantirilgan qadimiy dam olish bog‘lari shunday deb nom olgan.

Park – bog‘-parkchilik san‘ati tamoyillari asosida shakllantirilgan, maydoni 5 gektar va undan ko‘p bo‘lgan, aholining dam olishi va madaniy hordiq chiqarishi uchun mo‘ljallangan ko‘kalamzorlashtirilgan va obodonlashtirilgan yashil massiv.

Parklar vazifasiga ko‘ra, ko‘p funksiyali va maxsus parklarga bo‘linadi. Ko‘p funksiyali parklarga, odatda, madaniyat va istirohat parklari, maxsus parklarga esa sport, bolalar parki, sayr qilish parki, attraksion parklar, ilmiy-oqartuv parklari, zoopark, me‘morial parklar va boshqa vazifalarga mo‘ljallangan parklar kiradi.

Egallagan hududiga qarab parklar kichik (5–20 ga), o‘rta (20–100 ga) va katta (100 ga dan ziyod) parklarga bo‘linadi. Shahar parklarining maydonini 500 ga dan, shahar tashqarisida joylashgan parklar maydonini esa 1000 ga dan oshirmaslik tavsiya etiladi.

Parter — skverlar, parklarning serhasham joylari, jamoat binolari oldilarini bezovchi manzarali tekis maysazor yoki gulzor maydonlar. Parterda hovuzlar va haykallar ham bo‘lishi mumkin. Parterlar gulli, maysali va jimjimador naqshli xillarga ega.

Peyzaj — joy yoki tabiat manzarasining umumiy ko‘rinishi; hajmiy-fazoviy tuzilishi jihatidan ochiq, yarim ochiq, yarim yopiq va yopiq manzaralarga bo‘linadi.

Ritm — bog‘-parkchilik san’ati obyektlarida turli qiyosiy elementlarning maromiy tarzda takrorlanishi, qaytarilishi.

Simmetriya — shakl yoki predmetlarning markaziy o‘q chiziqqa, shuningdek, tekislikka nisbatan aynan, muqobil joylashuvi, o‘zaro o‘x-shashlik. Simmetriyaning teskarisi asimmetriyadir.

Xiyobon — bog‘ qismlarini o‘zaro bo‘glaydigan bosh yo‘l, ikki yoniga qator daraxtlar, gullar ekilgan, ariqlari yoki favvorolari bo‘lgan sayrgoh yo‘l. Xiyobon usti ochiq yoki yopiq bo‘lishi mumkin.

Ekzotik o‘simliklar — chetdan keltirilgan, mahalliy joyga xos bo‘lmagan chiroyli daraxtlar va o‘simliklar.

Qishgi bog‘ — ekzotik o‘simliklarni o‘stirishga mo‘ljallangan usti oyna bilan yopilgan katta xona, zal yoki shunday zalning bir qismi. Hovuzlar, haykallar, favvoralar bilan bezalishi mumkin.

Chorbog‘ — to‘rt tomoni devor bilan aylantirilgan darvozali, tarhi kvadrat yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shaklli muntazam handasaviy simmetrik yechimga ega, markazida saroy-ko‘shk, uning oldida yoki atrofida hovuz, undan to‘rt tarafga ketgan ariqlar, darvozalardan saroygacha xiyobonlar, to‘rt tomonida chorchamanlar, chamanlar va devorlar bo‘ylab yo‘llar, manzarali va mevali daraxtlar, gulzorlar va favvoralar bilan bezalib ishlangan me’moriy sayrgoh bog‘.

Chortoq — to‘rt tomonida toq-ravoqi bo‘lgan to‘rtburchak shaklli bog‘ imorati; to‘rt tomoni ochiq ravoqli ko‘shk.

Chorchaman — chorbog‘larning muhim tarkibiy qismi, u to‘rtta chaman-dan iborat bo‘lib, har bir chaman markazida alohida mevali daraxtlar, ularning atrofida gullar, chaman chetlari bo‘ylab esa yo‘laklarga soya beruvchi manzarali daraxtlar ekilgan. Chorchamanlar markazida hovuz, ayrim hollarda hovuz o‘rniga ko‘shk, shiypon joylashtirilgan.

Chavgon — ayrim chorbog‘larda keng chimlik maydonda ot ustida o‘tirib darvozaga to‘p surish milliy o‘yini (polo).

Shiypon — atrofi ochiq, poydevori baland yozlik yengil qurilma, hovli yoki bog‘ imorati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Adilova L.A.* Landshaft arxitekturası. – Toshkent, 2002.
2. *Alimov O'.* O'rtta asrlarda Movarounnahrda bog'chilik xo'jaligi tarixi. – T., 1984.
3. *Булатов М.С.* Сады и парки Темура и темуридов. // Маскан, №1–2, 1993.
4. *Bobur Zahiriddin Muhammad.* Boburnoma. – T., 1960.
5. *Горохов В.А., Луниц Л.Б.* Парки мира. – М., 1985.
6. *Дробченко Н.В.* Исторически сложившиеся принципы архитектурно-ландшафтных решений садов и парков Средней Азии. // Me'morchilik va qurilish muammolari ilmiy-texnik jurnali. №2. – Samarqand, 2004.
7. *Ибрагимов Н.* Ибн Баттута и его путешествие по Средней Азии. – М., 1988.
8. *Клавихо, Рюи Гонзалес де.* Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). – М., 1990.
9. *Кларк Э.* Искусство исламского сада. Пер. с англ. – М., 2008.
10. *Кохно Б.И.* Садово-парковое искусство. – Л., 1980.
11. *Курбатов В.Я.* Всеобщая история ландшафтного искусства. Сады и парки мира. – М., 2007.
12. *Nozilov D.A.* Chorbog'. – T., 1997.
13. *Ojegov S.S., Uralov A.S., Rahimov K.J.* Landshaft arxitekturası va dizaını. – Samarqand, 2003.
14. *Пугаченкова Г.А.* Садово-парковое искусство Средней Азии в эпоху Тимура и тимуридов. // Труды САГУ, новая серия. Гуманитарная наука. – Т., 1951.
15. *Тохтаходжаева М.С.* Общие в архитектурно-планировочных приёмах садово-паркового искусства Средней Азии XIV–XV вв. и Индии XVI–XVII вв. // Культура Среднего Востока. Градостроительство и архитектура. – Т., 1989.
16. *Uralov A.S., Hojixonov M.* Temuriylar ma'naviyati va madaniyati. – Samarqand, 1996.
17. *Uralov A.S.* Markaziy Osiyoning islomgacha davridagi bog' -parklari va ularning keyingi davrlardagi izchilligi.// Me'morchilik va qurilish muammolari ilmiy-texnik jurnali. № 1–2. – Samarqand, 2001.
18. *Uralov A.S., Rahimov K.J., Uralov Sh.* Markaziy Osiyo landshaft me'morchiligining chorbog' uslubiga xos xususiyatlari. // «O'zbekistonda landshaft me'morchiligini rivojlantirish yo'llari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2003.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I bob. Sharq mamlakatlarining qadimgi bog‘-park san‘ati

1.1. Misrning qadimgi bog‘-park san‘ati	9
1.2. Mesopotamiyaning qadimgi bog‘-parklari	18
1.3. Eronning qadimgi bog‘lari	28
1.4. Turonning qadimgi bog‘lari	40
1.5. Hindistonning qadimgi bog‘lari	53
1.6. Xitoyning qadimgi bog‘-parklari	62

II bob. Sharq mamlakatlarining o‘rta asrlardagi bog‘-park san‘ati

2.1. Movarounnahr: Samarqand va Buxoroning o‘rta asrlardagi bog‘-saroylari	71
2.2. Temuriylar davlati, Hirot va Qobulning o‘rta asrlardagi bog‘lari	86
2.3. Eronning o‘rta asrlar bog‘-park san‘ati	101
2.4. Turkiya va Kichik Osiyoning o‘rta asrlardagi bog‘-parklari	127
2.5. Shimoliy Hindiston, Pokiston va Kashmir bog‘-park san‘ati	152
2.6. Xitoy bog‘-park san‘ati	163
2.7. Yaponiya bog‘-park san‘ati	177

III bob. Sharq mamlakatlarining zamonaviy bog‘-parkchilik san‘afi

3.1. Eron va Turkiyaning zamonaviy bog‘-parklari	189
3.2. O‘zbekistonning zamonaviy bog‘-parklari	198
3.3. Xitoyning zamonaviy bog‘-parklari	242
3.4. Yaponiyaning zamonaviy bog‘lari	250
Xulosa	265
Tayanch iboralar lug‘ati	266
Foydalanilgan adabiyotlar	270

K.D.Raximov, A.S.Uralov

SHARQ MAMLAKATLARINING BOG‘-PARK SAN‘ATI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlarining «Arxitektura», «Qishloq hududlarini
arxitektura-loyihaviy tashkil etish» va «Landshaftlar arxitekturasi»
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etilgan*

**«TAFAKKUR BO‘STONI»
TOSHKENT — 2013**

Muharrir	<i>Sh. Rahimqoriyev</i>
Musahhih	<i>S. Abduvaliyev</i>
Sahifalovchi	<i>U. Vohidov</i>
Dizayner	<i>D. O‘rinova</i>

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011-y.
Bosishga 2013-yil 9 oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×84¹/₁₆.
Ofset qog‘ozi. «Times» garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 17,0.
Nashr tabog‘i 17,3. Shartnoma № 55-2013. Adadi 500. Buyurtma № 55-1.

«Tafakkur-Bo‘stoni» nashriyoti. Toshkent sh., Yunusobod, 9-mavze, 13-uy.
Telefon: (+99894) 941-60-06. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«Tafakkur Bo‘stoni» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Chilonzor ko‘chasi, 1-uy.